

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA URTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ONA TILI

Ma'ruza matnlari

(Fonetika, orfografiya, orfoepiya,
leksikalogiya, frazeologiya)



Muallif:

f.f.n., dots. M.Hamidova

1-qism

NAMANGAN — 2010

Ma'ruza mavzusi: *Tilshunoslikdan umumiy ma'lumot.*

Dars rejasi:

1. Tilshunoslik fani haqida ma'lumot.
2. Tilning ijtimoiy mohiyati
3. Tilning tuzilishi
4. Milliy va adabiy til
5. Tillarning tasnifi.

Adabiyotlar: 1(3–12b), 2(3–15b),

1. Tilshunoslik, yoki lingvistik til haqidagi fan bo'lib, tilning ijtimoiy mohiyati, uning ichki tuzilishi, tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti, tillarning tasnifi va shu kabi masalalarni o'rganadi.

Ma'lumki, hozirgi zamon fani quyidagi asosiy bo'limlardan tarkib topgan:

- 1) Tabiiy fanlar va texnik fanlar;
- 2) Ijtimoiy fanlar;
- 3) Matematik fanlar;
- 4) Falsafa

Tilshunoslik kishilar tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy (gumanitar) fanlar qatoriga kiradi.

Tilshunoslik hozirgi zamon fanining barcha asosiy bo'limlari bilan bog'liq.

2. Til ijtimoiy hodisadir.

Til kishilarning o'zaro aloqa qilishi va fikr almashuviga ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy hodisadir. SHuning uchun ham tilning taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Jamiyatsiz tilning, tilsiz jamiyatning bo'lishi mumkin emas.

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi.

U bugun jamiyat uchun, jamiyatning barcha a'zolari uchun bab – barovar xizmat qiladi. Ana shu xususiyati bilan u adabiyot, san'at kabi ijtimoiy hodisalardan farq qiladi.

3. Tilning tuzilishi.

Til o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan murakkab hodisadir. U bir–biri bilan uzviy bog'langan 3 asosiy qismdan tashkil topgan: 1. tovushlar tizimi. 2. Lug'at tarkibi yoki leksika. 3. Grammatik qurilish.

Ma'lumki, inson tili tovush tilidir. Har bir til o'zining tovush tizimiga ega. Tovushlar so'zlarni, iboralarni shakllantiradi.

Lug'at tarkibi yoki leksika tilning so'z xazinasini bo'lib, shu tildagi mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralar yig'indisidan iborat.

Tilda fikr gaplar orqali ifodalanadi. Gaplar esa so'zlardan, so'zlarning o'zaro grammatik aloqaga kirishuvidan hosil bo'ladi. Demak, grammatik qurilish tufayli so'z xazinasini fikr ifodalash uchun xizmat qiladi.

Grammatik so'zlarning o'zgarishi, gap tuzish qoidalarini belgilaydi. Har bir til o'zining ana gu qismlari bilan bir butun sistemani (tizimni) tashkil etadi.

Til to'xtovsiz ravishda o'zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi hodisadir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq.

4. Milliy va adabiy til

Ma'lumki, o'zbek xalqi Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan bo'lib, uning tili XI–XII asrlarda ma'lum ijtimoiy – tarixiy sharoitlarga ko'ra xalq tili sifatida shakllana boshladi va asta – sekinlik bilan rivojlanib keldi.

Jamiyatning muayyan tarixiy sharoitida xalqlar (elatlar) taraqqiy qilib, millatga, xalq tillari esa milliy tillarga aylanadi. Demak, milliy til millatning paydo bo'lishi bilan yuzaga keladi.

Adabiy til tilning ma'lum normalarga kiritilgan, ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan ko'rinishidir. U yozuvning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Adabiy tilning 2 shakli bor: a) og'zaki adabiy til; b) yozma adabiy til.

Adabiy tilning og'zaki shakli nisbatan qadimiy bo'lib, u nutq tovushlari, intonatsiya, urg'u kabi vositalarga asoslanadi. Talaffuzga oid qoida va me'yorlarni orfoepiya belgilab beradi.

Adabiy tilning yozma shakli grafik vositalarga asoslanadi va yozma adabiy tilning qoida va me'yorlarini orfografiya (imlo) belgilaydi.

Milliy til va adabiy til tushunchasini bir xil emas. Negaki milliy til millatning paydo bo'lishi bilan maydonga kelsa, adabiy til esa undan oldin ham xalq tili sifatida yuzaga keladi.

Milliy til tushunchasi adabiy til tushunchasiga nisbatan ancha keng bo'lib, u tildagi barcha mahalliy lahjalarni (dialektlarni) va shevalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, o'zbek milliy tili quyidagi 3 lahjani o'z ichiga oladi: 1) qipchoq lahjasi; 2) o'g'uz lahjasi; 3) qarluq – chigil – uyg'ur lahjasi. Keyingi lahja esa bir necha shevalar yig'indisidan iborat: Toshkent shevasi, Farg'ona shevasi, Namangan shevasi, Andijon shevasi, Qo'qon shevasi, Marg'ilon shevasi, Samarqand shevasi, Buxoro shevasi, Qarshi shevasi va h.k.

O'zbek adabiy tili mavjud 3 ta lahjalardan bittasiga: qarluq – chigil – uyg'ur lahjasiga tayanadi va uning me'yorlarini fonetik jihatdan Toshkent shevasi, morfologik jihatdan Farg'ona shevasi belgilaydi.

Tillarning tasnifi.

Olimlarning tahmin qilishlariga, er yuzida 3 mingdan ortiq til mavjud. Bularning ko'pchiligi milliy tillar va xalq tillaridir. Ayrim joylardagi qabila tillari ham shularga kiradi.

Milliy tillar o'zlarining tarqalish hududi jihatidan hamda ulardan foydalanuvchi aholining miqdori jihatidan bir xil emas: ayrim tillarda kichik hududdagi va oz miqdorli aholi gaplashadi, ba'zi tillar esa juda katta hududlarda va ko'p sonli aholi orasida tarqalgan. Bunday tillarga ingliz, frantsuz, ispan va shu kabi tillar kiradi.

Er yuzida tillarni o'rganish XVIII asrdan boshlandi. XIX asrning 1 yarmida tillarni bir – biriga qiyoslab tekshirish keng tus oldi. Natijada tillarni tekshirishda qiyosiy usul vujudga keldi, bunda tillarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari bir – biriga solishtiriladi. Bu usul bilan tillarning faqat hozirgi holatigina emas, balki ularning tarixiy holati ham o'rganiladi. SHuning uchun ham bu usul qiyosiy – tarixiy usul deb ham yuritiladi. Bu yo'l bilan tillarni o'rgangan va ilmiy asarlari bilan tanilgan tilshunoslar sifatida daniyalik Rasmus Raskin (1787 – 1832), nemis olimlari Frans Bopp (1791 – 1867) va YAkob Grimmni (1785 – 1863), rus olimi Aleksandr Vostokovni (1781 – 1864) ko'rsatish kerak.

Tilshunoslikda tillarning bir necha tasniflari (klassifikatsiyasi) mavjud: 1) areal (geografik), 2) morfologik, 3) genealogik, 4) funktsional.

Tillarning genealogik tasnifi.

Bu tasnif tilshunoslikda tillarni qiyosiy – tarixiy usul bilan tekshirishning mahsuli bo'lib maydonga keldi. Bu tasnifga ko'ra, tillar bir umumiy manbadan kelib chiqqanligi, materiali (so'z, undagi tovushlar, qo'shimchalar) jihatidan yaqinligi, o'xshashligiga asoslanib gruppalariga ajratiladi. Bir umumiy manbadan kelib chiqqan tillar qarindosh tillar oilasini tashkil etadi.

Tillar oilasi qarindosh tillarning juda yirik katta gruppasi hisoblanadi. Tillar oilasi ichida bi necha tillar gruppasini ajratish mumkin.

Masalan, eng katta tillar oilasi sanalmish hind – evropa tillar oilasi quyidagi guruh tillarga ajratiladi:

I. Hind tillari II. Eron tillari. III. Roman tillari. IV. German tillari. V. Kel't tillari. VI. Boltiq tillari. VII. Slavyan tillari. VIII. Grek tili IX. Alban tili. X. Arman tili.

Oltoy tillar oilasi esa quyidagi guruh tillariga bo'linadi:

I. Turk tillari (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turk, turkman □)

II. Mug'ul tillari. III. Tungus – man'chjur tillari.

Tillarning morfologik tasnifi.

Bu tasnifga ko'ra tillarning qarindoshligidan qat'iy nazar, so'zlarning tuzilishi asos qilib olinadi.

Bunda tillar 4 gruppaga bo'linadi: I. Amorf tillar. II. Agglyutinatív tillar. III. Flektiv tillar. IV. Polisintetik tillar.

Amorf tillarda grammatik ma'no yordamchi so'zlar, so'zlar tartibi, urg'u vositasida ifodalanadi. Bunga xitoy, birma, v'etnam tillari kiradi. Agglyutinatív tillarda har bir grammatik ma'no alohida qo'shimcha orqali ifodalanadi: kursdosh – lar – im – ni.

Agglyutinatív tillarga oltoy oilasidagi tillar, ugor – fin, iberiy – kavkaz tillari kiradi.

Flektiv tillarda birdan ortiq grammatik ma'no birgina ko'rsatkich orqali ifodalanadi. Masalan, **kniga** so'zidagi – a tugallanmasi (okonchanie) ham birlik sonni, ham bosh kelishik (imenitel'no'y padej)ni ham jinsni (jenskiy rodni) ifodalaydi. Bunday tillarga hind – evropa tillari, semit tillar kiradi.

Polisintetik tillarning xususiyati shundaki, unda butun bir gap bir so'z holida yoziladi. Bunga chukot tili kiradi.

Tekshirish savollari:

Tilshunoslik fani qanday fan?

Uning hozirgi zamon fanlar ichida tutgan o'rnini qanday izohlash mumkin.

Tilning ijtimoiy mohiyatini qanday tushunasiz?

Til tuzilishi jihatdan qanday qismlardan iborat?

Milliy til nima?

Adabiy til – chi?

Adabiy tilning qanday shakllari bor?

Tillarning qanday tasniflarini bilasiz?

Tillarning genealogik tasnifi nima?

Tillarning morfologik tasnifining mohiyati nimada?

1. O'zbek tili tillarning genealogik va morfologik tasniflari bo'yicha qanday o'rin tutadi?

Tayanch tushunchalar:

1. Tilshunoslik fani, yoki lingvistika.
2. Tilning ijtimoiy mohiyati.
3. Tilning tuzilishi.
4. Milliy til.
5. Adabiy til.
6. Tillarning genealogik tasnifi.

Ma'ruza mavzusi: ***Fonetika***

Dars rejasi:

1. Fonetika haqida umumiy ma'lumot.
2. Tilning fonetik vositalari.
3. Nutq apparati, uning tuzilishi
4. Nutq tovushlari tasnifi:
 - 1) unli tovushlar,
 - 2) undosh tovushlar.
5. Unli tovushlar va ularning tasnifi.

Adabiyotlar 1(12 – 35b), 2(15 – 30b),

1. Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushlarini o'rganadigan bo'limi. Fonetikada tildagi tovushlar tizimi, nutq tovushlarining hosil bo'lishi, o'zgarishlari, nutqning fonetik bo'linishi, urg'u, intonatsiya tekshiriladi.

Nutq tovushlari til uchun moddiy baza sanaladi, chunki inson tili tovush tilidir. Tildagi so'zlar, iboralar, gaplar nutq tovushlari orqali shakllanadi.

2. Tilning fonetik vositalari so'z ma'nalarini ajratish, chegaralash uchun xizmat qiladigan vositalar sanaladi. Bunday vositalarga nutq tovushlari, urg'u, intonatsiya kiradi.

Nutq tovushlari ayrim – ayrim holda ma'no ifodalamaydi, lekin har qanday so'z nutq tovushlari vositasida shakllanadi. Masalan, **kitob** so'zi k, i, t, o, b tovushlari vositasida shakllangan.

Nutq tovushlarining uch tomoni bor:

- 1) fizik (akustik);
- 2) fiziologik (artikulyatsion);
- 3) lingvistik (tilshunoslik).

Akustik (fizik) jihatdan nutq tovushi havo oqimining tebranishidir. O'pkadan chiqayotgan havo oqimi un paychalarining tebranishini va havo oqimining nutq a'zolariga ishqalanishidan yuzaga keladigan tebranishni etkazadi.

Fiziologik (akustik) jihatdan nutq tovushi nutq apparati faoliyatining natijasi sifatida belgilanadi. Nutq tovushlarini hosil qilish vaqtida nutq a'zolarining harakati va holati artikulyatsiya deyiladi.

Lingvistik jihatdan nutq tovushi tilda ma'lum bir vazifa bajarishini belgilovchchi fonetik vositadir.

Nutq tovushi: 1) so'zlarni tuzish uchun moddiy baza sanaladi; 2) so'z va so'z shakllarini farqlash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, **tiz – tuz** so'zlari **i, u**, unlilari bilan farqlanadi.

Lingvistik tomoni nutq tovushini tabiatda uchraydigan barcha tovushlardan farqlaydi, chunki faqat nutq tovushlarigina ijtimoiy mohiyatga ega.

So'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush tipi fonema deyiladi. Masalan, **bir – bur – bor – ber – bo'r** so'zlari tarkibidagi **i, u, o, e(e), o'** tovushlari so'z ma'nolarini belgilashga xizmat qiluvchi fonemalardir.

Hozirgi o'zbek tilida 31 ta fonema bo'lib, ular lug'at tarkibidagi barcha so'zlar, iboralarni, shuningdek grammatik ko'rsatkichlarni shakllantiradi.

Urg'u ayrim shakldosh so'zlarning ma'no va grammatik shakllarini farqlash uchun fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan, suzma (predmet, sut mahsuloti), suzma (harakat: suzmoq fe'lining bo'lishsiz shakli); fizik (predmet, ot), fizik (belgi, sifat).

Intonatsiya gapning maqsadga ko'ra turini ajratishda fonetik vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, Eshik taqilladi (darak gap). Eshik taqilladi? (so'roq gap).

3. Nutq apparati.

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan a'zolar nutq a'zolari deyiladi. Nutq a'zolarining jami nutq apparati deb yuritiladi.

Nutq apparati quyidagi qismlarga bo'linadi:

1. Nafas apparati (bunga o'pka, bir juft bronxlar va nafas yo'li, yoki traxeya kiradi).
2. Bo'g'iz bo'shlig'i (bunga xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar va un paychalari kiradi).
3. Og'iz bo'shlig'i (bunga til, tanglay, kichik til, lab, tishlar kiradi).
4. Burun bo'shlig'i.

Til, kichik til, lablar, yumshoq tanglay, un paychalari – faol a'zolar; tish, qattiq tanglay, burun bo'shlig'i – nofaol a'zolar.

Tovushlarni hosil qilish murakkab tabiiy – fiziologik jarayon bo'lib, bunda markaziy nerv sistemasi nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi va uni bevosita boshqaradi. CHunonchi, o'pka nutq tovushlarini talaffuz etish uchun zarur bo'lgan havo oqimining manbaidir:

So'zlash paytida havo oqimi nafas yo'li bilan bo'g'izga kelib, u erda joylashgan o'n (ovoz) paychalarini tebratadi va ovoz hosil qiladi. Demak, bo'g'iz bo'shlig'i ovoz manbaidir.

Bo'g'iz bo'shlig'i orqali o'tgan havo oqimi og'iz bo'shlig'idagi til, tanglay yoki ikki labning to'siqligiga duch kelib, shovqin hosil qiladi. Demak, og'iz bo'shlig'i shovqin manbai hisoblanadi.

4. Nutq tovushlarining tasnifi.

Ovoz va shovqinning ishtirok etish darajasiga ko'ra tildagi fonemalar ikkiga bo'linadi: unli fonemalar va undosh fonemalar.

Unli fonemalar un paychalarining tebranishidan paydo bo'ladi va ularni talaffuz qilganda, o'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramay chiqadi.

Undosh fonemalar shovqindan iborat bo'ladi yoki ularda qisman shovqin qatnashadi, undoshlarning talaffuzida o'pkadan chiqadigan havo oqimi bo'g'izdagi un paychalarini ba'zan tebratib, ba'zan tebratmasdan o'tib, og'iz bo'shlig'idagi a'zolarining to'sig'iga uchrab, portlab yo sirg'alib chiqadi.

5. O'zbek adabiy tilining unli fonemalari.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida unli fonemalar oltita: i, e (e), a, u, o', o. ular uch tomondan tasnif qilinadi:

- 1) tilning gorizontal harakatiga ko'ra;
- 2) tilning vertikal harakatiga ko'ra;
- 3) lablarning ishtirokiga ko'ra.

Tilning gorizontal harakatiga ko'ra unlilar 2 xil bo'ladi: a) til oldi unlilari (i, e (e), a);

- b) til orqa unlilari: (u, o', o).
Tilning vertikal harakatiga ko'ra unlilar 3 xil bo'ladi: a) yuqori (tor) unlilari: i, u;
b) o'rta keng unlilari: e(e), o';
v) quyi (keng) unlilari a, o.
Lablarning ishtirokiga ko'ra unlilar ikkiga bo'linadi:
1) lablangan unlilar: u, o', o;
2) lablanmagan unlilar i, e(e), a.

Tekshirish savollari:

1. Fonetika nimani o'rgatadi?
2. Tilning fonetik vositalariga nimalar kiradi?
3. Nutq apparati nima? U nimalardan tuzilgan?
4. Nutq tovushlarining qanday turlari bor?
5. Hozirgi o'zbek tilida nechta unli fonema bor, ular qanday tasnif qilinadi?
6. Nafas apparati qanday tuzilgan? U nimaning manbai?
7. Bo'g'iz bo'shlig'i qanday vazifa bajaradi?
8. Og'iz bo'shlig'iga qanday a'zolar kiradi?
9. Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra unlilar necha xil bo'ladi?
10. Lablangan yoki lablanmagan unlilar qaysilar?

Tayanch tushunchalar:

1. Fonetika.
2. Nutq tovushlari.
3. Fonema.
4. Nutq a'zolari.
5. Nutq apparati.
6. Unli fonema.

Ma'ruza mavzusi: O'zbek adabiy tilining undosh fonemalari

Dars rejasi:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili undosh fonemalari
2. Undosh fonemalarning tasnifi

Adabiyotlar 1 (21 – 26b), 2(47 – 98b),

Hozirgi o'zbek adabiy tili undosh fonemalar 25 ta: b, v, g, d, j, z, y, k, l, m, n, r, s, t, f, x, ts, sh, q, g', h, ng.

Bu undoshlardan uchta: sirg'aluvchi j, lab–tish undoshi v va qorishiq ts boshqa tillardan kirgan so'zlarda keladi.

Undosh fonemalar quyidagicha tasnif qilinadi:

- I. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra.
- II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra
- III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.

Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar 3 xil guruhlanadi:

1. Lab undoshlari. 2. Til undoshlari. 3. Bo'g'iz undoshi.

Lab undoshlari ikki xil bo'ladi: 1) lab–lab undoshlari (b,n,v,m); 2) lab–tish undoshlari (f va v).

Til undoshlari to'rt xil bo'ladi: 1) til oldi undoshlari (t, d, n, l, r, s, sh, j, ch, ts);

2) til o'rta undoshi: y;

3) til orqa undoshlari (k, g, ng);

4) chuqur til orqa undoshlari (q, g', x).

Bo'g'iz undoshi bitta – h.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undosh fonemalar 3 turga bo'linadi: 1. Portlovchilar. 2. Sirg'aluvchilar. 3. Portlovchi – sirg'aluvchilar.

Portlovchi undoshlar artikulyatsiya qiluvchi ikki a'zoning o'zaro jipslashuvi va o'pkadan chiqadigan havoning ma'lum zarb bilan portlab o'tishidan hosil bo'ladi. Portlovchilar 2 xil bo'ladi: 1) sof portlovchilar (b, p, d, t, k, g, q); 2) qorishiq portlovchilar, yoki affrikatlar (ch, ts, j).

Sirg'aluvchi undoshlar artikulyatsiya qiluvchi ikki a'zoning o'zaro jipslashmay, faqat bir qadar yaqinlashishi va havo oqimining ikki a'zo orasidan sirg'alib chiqishidan hosil bo'ladi. Bular: v, f, z, s, j, sh, y, x, h.

Portlovchi – sirg'aluvchi undoshlar bir vaqtning o'zida ham portlash, ham sirg'alish ro'y berishi natijasida hosil bo'ladi. ularga m, n, ng, l, r undoshlari kiradi. Bunday undoshlar hosil bo'lish usuliga ko'ra boshqa undoshlardan, jumladan, portlovchi, sirg'aluvchi undoshlardangina emas, o'zaro ham farq qiladi. Masalan, **m** undoshining hosil bo'lishida o'pkadan kelayotgan havo oqimining bir qismi og'iz bo'shlig'idan lablarning to'sig'iga uchrab, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'idan sirg'alib chiqadi; **n** undoshining hosil bo'lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib, yarim portlash ro'y beradi, havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'i orqali sirg'alib chiqadi; **ng** tovushining hosil bo'lishida tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, havo oqimining qisman portlashi va bir qism havo oqimining burun bo'shlig'idan sirg'alib chiqishi ro'y beradi.

Ko'rinadiki, **m**, **n**, **ng** (n) undoshlari talaffuz qilinganda, havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali sirg'alib chiqadi, shuning uchun ular burun undoshlari deb ham ataladi, **l** undoshini hosil qilishda til uchi milkka tegadi, havo oqimining tilning ikki yonidan sirg'alib o'tishi uni og'iz bo'shlig'idan qisman portlab, qisman sirg'alib chiqishiga sabab bo'ladi, shu tufayli u yon tovush deb yuritiladi, **r** undoshini hosil qilishda havo oqimi tilning uchiga zarb bilan uriladi va uni titratadi, bu jarayon esa havo oqimining og'iz bo'shlig'idan portlab – sirg'alib chiqishiga olib keladi, shuning uchun ham u titroq undosh deyiladi.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undosh fonemalar dastlab ikkiga bo'linadi: 1. Sonorlar. 2. SHovqinlar.

Sonor undoshlarni **m**, **n**, **ng**, **l**, **r** undoshlarini talaffuz qilganda un paychalari faol ishtirok etadi, ya'ni un paychalari titrab ovoz hosil qiladi. SHuning uchun ham sonor undoshlarda ovoz miqdori shovqinga nisbatan ko'proqdir (sonor lotincha «ovozdor» demakdir).

Demak, sonorlar unli tovushlarga bir oz yaqin turadi, lekin og'iz bo'shlig'ida qisman shovqin ishtirokida paydo bo'lganidan, sonorlar undosh hisoblanadi.

SHovqinlilar un paychalarining ishtirokiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) jarangli undoshlar; 2) jarangsiz undoshlar.

Jarangli undoshlarni talaffuz qilganda, un paychalari qatnashadi, demak, shovqinga ovoz qo'shiladi, lekin jarangli undoshlardagi ovoz miqdori shovqinga nisbatan ozroqdir. Bular: b, v, g, d, z, y, g', j, j.

Jarangsiz undoshlarni talaffuz qilganda, un paychalari ishtirok etmaydi, demak, jarangsizlar faqat shovqindan iborat bo'ladi. Bular: p, f, k, t, sh, ch, s, x, h, q, ts.

Tekshirish savollari:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili undosh fonemalarini tavsiflab bering.
2. Undosh fonemalarni qanday tasnif qilinadi? Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar qanday turlarga ajratiladi?
3. Hosil bo'lish (artikulyatsiya) usuliga ko'ra undoshlarning qanday turlari mavjud?
4. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undoshlarni qanday turlarga ajratish mumkin?
5. Lab undoshlarining qanday turlari mavjud?
6. Til undoshlari necha turlarga bo'linadi?
7. Portlovchi undoshlarning qanday turlarini bilasiz?
8. Portlovchi – sirg'aluvchi undoshlar qanday turlarga ajratiladi?
9. Sonor undoshlar qaysilar?
10. Jarangli undoshlar qaysilar? Jarangsiz undoshlar – chi?

Tayanch tushunchalar:

1. Undosh fonemalar,
2. Lab undoshlari,
3. Til undoshlari,

4. Bo'g'iz undoshlar,
5. Portlovchilar, sonorlar.

Ma'ruza mavzusi: *Nutqning fonetik bo'linishi*

Dars rejası:

1. Frazı — nutqning asosiy fonetik birligi sifatida
2. Takt — frazaning bir qismi
3. Fonetik so'z haqida
4. Bo'g'in, uning turlari, tuzilishi
5. Urg'u, uning turlari
6. Tovush

Adabiyotlar: 1(21 – 26b),

Inson nutqi turlicha hajmdagi fonetik birliklarni o'z ichiga oladi. Bular: fraza (jumla), takt, fonetik so'z, bo'g'in, tovush.

Fraza, yoki **jumla** nutq oqimida kattaroq pauza bilan ajratib aytiladigan nutq birligidir. U intonatsion va fikriy tugallikka ega bo'lgani uchun ko'pincha gapga teng keladi. Masalan, «Har narsani ko'rishga va so'rashga qiziqish yosh bolalarning eng yaxshi hosiyatidir. Bu esa ularning ilmga bo'lgan havaslari negizidir». Bu nutqiy parchada ikkita fraza (jumla) bor.

Takt frazaning ikki qisqa pauza orasida keluvchi va bir bosh urg'u bilan aytiluvchi bo'lagidir. Masalan, Har ishning o'ziga xos odobi bo'lgani kabi, so'zlashning ham o'lchovi va odobi bordir. («Oz – oz o'rganib dono bo'lur»).

Bu fraza 6 ta taktdan iborat bo'lib, birinchi va ikkinchi taktlar ikki fonetik so'zdan, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi taktlar bir fonetik so'zdan, oltinchi takt esa ikki fonetik so'zdan tashkil topgan.

Ba'zan fraza bir taktda teng bo'ladi: Behavo. Bog'larning ortidan shovullab soy o'tadi.

Fonetik so'z o'z urg'uga ega bo'lgan so'z yoki bir urg'uga birlashadigan ikki va undan ortiq so'z shakllaridir. Takt tarkibidagi fonetik so'zlar soni undagi so'zlarning umumiy miqdori bilan emas, urg'uli so'zlar miqdori bilan belgilanadi, ya'ni takt ichida urg'uli so'zlar qancha bo'lsa, fonetik so'z ham shuncha bo'ladi. Masalan, Oliy qalb egasi bo'lmagan odam dunyo rohatini ham, mashaqqatini ham ko'tara olmaydi. (Oz – oz o'rganib dono bo'lur). Bu jumlada to'rtta takt bo'lib, 1 – taktda 4 ta fonetik so'z, 2 – taktda 2 ta fonetik so'z, 3 – va 4 – taktda bittadan fonetik so'z qatnashgan.

Mustaqil urg'uga ega bo'lmagan yordamchi so'zlar o'zlari aloqador bo'lgan mustaqil so'z bilan birga bir urg'uga ega bo'ladi va bir fonetik so'zni tashkil etadi.

Bo'g'in. O'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytiladigan tovushlar yoki ayrim bir tovush bo'g'in deyiladi. Unli tovush bo'g'in hosil qiluvchi tovush hisoblanadi. SHunga ko'ra so'zda nechta unli tovush qatnashsa, u shuncha bo'g'inga ajratiladi. Masalan, **umid** so'zida ikki bo'g'in bor u – mid.

Bo'g'inlar bir tovushli, ikki tovushli va ko'p tovushli bo'lishi mumkin. Masalan: o – na, o – ta, a – ka, u – ka so'zlarining birinchi bo'g'ini bir tovushdan, ikkinchi bo'g'ini ikki tovushdan, o – dam, o – rom, o' – tir, o – tash so'zlarining ikkinchi bo'g'ini uch tovushdan, ar – tist, fun – da – ment so'zlarining oxirgi bo'g'ini to'rt tovushdan, a – git – punkt, a – le – bastr so'zlarining oxirgi bo'g'ini besh tovushdan iborat. Bir tovushli bo'g'inlar unli tovushdangina iborat bo'lsa, ikki tovushli va ko'p tovushli bo'g'inlar unli va undosh tovushlardan tuziladi.

Bo'g'in ikki xil bo'ladi: 1) ochiq bo'g'in – bir tovushli yoki oxiri unli tovush bilan tugagan bo'g'in: o – i – la, da – la, a – ra – va, Ka – ri – ma; 2) yopiq bo'g'in – undosh tovush bilan tugagan bo'g'in: mak – tab, dav – lat, zar – gar, dush – man, in – son, in – sof.

So'zlarning bo'g'inlarga to'g'ri ajrata bilishning muhim ahamiyati bor: 1) yozuvda so'zning bir qatorga sig'may qolgan qismi keyingi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi; 2) barmoq vaznida yoziladigan she'r misralari bo'g'in sonining teng bo'lishiga asoslanadi; 3) birinchi sinf o'quvchilarini savodga o'rgatish vaqtida ham asosiy diqqit so'zlarni bo'g'inlab o'qishga va yozishga qaratiladi.

Urg'u. So'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining (yoki gap tarkibidagi so'zlardan birining) boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishiga urg'u deyiladi.

Urg'u, odatda bo'g'indagi unli tovushga tushadi va so'zdagi urg'u olgan bo'g'in urg'uli bo'g'in, urg'u olmagan bo'g'inlar esa urg'usiz bo'g'in deyiladi. Masalan: Haqiqatdan ko'ra xatoni topish oson. Xato ko'rinib turadi, uni darrov payqaysan, haqiqat esa pinhona yashirishgan bo'ladi va uni har kim ham topavermaydi. (I.Gyote).

Urg'u so'z tarkibidagi biror bo'g'inga yoki gap tarkibidagi biror so'zga tushishiga qarab ikki turga ajratiladi: 1) so'z urg'usi (yoki leksik urg'u), 2) gap urg'usi (yoki logik urg'u).

So'z urg'usi, yoki leksik urg'u so'z bo'g'inlaridan biriga tushadigan urg'udir. U ikki xil bo'ladi: 1) bog'liq urg'u; 2) erkin urg'u.

Bog'liq urg'u so'zining biror bo'g'ini bilan bog'liq ravishda tushadigan urg'udir. O'zbek tili urg'usi bog'liq urg'u sanaladi, chunki u odatda cho'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi; so'zga qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'u ham o'zgarib so'zning oxirgi bo'g'iniga ko'chib boradi. Masalan, paxta – paxtakor – paxtakorlar – paxtakorlarga.

Bundan tashqari, o'zbek tilida urg'usi birinchi bo'g'iniga, o'rtadagi bo'g'inga tushadigan so'zlar ham bor. Masalan, hamma, doim, hozir, ammo, lekin, garchi, hamisha, afsuski.

O'zbek tilida urg'u olmaydigan elementlar ham bor. Bular: 1) bo'lishsizlikni ifodalovchi – ma qo'shimchasi; 2) o'xshatish ma'nosini ifodalaydigan – day (–dek), –cha qo'shimchalari; 3) –dir, –man, –san, –miz, –siz kesimlik qo'shimchalari; 4) –u(–yu), –da, –mi, –ku, –a (–ya) kabi affiks yuklamalar.

Erkin urg'u so'zning turli bo'g'inlariga tushishi mumkin bo'lgan urg'udir. Bu asosan, ruscha–internatsional so'zlarga xos. Masalan, sintaksis, assimilyatsiya, mashina, telefon, trolleybus.

Logik urg'u, yoki gap urg'usi gapdagi so'zlardan biriga tushadigan urg'udir. Bu urg'u odatda gapda ma'nosi ta'kidlanadigan bo'lakka tushadi. Masalan, fanni taraqqiy ettirmagan mamlakat, shubhasiz, mustamlakalikka aylanadi. (F. Jolio – Kyuri).

Tekshirish savollari:

1. Nutqimiz qanday fonetik birliklardan iborat?
2. Frazalar, nima?
3. Takt – chi?
4. Fonetik so'z nima?
5. Bo'g'in qanday fonetik birlik? Uning qanday turlarini bilasiz?
6. Urg'u nima?
7. Leksik va logik urg'u nima?
8. Erkin urg'u va bog'liq urg'u bir – biridan qanday farq qiladi?
9. O'zbek tilidagi urg'u qanday urg'u?
10. Urg'u olmaydigan qo'shimchalar va elementlar qaysilar?

Tayanch tushunchalar:

1. Urg'u.
2. Leksik urg'u.
3. Logik urg'u.
4. Erkin urg'u.
5. Bog'liq urg'u.
6. Bo'g'in.
7. Fonetik so'z.
8. Takt
9. Frazalar.

Ma'ruza mavzusi: Nutq tovushlarining o'zgarishi

Dars rejasi:

1. Nutq tovushlarining kombinator o'zgarishlari:
 - 1) Assimilyatsiya; 2) dissimilyatsiya; 3) metateza.
2. Nutq tovushlarining pozitsion o'zgarishlari:
 - 1) Reduktsiya; 2) eliziya; 3) apakona; 4) proteza;
 - 5) epenteza; 6) epiteza.

3. Transkripsiya (Fonetik yozuv).

Adabiyotlar. 1(28 – 31b), 2(71 – 77b),

Fonetik so'z tarkibidagi tovushlar talaffuz paytida yakka holda emas, ma'lum tartibda birikkan holda keladi.

So'zlarni talaffuz qilganda, tovushlar o'zaro bir–biriga ta'sir qiladi, natijada tovush o'zgarishi ro'y beradi. Masalan, **ket** so'ziga o'tgan zamon affiksi – **di** qo'shilganda, so'z oxiridagi **t** tovushi affiksdagi **d** undoshiga ta'sir qilib, uni **t** tovushiga aylantiradi: **ket+di=ketti** (yozilishi: ketdi); **bir** sanoq soniga dona son affiksi – **ta** qo'shilganda, affiksdagi **t** undoshining ta'siri natijasida so'zning oxiridagi **r** undoshi **t** ga o'tadi: **bir+taqbitta** kabi.

So'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siriga ko'ra tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o'ziga aynan yoki qisman o'xshash tovushga aylantiradi. Masalan, **ek+gan=ekkan** (o'zakdagi **k** tovushi affiks tarkibidagi **g** ni aynan o'ziga o'xshash tovush **k** ga aylantiradi); **osh+gan=oshkan** (o'zakdagi **sh** jarangsiz tovush affiks tarkibidagi **g** ni qisman o'ziga o'xshash tovush **k** ga aylantiradi, yozilishi: **oshgan**). SHunga ko'ra assimilyatsiya 2 xil bo'ladi: 1) to'liq assimilyatsiya; 2) to'liqsiz assimilyatsiya.

So'z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni aynan o'zi kabi tovushga aylantirishi **to'liq assimilyatsiyadir**: **chiq+gach=chiqqach**, **et+di=etti** (yozilishi: etdi), **ish+niqishshi** (yozilishi: ishni), **biz+niqbizzi** (yozilishi: bizni).

So'z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni qisman o'ziga o'xshatib olishi **to'liqsiz assimilyatsiya** bo'ladi: **shosh+di=shoshti**, **bosh+da=boshta**, **oqshom – ohshom** (yozilishi: shoshdi, boshda, oqshom).

Assimilyatsiya yana **progressiv** va **regressiv** bo'ladi.

Progressiv assimilyatsiyada oldingi tovush o'zidan keyingi tovushni o'ziga o'xshatib oladi: **terak+ga=terakka**, **ariq+ga=ariqqa**, **qish+da=qishta** (yozilishi: qishda).

Regressiv assimilyatsiyada keyingi tovush o'zidan oldingi tovushni o'ziga o'xshatadi: **nonvoyqnovvoy**, **shanba – shamba** (yozilishi: shanba) **bir+ta=bitta**.

Dissimilyatsiya (noo'xshashlik) hodisasi assimilyatsiyaning teskarisidir. Bu hodisaga ko'ra ikki aynan yoki qisman o'xshash tovushdan biri o'zgarib, noo'xshash tovushga aylanib qoladi. Masalan, **zarur>zaril**, **koridor>kalidor**, **nodon>lodon**, **bebosh>bevosh** kabi.

So'z tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda o'rin almashuviga metateza deyiladi, masalan, **daryo (daryo) – dayro**, **ahvol – avhol** (hv>vh) **tuproq – turpoq** (pr>rp), **yomg'ir – yog'mir** (mg'>g'm).

ovushlarning so'zdagi o'rni bilan bog'liq holda yuz beradigan o'zgarishi **pozitsion o'zgarish** deyiladi.

Tovushlarning so'z tarkibidagi o'rni uning pozitsiyasini tashkil qiladi. Tovushning so'zdagi o'rni, mavqei turlicha bo'ladi, u so'zning boshida, oxirida, urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi mumkin. SHularga ko'ra tovushlar turlicha o'zgaradi. Masalan, b, d undoshi so'z oxirida kelib, jarangsiz talaffuz qilinadi: **maktab – maktab**, **kitob – kitop**, **ozod – ozot**, **avlod – avlot** (yozilishi: **maktab**, **kitob**, **ozod**, **avlod**). Ruscha – baynalminal so'zlarning urg'usiz bo'g'inida **o** tovushi **a** yoki **i** tarzida aytiladi: **oktyabr'**, **noyabr'**, **direktor**, **rektor** so'zlari **aktyabr'**, **nayabr'**, **direktir**, **rektir** kabi talaffuz qilinadi va h.k.

Tovushlarning pozitsion o'zgarishlariga asosan, quyidagi hodisalar kiradi: **reduksiya**, **eliziya**, **apakopa**, **proteza**, **epenteza**, **epiteza** va boshqalar.

Reduksiya hodisasiga ko'ra, ayrim so'zlardagi **i**, **u** unilari kuchsizlanib, qisqa talaffuz qilinadi. Masalan, **bil**, **bir**, **til**, **tun**, **kun** kabi bir bo'g'inli so'zlarda **kishi**, **bilan**, **bilak**, **tirak**, **burun** kabi ko'p bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inlarida **i**, **u** unilari kuchsizlanib, qisqa aytiladi.

Eliziyaga ko'ra so'z tarkibidagi tovush tushib qoladi: **sing+lim=singlim**, **burun+i=burni**, **bora+olmadi=borolmadi**, **kelar+ekan=kelarkan** kabi.

So'z oxirida unli yoki undosh tovushning tushib qolishi apakona hodisasiga olib keladi. Masalan: **do'st – do's**, **Toshkent – Toshkan**, **farzand – farzan**, **gazeta – gazet** (yozilishi: **do'st**, **Toshkent**, **farzand**, **gazeta**).

Protezada so'z boshida bitta unli orttiriladi. Masalan: **stol – ustol**, **stul – ustul**, **shkaf – ishkop**.

Epenteza hodisasiga binoan so'z boshida, o'rtasida, oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida **i**, ba'zan **u** va **a** unlisi orttiriladi: **fikr – fikir, hukm – hukum, doklad – dakalat, traktor – tiraktir.**

Epitezaga ko'ra so'z oxirida kelgan ikki undoshdan so'ng a unlisi orttiriladi: **kiosk – kioska, otpusk – otpuska, tank – tanka.**

4. Fonetik yozuv (transkripsiya).

Adabiy–orfografik nutqning yozma shakli odatda alfavitdagi harflar vositasida shakllanadi (ifodalanadi). Alfavitdagi harflar og'zaki nutqimizdagi turli–tuman tovush o'zgarishlarini to'liq aks ettirmaydi. SHuning uchun ham og'zaki nutqda tovushlarning turlicha o'zgarishlarini, har xil variantda talaffuz etilishini yozuvda tasvirlab ko'rsatish uchun maxsus belgi–harflardan foydalaniladi. Bunday maxsus belgi–harflar yordamida nutqni aynan talaffuzdagidek tarzda yozib olish transkripsiya deyiladi. Transkripsiya– ispancha qayta yozish demakdir. Masalan, adabiy orfografik shaklda «demokratiya» tarzida yoziladigan so'z, transkripsiyada demokratika tarzida; doston so'zi doston tarzida; dono so'zi do: no tarzida; mo'l so'zi mol tarzida; o'qit so'zi oq't tarzida; zi:ray tarzida yozib ko'rsatiladi.

Demak, fonetik yozuv (transkripsiya)da alifbodagi harflar o'rni bilan aynan, o'rni bilan o'zgartirilgan, o'rni bilan qo'shimcha shartli belgilardan foydalangan holda talaffuz shakliga mos holda yoziladi.

Transkripsiyadagi ko'pchilik belgilar alifbodagi harflarning aynan o'zi, chunonchi, a – qarq'a, bug', buyruq kabilarda a, i, u unilari adabiy orfografik shakldagidek yoziladi. Ammo u unlisi transkripsiyada o – tarzida a unlisining a varianti, u unlisining u varianti; i unlisining ' variantlari qo'llanishi mumkin.

Undosh harflarning qo'llanishida ham ma'lum transkripsion variantlardan foydalaniladi. Masalan, v harfi lab – tish undoshini, f harfi lab – tish undoshini, f varianti esa lab – lab f ni ifodalash uchun ifodalaydi.

Ammo undosh harflarning asosiy ko'pchiligi o'z vazifasida ishlatiladi.

Tekshirish savollari:

1. Nutq tovushlarining kombinator o'zgarishlari qanday o'zgarishlar?
2. Bu o'zgarishlar qanday hodisalarni o'z ichiga oladi?
3. Assimilyatsiya nima?
4. Uning qanday turlarini bilasiz?
5. Dissimilyatsiya nima?
6. Metateza – chi?
7. Qanday o'zgarishlar pozitsion o'zgarishlar deb yuritiladi?
8. Ularga qanday o'zgarishlar kiradi?
9. Reduktsiya qanday hodisa?
10. Eliziya – chi?
11. Transkripsiya nima?

Tayanch tushunchalar:

1. Kombinator o'zgarishlar.
2. Pozitsion o'zgarishlar.
3. Assimilyatsiya,
4. Dissimilyatsiya
5. Metateza
6. Reduktsiya
7. Emeziya
8. Transkripsiya.

Ma'ruza mavzusi: Grafika. Orfografiya.

Dars rejasi:

1. O'zbek yozuvi tarixidan qisqacha ma'lumot.
2. Grafika va uni ifoda etuvchi grafik vositalar. Harf va tovushning o'zaro munosabati.
3. Orfografiya va uning asosiy tamoyillari:
 - 1) Fonetik tamoyil
 - 2) Morfologik tamoyil

- 3) SHakliy – an'anaviy tamoyil
- 4) Differentsiatsiya tamoyili.

Adabiyotlar: 1(94 – 97b),2(85 – 96b),

1. O'zbek yozuvi tarixidan qisqacha ma'lumot.

Kishilik jamiyatida dastlabki aloqa vositasi faqat og'zaki nutq ko'rinishida bo'lgan. YOzuv bo'lmagan. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida o'sib borayotgan iqtisodiy va madaniy talablar natijasida, fikrni uzoq masofaga etkazish yoki keyingi avlodga qoldirish ehtiyoji bilan yozuv yuzaga kelgan. Jamiyat taraqqiy etishi bilan yozuv ham mukammallashib borgan.

O'zbek yozuvi ham hozirgi kundagi shakliga qadar bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan. Ota – bobolarimiz jahonning boshqa xalqlari singari eng qadimgi piktografik (rasm yozuvi) va ideografik yozuv (tushuncha yozuvi), bo'g'inli yozuv (bo'g'in yozuvi), fonetik yozuv yoki fonografik yozuvlari (harf yozuvi)dan foydalanib kelganlar.

O'zbek tilining yozuv tarixida fonografik yozuv (harfiy yozuv) alohida o'rin tutgan. O'zbek xalqi O'rta Osiyoning boshqa xalqlari singari fonografik yozuv turlaridan bo'lgan oromiy yozuv, so'g'd yozuvi, Xorazm yozuvi, urxun va enesey yozuvi, uyg'ur yozuvi, arab yozuvi (VII – VIII asrlardan 1929 yilgacha), lotinlashtirilgan o'zbek yozuvi (1929 – 1940 yilgacha), rus grafikasi asosidagi kirilcha yozuv (1940 yildan 1993 yilgacha) foydalanib keldi. SHu sanab o'tilgan har bir fonografik yozuvning turi o'zbek xalqining tarixida ma'lum bir o'rin tutadi.

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin (1991 yil 31 avgust) 1993 yilning 2 sentyabrida lotin yozuviga qayta o'tildi. Bu yozuvga o'tishdan maqsad jahon xalqlarining 30 foizdan ziyodi lotin yozuvi asosidagi alifbodan foydalanadi, bu esa o'zbek xalqini jahon xalqlari tizimiga kirishini jadallashtiradi.

Umumiy ta'lim bosqichma – bosqich amalga oshirilayapti. 1996 – 97 o'quv yilida 1 sinflarda yangi alifboda o'qitish boshlandi. Bu ish 2005 yilning 1 sentyabrida tugallanadi.

2. Grafika va uni ifoda etuvchi vositalar.

Grafika (grekcha grafikos – «yozma» degan ma'noni anglatadi) tildagi tovushlarni, belgilarni ko'rsatuvchi shakliy vositalar tizimidir. Grafik vositalarga harf, shartli belgi va tinish belgilari kiradi.

Tovush uchun olingan shaklga harf deyiladi. Tovush ko'rsatmaydigan shakllar shartli belgi sanaladi, ya'ni ' ' belgilari.

SHuningdek, grafika bo'limida harf bilan tovushlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni bildiruvchi qoidalar ham o'rganiladi.

Muayyan tartibda joylashtirilgan harflar yig'indisiga alfavit deyiladi. Kirill yozuviga asoslangan alfavitda 35 ta shakl mavjud bo'lib, bu shakllardan 33 tasi harf, 2 tasi shartli (' ') belgidir. Har bir harfning bosh (katta) va kichik (Aa), bosma va yozma shakllari mavjud. Alfavitdagi har bir harf o'z nomiga ega. Kirill alifbosiga asoslangan harf va shartli belgilarning joylashtirilish tartibi va ularning nomi quyidagicha:

Aa(a), Bb(be), Vv(ve), Gg(ge), Dd(de), Ee(e), YOyo(yo), Jj(je), Zz(ze), Ii(i), Yy(yi), Kk(ka), Ll(el), Mm(em), Nn(en), Oo(o), Pp(pe), Rr(er), Ss(es), Tt(te), Uu(u), Ff(ef), Xx(xa), TSts(tse), SHsh(she), ' ', Ee(e), YUyu(yu), YAya(ya), O'o'(o'), Qq(qe), g'g'(g'e), Hh(he).

Alfavitdagi o',q,g',h harflari o'zbek tilining o'ziga xos spetsifik tovushlarini ifodalaydi. ' va ' belgilari tovush ifoda etmaydi, ba'zi unlilarning cho'ziq aytilishi (ma'no, e'lon kabi), bo'g'inlarni ajratib aytish (sur'at, an'ana kabi), ruscha – internatsional so'zlarda unlilarning yumshoq aytilishi (al'bom, sentyabr' kabi) uchun xizmat qiladi.

YOzuvda harflar bilan bir qatorda tinish belgilari ham qo'llaniladi. Tinish belgilari harf singari grafikaning tarkibiy qismi sanaladi; Hozirgi o'zbek tili grafikasida quyidagi belgilari mavjud: nuqta (.), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!), vergul (,), ikki nuqta (©), tire (–), qavs (), qo'shtirnoq («»), nuqta vergul(;), ko'p nuqta (□), urg'u belgisi ('), o'z bo'g'inidan birining boshqasiga nisbatan kuchliroq talaffuz qilishini ko'rsatish uchun unli tovush ustiga qo'yiladi. YOzuvda fikrni ifodalash uchun nafaqat harflarning, balki tinish belgilarining ham roli katta. Tinish belgilari yordamida fikr yozuvda aniq, ravon va tushunarli qilib beriladi. Nutqda fikrni to'liq ifodalash uchun ohang va pauzalar kerak bo'ladi. YOzuvda esa shu vazifalarni tinish belgilari bajaradi.

Grafika harf bilan tovush o'rtasidagi munosabatni ham o'rganuvchi bo'lim. Kirill grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosida 33 ta harf mavjud bo'lib, bu harflar yozuvda 31 ta tovushni ifodalaydi. SHundan 10 ta unli harf 6 ta undosh tovushni yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi.

Har bir harf bir tovushni ifoda etadi. Lekin quyidagi o'rinlarda harf bilan tovushning munosabati o'zaro mos kelmaydi:

a) e, yo, yu, ya harflari ba'zi so'zlarda bir tovushni ifoda etadi:

beda (e), men (e), sentyabr' (e), salyut (u), rejissyor (o) kabi.

Lekin, asosan, bu harflar yozuvda ikki tovushning birikmasini ifodalaydi: elkan (ye), yostiq (yo), yulduz (yu), yaproq (ya) kabi;

b) alfavitdagi n va g harflari alohida n va g tovushlarini yozuvda ifodalash bilan bir qatorda o'zbek tilining sayoz til orqa ng tovushini ifoda etish uchun xizmat qiladi: ko'ngil, singil, ong, zang, tonggi (shabada) kabi;

v) alfavitdagi j harfi ikki tovushni sirg'aluvchi j tovushini (jurnal, gijda, ajdar kabi) va qorishiq portlovchi j tovushini (jo'xori, majlis kabi) ifodalaydi.

3. Orfografiya va uning asosiy tamoyillari.

Orfografiya (gr. orthos – to'g'ri, graho – yozaman degan ma'noni anglatadi) adabiy tilning to'g'ri yozish qoidalarini o'rganuvchi bo'lim. Bu orfografik qoidalar quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: 1) ayrim harflarning imlosi; 2) o'zak – negiz va qo'shimchalar imlosi; 3) qo'shma so'zlar, so'z birikmalari imlosi; 4) bo'g'in ko'chirilishi; 5) bosh harflarning yozilishi.

Sanab ko'rsatilgan to'g'ri yozish imlo qoidalari orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy – an'anaviy, differentsiatsiya tamoyillari asosida belgilanadi.

Fonetik tamoyil.

Bu tamoyilga ko'ra so'z tarkibidagi tovushlar (o'zak, negiz va qo'shimchalar) og'zaki nutqda qanday talaffuz etilsa, yozuvda ham xuddi shunday yoziladi.

Masalan, quyidagi o'zlashma so'zlar fonetik tamoyilga ko'ra yoziladi:

a) kiosk, stolb, uchastok kabi so'zlarga a unlisi qo'shib talaffuz etiladi va shu holat yozuvda saqlanadi: kioska, stolba, uchastka kabi;

b) o'zlashma rama, para, minuta, sekunda, konfeta kabi so'zlarning oxiridagi a unlisi o'zbek tilida og'zaki nutqda talaffuz etilmaydi va yozuvda ham yozilmaydi: rom, par, sekund, konfet kabi;

v) o'zlashma shiyotka, podnos so'zlari esa cho'tka, patnis tarzida aytiladi va yoziladi.

Fonetik tamoyilga ko'ra yoziladigan imlo qoidalari nafaqat so'z o'zagida, balki so'zning o'zagiga qo'shimchalar qo'shilishi bilan talaffuzda yuz beradigan tovush o'zgarish hodisalarini ham o'z ichiga oladi.

Masalan, quyidagi yasama so'zlar fonetik tamoyilga binoan yoziladi:

a) fe'l negiziga – q qo'shimchasi qo'shilganda, o'zakdagi a, ya tovushlari talaffuzda o(yo) tarzida aytiladi va yoziladi:

bodraQ – q – bodroq, taraQ – q – taroq, bo'yaQ – q – bo'yoq kabi;

b) son, yosh, ot, o'yin so'zlariga – a so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilganda o'zakda tovush o'zgaradi yoki tushadi:

sonQ – a → sana, yoshQ – a → yasha,

o'yinQ – a → o'yna tarzida

v) sariq, ulug' so'zlariga – ay qo'shimchasi qo'shilganda, sarg'ay, ulg'ay kabi aytiladi va yoziladi.

Quyidagi grammatik shakllarni olgan so'zlar ham fonetik tamoyilga ko'ra yoziladi.

Quyidagi grammatik shakllarni olgan so'zlar ham fonetik tamoyilga ko'ra yoziladi:

a) jarangsiz k, q undoshi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, g, g' tarzida aytiladi va bu holat yozuvda ham saqlanadi: tilak – tilagi, o'rtoq – o'rtog'i kabi.

Bu qoidadan mustasno so'zlar ham mavjud: chok, chek, zavq, shavq, ishtirok, ittifoq kabi.

b) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi i, u unililari talaffuzda tushishi yozuvda ham aks etadi: o'rni, qorni, burni, o'g'li, bo'yni kabi;

v) u, bu, shu, o'sha olmoshlariga – da, – dan, – day, – ga, gacha, – cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: unda, bunga, shunday, o'shancha kabi.

Fonetik tamoyilga ko'ra yoziladigan yana bir qator imlo qoidalari mavjud. Demak, bu tamoyilga ko'ra yozuvda talaffuzdagi aniq tovushga mos harf qo'llaniladi.

Morfologik tamoyil.

Bu tamoyilga ko'ra so'z tarkibidagi tovushlari (asos va qo'shimchalar) qanday aytilishidan qat'iy nazar asliga mos holda yoziladi. O'zbek orfografiyasining asosiy imlo qoidalari shu tamoyilga tayanadi. Bu tamoyilga ko'ra yozilgan so'zlarni unli harflar imlosida ham, undosh harflar imlosida ham, asos va qo'shimchalar imlosida ham kuzatish mumkin.

Masalan: a) uzum, uzuk, tutun, turmush, urg'u, uyg'u, yutuq kabi so'zlarning oldingi bo'g'inida u (yu) kelsa, keyingi bo'g'inda u unlisi i tarzida aytilsa ham, u yoziladi; kitob, maktab so'zlarining oxiridagi b undoshi jarangsiz p aytilsa ham, asliga mos b yoziladi.

v) do'st, go'sht, to'rt, Toshkent, xursand kabi so'zlarda so'z oxirida t, d undoshlari talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi.

SHuningdek, qo'shimchalarning asosiy qismi morfologik tamoyil asosida yoziladi, ya'ni kelishik qo'shimchalari (maktab**ta**, isht**an** og'zaki nutqda lekin yozuvda maktabda, ishdan) ko'plik qo'shimchasi (daraxt**lar** – yozuvda, daraxt**la** – og'zaki nutqda), shaxs – son qo'shimchalari (aytib**di** – yozuvda, aytipt**i** og'zaki nutqda), zamon qo'shimchalari (ket**di** – yozuvda, ket**ti** og'zaki nutqda) va hokazo.

Demak, morfologik tamoyilga ko'ra so'z tarkibidagi tovushlar og'zaki nutqda qanday aytilishidan qat'iy nazar, imloda o'zining bir xil morfologik shaklini saqlagan holda yoziladi.

SHakliy – an'anaviy tamoyil.

Bu tamoyilga ko'ra, boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) o'zlashgan so'zlarning hozirgi talaffuzi o'quvga mos kelmasa ham, an'anaga ko'ra o'tmishdagi shakliga muvofiq (arab tilidan o'zlashgan so'zlar) shaklini o'zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi.

Bu tamoyilga binoan yozilgan bir qator imlo qoidalarini keltirishimiz mumkin:

a) manfaat, matbaa, mutolaa, taajjub, taassurot kabi arab tilidan o'zlashgan so'zlarda bitta cho'ziq a talaffuz qilinsa ham, an'anaga ko'ra arab imlosini saqlagan xolda yozuvda 2 ta a yoziladi.

b) mubolag'a, muzokara, munosabat, muhokama kabi arabcha so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi a og'zaki nutqda i tarzida aytiladi, lekin an'anaga ko'ra a yoziladi;

v) tadbir, tadbir so'zlarining birinchi bo'g'in oxiridagi d, t undoshlari aslida bir xil aytilsa xam, o'tmishdagi shakliga muvofiq ikki xil yoziladi;

g) rus tilidan o'zlashgan motor, otryad, limonad, kontsert, konspekt kabi so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kelgan o unlisi a tarzida aytilsa xam, o yoziladi;

d) direktor, traktor, ekspeditor kabi ruscha internatsional so'zlarning urg'usi bo'g'inida kelgan o unlisi i aytilsa xam rus tilidagi shakli ya'ni o saqlanadi;

e) zachyot, salyut, rejissyor, sentyabr' kabi ruscha – internatsional so'zlarda kelgan unlilar zachot, salut, rejissor, sentabr' tarzida aytilsa ham, rus tilidagi yozuv shakli saqlanadi.

Demak, bu tamoyilga ko'ra so'zlar talaffuzidagi hozirgi holatiga qarab emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan qoidaga ko'ra o'z shaklini saqlagan holda yoziladi.

4) Differentsial tamoyili

bu tamoyilga ko'ra shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlarni yozuvda farqlash uchun turli shartli belgilardan – urg'u belgisi, ayirish belgisi, yumshatish belgisi, boshqa – boshqa tovushni ifodalovchi harflar vositasida farqlanadi:

1) shakli bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda urg'u vositasida farqlanadi: yangi ko'ylak (sifat) – yangi keldi (ravish), qaynatma sho'rva (sifat) – sho'rvani qaynatma (fe'l).

2) shakli bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda ' belgisi vositasida farqlanadi: da'vo – davo, sur'at – surat kabi;

3) talaffuzi bir xil bo'lgan yozuvda boshqa – boshqa tovushni ifodalovchi harflar vositasida farqlanadi: shoh (podsho) – shoh (daraxtning shoxi), mard (jasur) – mart (oyning nomi) kabi;

4) undosh tovushlarning yumshoq – qattiqligini ifodalash uchun qo'llanadigan ' belgisini qo'llash va qo'llamaslik orqali ham shakli bir xil bo'lgan so'zlarning ma'nosi yozuvda farqlanadi: kontrol' – ot, kontrol' ish (sifat).

Tekshirish savollari

1. Grafika bo'limida nima o'rganiladi?

2. Harf nima? Belgi – chi?
3. Alfavit nima? Alfavitda joylashgan harf va belgilarning tartibini yoddan ayting.
4. Kirill yozuviga asoslangan alifboda harf va tovushning o'zaro munosabati qanday?
5. O'zbek tili grafikasiga kiritilgan tinish belgilarini sanang.
6. Orfografida nima o'rganiladi?
7. Orfografik qoidalarini qanday bo'limlarni o'z ichiga olgan?
8. Orfografiyaning asosiy tamoyillarini sanang.
9. Fonetik tamoyilga ko'ra so'zlar va unga qo'shiladigan qo'shimchalar qanday yoziladi?
10. Morfologik tamoyilga ko'ra so'zlar va unga qo'shiladigan qo'shimchalar qanday yoziladi?
11. SHakliy – an'anaviy tamoyil nima?
12. Differentsiatsiya tamoyili qanday tamoyil?

Tayanch tushunchalar:

1. Grafika – tildagi tovushlarni, belgilarni ko'rsatuvchi shakliy vositalar tizimi.
2. Harf – tovushning yozuvdagi shakli
3. Belgi – tovush ko'rsatmaydigan shakl.
4. Orfografiya – adabiy tilning to'g'ri yozish qonun – qoidalarini o'rganuvchi bo'lim.
5. Fonetik tamoyil – talaffuzni yozuvda aks ettiradigan tamoyil.
6. Morfologik tamoyil – talaffuzni emas, balki so'z va qo'shimchalarni asliga mos holda yozadigan tamoyil.
7. SHakliy – an'anaviy tamoyil – o'zlashgan so'zlarning shakli yozuvda saqlanadigan tamoyil.
8. Differentsiatsiya tamoyili – shakli va talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlarning yozuvda turli shartli belgilar vositasida farqlanadigan tamoyil.

Ma'ruza mavzusi: Orfoepiya .

Dars rejasi:

1. Orfoepiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Unli tovushlar orfoepiyasi
3. Ayrim undosh tovushlar orfoepiyasi
4. Ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi

Adabiyotlar: 1(90 – 93b), 2(98 – 102b),

Orfoepiya haqida umumiy ma'lumot.

Orfoepiya (grekcha «to'g'ri» va «nutq» elementlaridan tuzilgan) adabiy talaffuz qoidalarini to'plamidir.

Adabiy til qonuniyati asosida to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz qilish ham shunchalik zarurdir. Talaffuzni belgilashda esa, tovushlarning to'g'ri aytilishi ahamiyatlidir. Tovushlar buzib talaffuz qilinsa, so'zning ma'nosi buziladi, ta'siri yo'qoladi. Adabiy talaffuz qoidalarini belgilashda tovushlari, urg'u, intonatsiya kabi vositalarga asoslaniladi.

O'zbek tilida so'zlashuvchilar o'zbek adabiy tilida, shuningdek, o'zbek tilining mahalliy sharoitiga xos sheva va dialektda ham so'zlashadilar. SHunga ko'ra o'zbek adabiy tili talaffuzi dialekt va sheva talaffuzidan farq qiladi. Masalan: adabiy tildagi keldik so'zi shevalarda keldu, kelduvuza, kelduvuz, keldimiz, galdik kabi: adabiy tildagi u erga, bu erga so'zlari shevalarda o'tga, bo'tga, aqqa, baqqa kabi talaffuz qilinadi. Bu so'zlarning shevalardagi bunday talaffuz variantlari adabiy til an'anasiga mos kelmaydi, ya'ni bunday talaffuz bir yoki bir tipli shevalarga xos bo'lgani uchun umumxalq tilining talaffuzini o'zida aks ettirmaydi, og'zaki nutqda har xillikni ko'paytiradi.

Og'zaki nutqning to'g'ri talaffuz qilish normasi sifatida ko'pchilik shevalarga xos bo'lgan, umumxalq tilining talaffuzini o'zida aks ettiradigan holatlar olinadi. Masalan: maktab, odob, kitob kabi so'zlarning oxirida b undoshining og'zaki nutqda jarangsizlashib p tarzida talaffuz etilishi; do'st, go'sht, g'isht, xursand, baland kabi so'zlarning oxiridagi t, d tovushlarining og'zaki nutqda tushib qolishi ko'pchilikning, umumxalq tilining talaffuzini o'zida aks ettiradi. Albatta bunday holatlarni to'g'ri talaffuz orfoepiya normasiga mos keladi

deyish mumkin. O'zbek tili orfoepiyasining to'g'ri talaffuz normalarini belgilashda fonetikaning, ayrim tovushlar talaffuzi qonuniyatlarining roli kattadir.

Demak, orfoepiya adabiy til uchun yagona talaffuz me'yori bo'lishini talab qiladi. Orfoepiyaning adabiy talaffuz qoidalari to'plamiga unli tovushlarning talaffuzi, ayrim undosh tovushlarning talaffuzi, ayrim grammatik shakllar talaffuzi kiradi. Urg'u va intonatsiya ham to'g'ri talaffuz qilishda muhim ahamiyatga ega.

1. Unli tovushlar orfoepiyasi.

I unlisi. I unlisining quyidagi talaffuz holatlari mavjud: a) i tovushi tilak, bir, tish, dil kabi so'zlarda qisqa; b) ilmiy, adabiy, lirika, idealist, radiy kabi so'zlarning urg'u bo'g'inida cho'ziq; v) qish, qir, g'isht, xirmon, g'ilof kabi so'zlarda ruscha o' tovushiga moyil qattiq; g) arab – fors va rus tilidan o'zlashgan bir bo'g'inli so'zlarning qo'sh undosh oralig'ida qisqa i tovushi qo'shib talaffuz etiladi: aql, bahs, litr, metr, vazn, gips, mehr kabi.

U unlisi. Bu unli quyidagi talaffuz xususiyatlariga ega: a) ufq, umr, ukrop, ustoz kabi so'zning boshida; mas'ul, mash'um kabi ' belgisidan keyin kelsa, u unlisi aniq aytiladi; b) kul, kun, xum, xulosa, xumor, g'urbat kabi so'zlarda qisqa; v) suv, mazmun, mafkura, maftun, ma'mur, tikuv, to'quv, quvvat kabi hamda tundra, manufaktura kabi ruscha – internatsional so'zlarning urg'uli bo'g'inida cho'ziq aytiladi; g) uzum, uzuk, tutun, butun, turmush, chuqur kabi so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi hamda sovun, qovun, dovul, omuxta kabi so'zlardagi u unlisi qisqa i tarzida talaffuz qilinadi. Ayrim holatlarda bu unli parallel tarzda ham u, ham i tarzida aytiladi.

O' unlisi. O' unlisi quyidagicha talaffuz qilinadi: a) so'lim, po'choq, to'plam, no'noq kabi so'zlarda qisqa; b) mo'l, zo'r kabi bir bo'g'inli so'zlarda, ro'baro', shuxro'y, gulro' kabi so'zlarning oxirgi bo'g'inida, mo'tabar, mo'tadil kabi so'zlar ' belgisidan oldin cho'ziq aytiladi;

E unlisi. Bu unli quyidagicha talaffuz xususiyatlariga ega: a) erta, ekin, meva, tekin kabi so'zlarda keng aytiladi; b) ketmon, mergan, tepki, sezgir kabi ikki undosh o'rtasida bir oz qisqa; v) etti, elkan, etmish kabi so'zlarning boshidagi e y Q e tarzida; g) adres, attestat, delegatsiya, fazelin, ruscha – internatsional so'zlarda i ga moyil talaffuz etiladi: adris, attistat, deligatsiya, vazilin kabi; d) e'lon, e'tibor, e'tiqod, e'tiroz kabi so'zlarda ' belgisidan oldin cho'ziq talaffuz qilinadi.

A unlisi. A unlisi quyidagi talaffuz holatlariga ega:

A) aql, asr, askar, atlas kabi, qand, qarz, xat, g'am kabi hamda sur'at, halg'a, bil'aks kabi ' belgisidan keyin kelganda, aniq zarb bilan aytiladi; b) a'lo, ma'no, ta'na, ta'zim kabi ayirish belgisidan oldin kelgan a cho'ziq; v) manfaat, taassurot, taajjub, taassuf kabi, mudofaa, matbaa kabi yonma – yon kelgan a unlisidan biri talaffuzda tushib qoladi; g) mubolag'a, muzokara, muhokama, munosabat kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inidagi a unlisi i ga moyil aytiladi; d) shavkat, shavla, gavda, davlat, mavsum kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi a unlisi o ga moyil talaffuz qilinadi.

O unlisi. O unlisi quyidagicha talaffuz xususiyatlariga ega: a) ona, ov, osh, anor, bola, bodom, inson, tog', qor kabi so'zlarda aniq zarb bilan aytiladi; b) avzo, zebo, sabo, fido, xato kabi so'zlarning oxirida; zotan, notiq, volida, voriya kabi so'zlarning urg'uli bo'g'inida kelgan o unlisi cho'ziq talaffuz qilinadi; v) opera, nota, rol', tok kabi ruscha – internatsional so'zlarda o' tarzida; botanika, gastronom, kolxoz, kompot kabi hamda televizor, ekvator, novator kabi ruscha – internatsional so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kelgan o unlisi a, i tovushlariga moyil talaffuz qilinadi.

2. Ayrim undosh tovushlar orfoepiyasi.

Undosh tovushlar talaffuzida hech qanday o'zgarishga uchramasdan so'zning turli o'rinlarida kelib aynan aytiladi va yoziladi. Lekin shu bilan birga ayrim undosh tovushlar talaffuzda o'zgarishga uchraydi, bu ularning so'zda kelgan o'rniga, qanday tovushlar bilan yonma – yon kelishiga bog'liq bo'ladi.

Undoshlarning quyidagi talaffuz xolatlari orfoepiya normalariga kiritilgan:

- 1) So'z oxirida kelgan b undoshi jarangsizlashib, p tovushiga moyil aytiladi: maktab – maktap, odob – odop, sarob – sarop kabi;
- 2) So'z oxirida kelgan d undoshi jarangsizlashib t tarzida aytiladi: iqtisod – iqtisot, daromad – daromat kabi;
- 3) So'z o'rtasida va oxirida kelgan qorishiq portlovchi j undoshi ch tarzida aytiladi: lahja – lahcha, avj – avch, mavj – mavch, iloj – iloch kabi;

- 4) Ruscha – internatsional so'zlar tarkibidagi v undoshi f undoshiga moyil talaffuz qilinadi: avtomat, avtoruchka, avtobus, ustav – ustaf, passiv – passif kabi;
- 5) Ayrim so'zlarning o'rtasida, oxirida qo'llangan z undoshi s undoshi tarzida aytiladi: izhor – ishor, iztirob – istirob, faraz – faras kabi; shuningdek ruscha – internatsional so'zlarda ham shunda holat kuzatiladi: gipnoz – gipnos, karniz – karnis, narkoz – narkos kabi;
- 6) Ayrim undoshlardan oldin qo'llangan q undoshi x tarzida aytiladi: vaqt – vaxt, naqd – naxt, to'qson – to'xson, maqsad – maxsat;
- 7) So'z oxirida kelgan k, q jarangsiz undoshlari ba'zan jarangli g, g' tovushiga moyil aytiladi: – bilak – bilag, yurak – yurag; o'roq – o'rog', sariq – sarig' kabi; shuningdek ruscha – internatsional so'zlarda ham k undoshi jarangli g tarzida aytiladi: znachok – znachog, galstuk – gastug kabi.
- 8) Ayrim so'zlarda so'z oxirida kelgan t, d undoshlari talaffuzda tushib qoladi: go'sht – go'sh, g'isht – g'ish, xursand – xursan, baland – balan kabi;
- 9) Birinchi va ikkinchi bo'g'in oxirida kelgan n undoshi o'zidan keyin kelgan b undoshining ta'sirida m tarzida aytiladi: tanbur – tambur, sunbul – sumbul, yakshanba – yakshamba kabi;
- 10) O'zlashma so'zlar so'z o'rtasida, oxirida yonma – yon kelgan ikki bir xil undoshdan biri talaffuzda tushib qoladi: mujassam – mujasam, munavvar – munavar, taassurot – tasurot; grammatika – gramatika, metall – metal kabi.

4. Ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi.

O'zbek tilida unli tovushlar, ayrim undosh tovushlarning orfoepik normalari bilan birga, so'zga qo'shiladigan grammatik shakllarning ham quyidagi orfoepik talaffuz normalari mavjud. Ayrim grammatik shakllarning talaffuz holatlari yozuvga ta'sir qilmagan holda, ayrimlar grammatik shakllarning talaffuziga binoan yozuvda berilishi orfoepiyaning imlo qoidalariga kiritilgan.

Grammatik shakllarning talaffuzi yozuvda aks etmaydigan quyidagi ko'rinishlar ham mavjud:

- 1) Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi – ga: sinfga – sinfka, kuchga – kuchka, ishga – ishka, darsga – darska kabi so'zlarda – ka tarzida aytiladi;
- 2) O'rin – payt va chiqish kelishigi qo'shimchalari – da, – dan: universitetda – universitetta, gilosdan – gilostan, kurashda – kurashta, yog'ochdan – yog'ochtan kabi – ta, – tan tarzida aytiladi. Bahorda, kuzdan, bozordan kabi so'zlarda – da, – dan tarzida aytiladi;
- 3) Uch, to'rt sonlariga – ov, – ala qo'shimchalari qo'shilganda, bir ch, t tovushlari orttirilib talaffuz qilinadi: uchala – uchchala, to'rt – to'rtala kabi;
- 4) – cha, – chan qo'shimchalari oxiri t, d undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda: adabiyotchi – adabiyochchi, harakatchan – harakachchan, tanqidchi – tanqichchi kabi talaffuz qilinadi;
- 5) – boz, – bon qo'shimchalari dorboz, kaptarboz, masxaraboz, darvozabon kabi so'zlar tarkibida – voz, – von shaklida aytiladi: dorvoz, kaptarvoz, masxaravoz, darvozabon kabi;
- 6) o'tgan zamoni hamda III shaxsni ko'rsatuvchi – di qo'shimchasi, oxiri b undoshi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda yozibdi – yozipti, boribdi – boripti, chopdi – chopti kabi jarangsiz undosh t undoshi bilan tugagan so'zlarda ham aytdi – aytti, ko'rsatdi – ko'rsatti, bekitdi – bekitti kabi aytiladi;
- 7) o'tgan zamon sifatdosh qo'shimchasi – gan jarangsiz t, sh, ch undoshi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda, ketgan – ketkan, shoshgan – shoshkan, kechgan – kechkan kabi aytiladi;
- 8) – lik ot yasmovchi qo'shimchasi og'zaki nutqda tinchlik – tinchsli, yaxshilik – yaxshili, shodlik – shodli kabi talaffuz qilinadi.

Tekshirish savollari:

1. Orfoepiya bo'limida nima o'rganiladi?
2. Orfoepiya nimaga tayanadi?
3. Orfoepik norma sifatida qanday holat olinadi?
4. i, u unlilarining talaffuz normalarini tushuntiring.
5. u, e (e) unlilarining talaffuz normalarini tushuntiring.

6. a, r unlilarining talaffuz normalarini tushuntiring.
7. Ayrim undosh tovushlarning talaffuzi normalarini tushuntiring.
8. Ayriya grammatik shakllarning talaffuz normalalarini tushuntiring.
9. Qaysi grammatik shakllarning talaffuzi yozuvda ham o'z aksini topgan.

Tayanch tushunchalari:

1. Orfoepiya – adabiy talaffuz qoidalarini o'rganuvchi bo'lim.
2. Orfoepik norma – tovushlarni, qo'shimchalarni to'g'ri talaffuz qilish holati.

Ma'ruza mavzusi: *Leksikologiya. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'z ma'nosining taraqqiyoti.*

Dars rejasi:

1. Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot.
2. So'z va uning mohiyati.
3. So'zning leksik va grammatik ma'nolari
4. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar
5. So'z ma'nosining taraqqiyot yo'llari: so'zlarda ma'no ko'chishi, ma'noning kengayishi, ma'noning torayishi.

Adabiyotlar: 1(3–24b), 2(103–110b),

1. Leksikologiya haqida umumiy ma'lumot. Leksikologiya o'zbek tili kursining bo'limlaridan biri bo'lib, bu bo'limda tilning lug'at tarkibi (leksikasi) o'rganiladi.

Tilning lug'at tarkibi (leksikasi) deyilganda tilda mavjud bo'lgan so'z iboralar yig'indisi tushuniladi.

Leksikologiyada tilning so'z boyligi, so'zlarning paydo bo'lishi (etimologiyasi), ma'nosi va ma'no taraqqiyoti (asosiy va ko'chma ma'nolari), so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, eskirgan va yangi so'zlar kabi masalalar o'rganiladi. SHuning uchun ham lug'at tarkibidagi so'zlar shu tilda gaplashuvchi xalqning tarixi, madaniyati, turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq.

Leksikologiya bo'limi tilshunoslik fanining barcha bo'limlari bilan chambarchas bog'liq. Fonetikada so'zning tovush tomoni, morfologiyada so'z tuzilishi, sintaksisda so'zlarni birikib so'z birikmasi, gap hosil qilishi o'rganilsa, leksikologiyada so'zning ma'no xususiyatlari (keng ma'noda) o'rganiladi. Masalan: Ko'klam keldi gapi sintaktik jihatdan: gap, sodda gap, yig'iq sodda gap; morfologik tuzilishiga ko'ra ko'klam so'zi uch qismdan iborat: ko'kQlaQm, ya'ni ko'k rang bildiruvchi sifat, ko'kla so'zida –l sifatdan fe'l yasayapti; ko'klam so'zida esa –m fe'ldan fasl nomi ot yasayapti. O'z navbatida, bu so'z fonetik jihatdan ikki unli va to'rt undosh tovushdan iborat. Bu gapdagi so'zlar leksik jihatdan ko'klam – fasl nomini, keldi harakatni anglatayapti. Demak, ko'rinib turibdiki tilning barcha sohalari bir–biri bilan uzviy bog'liq.

2. So'z va uning mohiyati.

Leksikologiya leksikani o'rganadi, leksika esa so'zlardan iborat. Har bir so'z ma'lum bir ma'no anglatuvchi nutq tovushi yoki tovushlar yig'indisidan iborat. Masalan: arpa so'zi a, r, p, a kabi nutq tovushlaridan tarkib topgan. Bir tovushdan iborat so'zlar kam miqdorni tashkil etadi (–a, –ya, –yu kabi yuklamalar; a, o, e kabi his–hayajon bildiruvchi undovlar).

Har qanday tovush yoki tovushlar yig'indisi so'zni hosil qilmaydi, buning uchun tovush va ma'no birligi bo'lishi kerak. So'z tilning alohida va mustaqil birligi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. So'zlar nomlash xususiyatiga ega, ya'ni predmet belgi, miqdor, harakat, holat kabi tushunchalarni nomlab, ularga atama bo'ladi. masalan: kitob, davtar, qalam, stol so'zlari predmetlarning nomi; qizil, nordon, katta, chiroyli belgi tushunchasining; yurmoq, o'tirmoq, yozmoq, uzlamoq harakat va holat kabi tushunchalarning nomi va hokazo.
2. So'z xotiramizda tayyor holda saqlanadi. Nutq mobaynida fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zni eslash orqali qo'llaymiz.
3. So'z gap ichida va gapdan tashqari holda qo'llanadi. So'z gap ichida fikr ifoda etuvchi vosita sifatida, gapdan tashqarida esa leksik ma'no bildiruvchi nom (atama) tarzida

tushuniladi. Masalan: «Yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z bosh qozig'i (maqol) – gap, uning tarkibidagi yaxshi, so'z, jon, oziq, yomon, bosh, qoziq kabi so'zlar leksik ma'no bildiruvchi so'zlarning nomi.

4. Leksik ma'no ifodalovchi so'zlar turli grammatik shakllarni qabul qila oladi. Masalan: kitob so'zi son egalik, kelishik shakllarini qabul qiladi: kitoblar, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan, kitobim, kitobing, kitobi kabi.
5. Har bir mustaqil so'z o'z urg'usiga ega: maktab, oila, beshta, katta, lekin, yozmoq kabi.
6. So'zlar ma'no va grammatik belgilar o'xshashligiga ko'ra ayrim – ayrim guruhlarga – turkumlarga bo'linadi.

3. So'zning leksik va grammatik ma'nolari.

So'zning ikki xil ma'nosi mavjud, ya'ni leksik ma'no va grammatik ma'no. So'zning leksik ma'nosi tushunchaga asoslanadi. Tushuncha so'z ma'nosining asosini tashkil etadi; so'z esa tushunchaning nomidir. Masalan: er, osmon, daraxt, chiroyli, olmoq so'zlarining ma'nosi boshqa – boshqa tushunchalarni ifodalaydi: er – predmet, daraxt boshqa bir predmet, chiroyli – belgi; olmoq harakat kabi tushunchalarni ifodalaydi. Demak, shu so'zlarning ma'nosi boshqa – boshqa tushunchalarni ifodalaydi, keltirilgan so'zlar esa shu tushunchalarning nomidir. Tushuncha kishining borliqni bilishi, uni ongida aks ettirish orqali yuzaga keladi. So'zning leksik ma'nosi uning predmet, belgi, miqdor, harakat, holat kabi tushunchalarni ifoda etishidir.

So'zning grammatik ma'nosi leksik ma'no ustiga qo'shiladigan qo'shimcha ma'nolar bo'lib, shu so'zning ma'lum shakl o'zgarishi bilan bog'liq. Tildagi barcha leksik ma'nosi predmet bildiruvchi so'zlar bir turkumga oid (ya'ni ot so'z turkumiga). Masalan: tog', osmon, tol, daryo, sevgi, iroda so'zlarining har biri alohida predmetlarni ifodalaydi, bu ularning leksik ma'nosi. Lekin shu so'zlarning hammasi predmetlik tushunchasini ifodalovchi bir turkumni, ot turkumini tashkil etadi. Bu esa shu so'zlarning grammatik ma'nosidir. SHuningdek, predmet ma'nosini bildiruvchi bu so'zlar son, egalik, kelishik kabi shakllarni ifoda etuvchi qo'shimchalarni ham oladi. Masalan: daftarlar, osmonim, osmoning, osmoni, qalamning, qalamni, qalamga, qalamda, qalamdan kabi. Demak, predmet ma'nosini bildiruvchi so'zlarning bir turkumga – ot so'z turkumiga oidligi hamda ularning son, egalik, kelishik kabi ma'nolarni ifoda etishi grammatik ma'no sanaladi.

Grammatik ma'no so'zlarning birinchidan qaysi so'z turkumiga oidligini bildirsa, ikkinchidan shu so'zning leksik ma'nosi ustiga qo'shiladigan qo'shimcha ma'nolarni ham bildiradi.

3. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.

1) Bir ma'noli so'zlar faqat bitta leksik ma'no ifoda etadi. Ko'proq terminlar bir ma'no ifoda etadi: fonema, metateza, to'ldiruvchi, kesim (tilshunoslikda); kompozitsiya, kul'minatsiya (adabiyotshunoslikda); teorema, sinus, uchburchak, kvadrat (matematikada) kabi. Umumiste'moldagi so'zlar ham bir ma'no ifoda eta oladi: non, suv, men, sen, u, bir, ikki, bormoq, kelmoq va hokazo.

Bir ma'noli so'zlar tilshunoslikda monosemantizmlar (gr.monos "bir", sementikos – belgi, ma'no) deb yuritiladi.

2) Ko'p ma'noli so'zlar ikki yoki undan ortiq leksik ma'no ifoda etadi. Masalan: burun so'zining 2 ta leksik ma'nosi bor: odamning burni, choynakning burni kabi.

Ko'p ma'noli so'zlar tilshunoslikda polisemantizmlar (gr.poli – «ko'p», semenikos – «belgi, ma'no») deb yuritiladi.

So'zning ko'p ma'noli bo'lishi til taraqqiyotining natijasidir. Tilda xar qanday so'z, avvalo biror narsa yoki hodisani atash tufayli paydo bo'ladi, ya'ni bir ma'nonigina ifodalaydi. Keyinchalik esa shu so'z ma'no taraqqiyoti natijasida boshqa narsa, hodisalarni ham ifodalash uchun qo'llana boshlaydi va shu tufayli ko'p ma'noli so'zga aylanadi. Masalan: tish so'zi dastlab odamning og'zida joylashgan nutq organining nomi sifatida bir ma'noli so'z (monosemantizm) bo'lgan, keyinchalik esa shu so'zning ma'nosi taraqqiy etib, arraning tishi leksik ma'nosida ham qo'llanib, ko'p ma'noli so'zga aylangan.

Ko'p ma'noli so'zlarda ikki ma'no turi bosh ma'no va yasama ma'no mavjud:

1) Bosh ma'no boshqa leksik ma'nolarning o'sib chiqishiga asos bo'lgan ma'nodir. Masalan: ko'z so'zining bosh ma'nosi uning odam a'zolaridan birini anglatishdir. So'zning

bosh ma'nosi nutqiy sharoit: kontekst, nutqiy sharoit talabiga qarab ko'chma ma'no, ma'joziy ma'no deb ham yuritiladi.

5. So'z ma'nosining taraqqiyoti yo'llari.

Har bir til faqat yangi so'zlar hisobiga emas, shuningdek, mavjud so'zlar ma'nolarining o'sishi hisobiga ham boyib boradi. Bir predmet, belgi, harakat – holat nomining boshqa bir predmet, belgi, harakat – holatga nom bo'lib ko'chishi yoki leksik ma'no hajmining o'zgarishi so'z ma'nosining taraqqiyotiga olib keladi.

So'zlarning ma'no taraqqiyoti 1) ma'no ko'chishi; 2) ma'noning kengayishi; 3) ma'no torayishi tarzida ro'y beradi.

So'zlarda ma'no ko'chishi metafora, metonimiya, sinekdoxa, funktsiyadoshlik kabi hodisalarni o'z ichiga oladi.

1) Metafora (yunoncha «metaphora» – ko'chirma) nisbiy o'xshashlikka ega bo'lgan predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakat nomini ham atash hodisasidir. Masalan: a) Qo'llarini biqiniga tirab chuqur uf tortdi (o'z ma'nosida); b) Maxsum cho'qqining shunday biqinidan qaynab chiqayotgan buloqqa yuvindi (ko'chma ma'noda). Og'ir toshni suv eltmas (o'z ma'nosida). U har qanday og'ir yumushlarni qilib o'rgangan (ko'chma ma'noda).

2) Metonimiya (yunoncha «metonymia» – qayta nomlash) predmet, belgi, harakatning nomi o'zaro aloqadorlikka ko'ra boshqa bir predmet, belgi, harakat nomiga ko'chish hodisasidir. Masalan: Zirillama, Toshloq, YAKkatut, Zarkent faqat shu to'g'rida, Azizxon, Lutfiniso, Ummatali, Akbarali degan gap bilan ovora edi. (S.Ahmad).

3) Sinekdoxa (yunoncha «sinekdoxe» – birga anglamoq) qismning nomi bilan butunni yoki butunning nomi bilan qismni atash hodisasidir. Masalan: Rais hammani o'zingizga o'xshatavermang! Besh qo'l barobar emas! (M.Rasulov).

4) Ma'noning funktsiyadoshlik, vazifadoshlik jihatdan ko'chishi ma'lum bir predmetning vazifasini ikkinchi bir predmet bajarilishi natijasida avvalgisining nomi keyingisini ifodalash uchun qo'llanishidir. Masalan: o'q so'zi kamon (yoy) bilan otladigan qurolni ifodalagan. Miltiq, zambarak ixtiro etilgach, ulardan otladigan qurol ham o'q nomini oldi. Bu vazifasi jihatdan o'zaro o'xshashlik tufayli yuz berdi.

SHuni qayd etish kerakki, so'z ma'nosining ko'chishidagi keyingi ikki usul – sinekdoxa va ma'noning funktsiyadoshlik jihatidan ko'chishi u qadar tipik emas. Birinchi ikki usul ancha keng tarqalgandir.

Ma'noning kengayishi. So'z jamiyat bilan, shu tilda gaplashuvchi xalqning turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq. So'zlarda ma'no kengayishi va torayishi hodisasining ro'y berishida ham ana shu bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Masalan, vatan so'zi faqat o'y – ro'zg'or va tug'ilib o'sgan qishlog'imizni emas, endilikda mamlakatni anglatadi. Demak, jamiyat taraqqiyoti so'z ma'nolarining rivoji va kengayishi uchun imkon beradi. Bunda bir ma'no asosida yangi (yasama) ma'no hosil bo'lmaydi, faqat mavjud leksik ma'noning hajmi kengayadi: notiq (kasb ma'nosida) – notiq (nutq so'zlagan kishi, ma'ruzachi ma'nosida); oylik (bir oy – 30 kun ma'nosida) kabi. Amper. Mauzer, Rizemat kabi atoqli otlarning turdosh ot (amper – tok o'lchovi birligi, Mauzer – pistolet turi, rizemat – uzum navi)ga o'tishi ham ma'no kengayishi hisoblanadi.

Ma'noning torayishi keng doiradagi voqelikni atovchi so'z tor doiradagi voqelikni atash uchun xizmat qiladi. Masalan, turdosh otning atoqli otga aylanishi (po'lat – Po'lat, o'lmas – O'lmas) kabi. Bunda hamyangi ma'no yuzaga kelmaydi, balki so'zning ilgari anglatgan ma'nolari hajmi nisbatan torayadi: o'rtoq, dehqon kabi so'zlar dastlab keng ma'noni, endilikda tor ma'noni ifodalaydigan bo'lib qolgan. SHunga o'xshash belgi ifodalaydigan so'zlar ham otlashganda tor ma'no ifodalaydi. Masalan: mard, nomard, yaxshi, tanish begona kabilar.

Tekshirish savollari:

1. Leksikologiya bo'limida nima o'rganiladi?
2. Leksika nima?
3. So'z va uning muhim belgilarini sanang.
4. So'zning leksik va grammatik ma'nolarini tushuntiring.
5. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarni ta'riflang.
6. So'z o'z va ko'chma ma'nolari nima?

7. So'z ma'nosining ko'chishining qanday usullarini bilasiz?
8. Metafora nima? Metonimiya – chi?
9. Sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chishini tushuntiring.
10. Funktsiyadoshlik jihatdan ma'no ko'chishini tushuntiring.

Tayanch tushunchalari:

1. Leksikologiya – grekcha leksikos – lug'atga (so'zga) oid va logos «ta'limot» fikr elementlaridan tuzilgan.
2. Monosemantizm – grekcha «bir» va «ma'no» elementlaridan tuzilgan.
3. Molisemantizm – grekcha «ko'p» va «belgi», «ma'no» elementlaridan tuzilgan.
4. Metafora – grekcha «ko'chirma» demakdir.
5. Metonimiya – grekcha «qayta nomlash», «nomini almashtirish».
6. Sinekdoxa – grekcha «nazarda tutish».

Ma'ruza mavzusi: So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Dars rejasi:

1. Omonim, uning turlari, ko'p ma'noli so'zlardan farqi, yuzaga kelishi, qo'llanilishi.
2. Sinonim qator, dominant, turlari, yuzaga kelishi, stilistik qo'llanilishi.
3. Antonim, antonimik juft, turlari va stilistik qo'llanilishi.

Adabiyotlar:

1. Omonim, uning turlari, ko'p ma'noli so'zlardan farqi, yuzaga kelishi.

Tildagi mavjud so'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra 3 turga bo'linadi: omonim, sinonim va antonim.

SHakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlarga omonim deyiladi. Omonim so'zi grekcha «bir xil» degan ma'noni ifodalaydi. Masalan: chang – to'zon, gard, g'ubor; tuproqning juda mayda kukuni. CHang ko'tarildi. CHang – to'rt burchak yassi quti shaklidagi, simlar torlar tortilgan qo'sh cho'p bilan chalinadigan muzika asbobi. CHoyxonada dutor, chang□ shaxmat devor soati paydo bo'ldi. (A.Qahhor)

Omonimlar 2 turga ajratiladi: lug'aviy omonimlar va grammatik omonimlar.

Lug'aviy omonimlar: 1) so'zlar doirasida; 2) iboralar doirasida bo'ladi.

1) omonimlik hodisasi so'z bilan so'z doirasida bo'lsa, leksik omonim deyiladi. Masalan: kul (ot) – biror narsaning yonishi natijasida hosil bo'ladigan qoramtir kukun. U oshxona oldida turgan kul chelakni olishga buyurdi. (P.Tursun). kul (fe'l) – zavq shovqini, xursandchilikni bildiruvchi tovushlar chiqarmoq: Nega Aziz bu qadar shod: YUzi kuladi, ko'zlari yonadi? (H.g'ulom).

2) Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida bo'lsa, frazeologik omonim deyiladi. Masalan: bosh ko'tarmoq – pastdan yuqoriga boshini harakatga keltirmoq. Bosh ko'tarmoq – qarshi qo'zg'olon ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq – tuzalmoq, sog'aya boshlamoq.

Demak, lug'aviy omonimlar 2 xil: leksik va frazeologik omonim kabi ko'rinishlari mavjud.

Grammatik omonimlar qo'shimchalar doirasidagi shakliy tenglikdir. SHakli bir xil, ma'nosi har xil qo'shimchalarga grammatik omonimlar deyiladi. Masalan: –im qo'shimchasi, bilim – ot yasovchi qo'shimcha, fe'ldan ot yasaydi. Kitobim – 1 shaxs birlik qo'shimchasi.

Omonimlar shakl jihatdan bir xil bo'lishiga ko'ra ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlarga o'xshaydi. Lekin omonimlarning ko'p ma'noli so'zlardan farqi shundaki, polisemantik so'z bir nechta ma'noga ega bo'lgan bitta so'z bo'lib, u ifodalagan ma'no o'zaro ichki bog'lanishga ega, ular ayni bir so'zning o'z va ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Omonimlar esa turli ma'no ifodalovchi bir nechta so'zdir. Omonimlar turli xil yo'llar bilan yuzaga keladi:

1. Tilda mavjud so'zlarning shakli teng kelib qolishi natijasida. Masalan: Ko'k (sifat) – havo rangli, moviy, zangori, ko'k (ot) – osmon, falak: Ko'kda yulduzlar charaqlaydi.

Ko'k (ot) – kashnich, ukrop, barra piyoz kabi o'simlik. Hozir bozordan qishin – yozin ko'k arimaydi.

2. Ko'p ma'noli so'zlar orasidagi ichki bog'lanish yo'qolishi natijasida: yosh (ot) – umrning yilma – yil hisobi: YOshingiz nechada?

yosh (sifat) – umrning vaqt hisobiga nisbatan ozi: U mendan ancha yosh.

YOsh (ot) – ko'zdan chiqadigan suyuqlik: CHin ko'ngildan yig'lasa, so'qir ko'zdan yosh chiqar. (Maqol)

3. O'zlashgan so'zlar o'zbek tilidagi so'zga yoki boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning o'zi o'zaro omonim bo'lib qoladi: tur (o'zbekcha) – xil, ko'rinish, nav. Gazlama turlari.

Tur (ruscha) – sport termini: jahon shaxmat chempionatining ikkinchi tur o'yinlari.

Jo'ra (tojikcha) – gap – gashtak qatnashchisi;

Jo'ralar yosh jihatgan teng bo'lmasa, gap qizimaydi.

Jo'ra (tojikcha) – kosiblar bir xil teng qilib to'qiydigan ikki bo'lak mato;

Bir jo'ra atlas.

4. Turli shevalarga oid so'zlar o'zaro shakldosh bo'lib qoladi:

dim – sukut, indamaslik, tovush chiqarmaslik: Dim o'ynamoq.

dim – sernam va issiq havo aqida: Xonaning ichi juda dim.

dim – mutlaqo, aslo: dim ularga qaray ko'rma.

Omonimlardan xalq og'zaki ijodida, tuyuq tuzishda keng foydalaniladi.

Masalan: Deydilarki, kungaboqar

Umr bo'yi kunga boqar.

2. Sinonim, sinonimik qator, dominanta turlari, yuzaga kelishi.

SHakli (talaffuzi va yozilishi) har xil tutashtiruvchi ma'nosi bir xil bo'lgan so'zlarga sinonim deyiladi. Sinonim so'zi grekcha «bir nomli» degan ma'noni ifodalaydi. Masalan: baxt, iqbol, tole, saodat; aniq, yaqqol, ochiq, ravshan, yorqin, oydin, ayon.

Bir ma'no atrofida birlashgan til birliklari yig'indisiga sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qatordagi so'zlar odatda bir so'z turkumiga mansub bo'ladi: ayb, gunoh, jinoyat, yoziq – ot;

Davolamoq, tuzatmoq – fe'l;

YOrug', nurli, charog'on, yorqin, munavvar, porloq, ravshan, nuravshon – sifat;

Sinonimiya qatorini tuzishda ma'nodosh so'zlar uchun asos qilib olingan so'z dominanta deb aytiladi. Dominanta sinonimik qatorda nisbatan betaraf (neytral) ma'no ifoda etuvchi va faol qo'llanuvchi til birligi. Masalan: osmon, ko'k, samo, falak, gardun so'zlaridan iborat sinonimik qatorda osmon so'zi neytral ma'nodir, boshqalari esa bir muncha tasviriyliqi, passivligi, yoki kitobiyliqi bilan osmon so'zidan farq qiladi.

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud: lug'aviy sinonimlar va grammatik sinonimlar.

Lug'aviy sinonimlar: 1) so'zlar doirasida; 2) so'z va iboralar doirasida; 3) iboralar doirasida bo'ladi.

1) So'zlar doirasidagi o'zaro sinonimik munosabatda leksik sinonim deyiladi. Masalan: bezak, ziynat, hasham. Sinonimik qator faqat so'zlardan tuziladi.

2) So'zlar va iboralar doirasidagi o'zaro sinonimik munosabatda leksik – frazeologik sinonimlar deyiladi. Masalan: ayyor – mug'ombir – pixini yorgan, iloning yog'ini yalagan;

3) Iboralar doirasidagi o'zaro sinonimik munosabatga frazeologik sinonimlar deyiladi. Masalan: mum tishlamoq, og'ziga talqon solmoq, og'zida qatiq ivitmoq kabi.

Grammatik sinonimlar qo'shimchalar doirasida bo'ladi. sinonimlar quyidagicha yuzaga keladi:

1. Bir tilning o'zida bir tushunchani ifodalovchi bir necha so'z: ish yumush; qari, keksa kabi.

2. Adabiy tilga xos so'z bilan shevaga oid so'zlar, yoki shevaga oid bir necha so'zlar: go'zal – suluv – ko'hlik, xushro'y; narvon – shoti; chelak – satil – paqir kabi.

3. Boshqa tillardan so'z o'zlashtirishi natijasida: yaproq (o'zb) – barg (tojikcha), bo'loq (o'zbekcha) – chashma (tojikcha), kuch (o'zbek) – quvvat (arabcha) kabi yuzaga keladi.

Sinonimlarning stilistik rolini ularning so'zlovchi fikrini, maqsadi yoki munosabatini nutqda aniq, ta'sirchan va hatto obrazli (bo'yoqdor) qilib berish, nutqni ravon tuzish, qaytariqlarga yo'l qo'yimaslik vositasi sifatida xizmat qilishda ko'ramiz.

3. Antonim, antonimik juft, turlari va stilistik qo'llanishi.

Bir – biriga zid ma'no ifoda etuvchi til birliklariga antonim deyiladi. Antonim so'zi grekcha «zid nom» degan ma'noni bildiradi. Masalan: oq va qora, katta va kichik kabi.

Antonimik juft – o'zaro antonimik munosabatda bo'lgan 2 ta til birligi. Masalan: issiq va sovuq so'zlari bitta antonimik juftni hosil qiladi. Antonimik juft odatda bir so'z turkumiga mansub bo'ladi.

Antonimlarning quyidagi turlari mavjud: lug'aviy antonimlar va grammatik antonimlar.

Lug'aviy antonimlar: 1) so'zlar doirasida, 2) so'z va iboralar doirasida, 3) iboralar doirasida bo'ladi.

1) so'zlar doirasidagi antonimik munosabatga leksik – frazeologik antonimlar deyiladi. Masalan: ziqna (so'z) – fe'li keng (ibora), uyatli (so'z) yuzi yorug' (ibora).

2) Antonimik munosabatda bo'lgan so'z va iboraga leksik – frazeologik antonimlar deyiladi. Masalan: ziqna (so'z) – fe'li keng (ibora), uyatli (so'z) yuzi yorug' (ibora).

3) Antonimik munosabatda bo'lgan iboralarga frazeologik antonimlar deyiladi. Masalan: erga urmoq – ko'kka ko'tarmoq, oshig'i olchi – ishi o'ngidan kelmas.

Grammatik antonimlar antonimik munosabatda bo'lgan qo'shimchalar. Masalan: – siz, – mi, – be, – ba. Unumli – unumsiz, be'mani – bama'ni.

Antonimlar bir xil o'zakli, o'zakkdosh bo'lishi mumkin: – mazali – mazasiz, vafoli – vafosiz.

Antonimlar turli xil o'zaklardan bo'lishi mumkin: kecha – kunduz, do'st – dushman.

Antonimlardan badiiy asarlarda so'zlarning leksik ma'nolarini izohlashda, qarama – qarshi tushunchalarni predmet – belgi yoki harakat kabi hodisalarni qiyoslashda, ularni tilda aniq va obrazli qilib ifodalashda unumli foydalaniladi. Ayniqsa xalq maqollarida bu hol ko'p uchraydi.

Tekshirish savollari:

1. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday turlarini bilasiz?
2. Omonim nima? Uning qanday turlari bor?
3. Lug'aviy va grammatik omonimlarni tushuntiring.
4. Omonimlar polesemantik so'zlardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
5. Sinonim nima?
6. Sinonimik qator – chi?
7. Lug'aviy sinonimlar haqida gapiring.
8. Grammatik sinonimlar to'g'risida ma'lumot bering.
9. Antonim nima?
10. Uning qanday turlari bor?

Tayanch tushunchalari:

1. Omonim – grekcha onoma – nom ma'nosini ifodalaydi.
2. Sinonim – grekcha sinonimos – bir nomli degan ma'noni bildiradi.
3. Antonim – grekcha anti – zid, onoma – nom elementlaridan tuzilgan.

Ma'ruza mavzusi: Uzbek tilining lugat tarkibi.

Dars rejasi:

1. Tilning lug'at tarkibi haqida ma'lumot.
2. Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibidagi asosiy qatlamlar.

Adabiyotlar: 1(67–74), 2(124–133)

Lug'at tarkibi tilda mavjud bo'lgan barcha so'zlarning yig'indisidan iborat. U tilning qanday ahvolda ekaninin ko'rsatadi. Lug'at tarkibi qancha boy va xilma–xil bo'lsa, til shunchalik boy va taraqqiy etgan bo'ladi.

Lug'at tarkibi kishilik jamiyatining taraqqiyoti protsessida boyib boradi, eskirib qolgan so'zlar undan chiqib ketadi.

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi tubandagi asosiy qatlamlar mavjud:

1. Kundalik turmushda ishlatiladigan, hamma uchun tushunarli bo'lgan so'zlar:

- 1) Oziq – ovqatga doir so'zlar: osh, yog', guruch, piyoz, non.
- 2) Tabiiy borliqqa oid nomlar: er, quyosh, suv, tog', qor.
- 3) Odam, hayvon va boshqa tirik mavjudotlarga oid nomlar: kishi, bola, xotin, er, dehqon, ot, qush...

- 4) Odam va hayvon a'zolarining nomlari: qo'l, oyoq, burun, tirnoq, qanot, tuyog', teri, kalla...
 - 5) Qarindoshlikka, oilaga oid nomlari: qiz, o'g'il, ota, ona, xola, amma, tog'a, amaki...
 - 6) Qurol nomlari: bolta, pichoq, qaychi, o'roq, arqon, kitob, daftar, mashina...
 - 7) Jamiyatga oid nomlar: yurt, xal —, mamlakat, jamoa.
 - 8) Muhim ish — harakat nomlari: yurmoq, ichmoq, yotmoq, o'tirmoq...
 - 9) Asosiy olmoshlar: kim, nima, men, sen, biz...
 - 10) Sonlar: bir, ikki, o'n,..., ming, ...
 - 11) Holat va belgi nomlari: yaxshi, yomon, o'ng, chap, achchiq, shirin, qora, oq, eski.
2. Til taraqqiyoti natijasida yangi paydo bo'lgan so'zlar.
 3. Iste'moldan chiqib ketayotgan bo'lsa ham ko'pchilikka tushunarli so'zlar.
 4. Turli kasb — hunarga oid nomlar.
 5. Fan — texnikaga oid turli terminlar.
 6. Turli his — tuyg'uni ifodalaydigan so'zlar.
 7. Dialektlarga oid so'zlar.
 8. Turli sinfiy jargonlar.

Tarixiy jihatdan o'zbek tili leksikasi.

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi, asosan, besh manba negizida tarkib topgan:

- 1) umumturkiy so'zlar.
- 2) o'zbekcha so'zlar
- 3) tojikcha — forscha so'zlar
- 4) arabcha so'zlar
- 5) ruscha — internatsional so'zlar

Umumturkiy so'zlar. Ko'pchilik turkiy xalqlar tillarida hozir ham ishlatiladigan, barcha turkiy xalqlar uchun umumiy bo'lgan so'zlar bor. Masalan: kishi, kel, bor, ot, qo'l, oyoq, bir, ikki, bor, kel, ur, yaxshi, to'g'ri.

(O'zbek, qozoq, uyg'ur, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, no'g'ay, tatar, boshqird, chuvash, tuva).

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibining asosida ana shu umumturkiy so'zlar yotadi.

O'zbekcha so'zlar. O'zbek tili sharoitida o'zbek tili yoki boshqa til elementlari yordamida ko'pgina so'zlar yaratilgan. Masalan: ishxona, so'roq, ulfatchilik, bog'dorlik, xushbichim, purkagich, ekskavatorchi.

Tojik — fors tilidan o'zlashgan so'zlar:

Hozirgi o'zbek tilidagi tubandagi kabi tojikcha — forscha so'zlar bor: dazmol, dasturxon, obdasta, parda, gilam, paymoq, poshna, chit, taxta, guvala, g'isht, marvarid, charm, movut, paxsa, toqi, gumbaz, ohak, dahliz, reja, darvoza, zina, dutor, chang, bazm.

Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arabcha so'zlar o'zbek tilidagi VII—VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablar O'rta Osiyoni zabt etishi bilan bog'liq.

Hozirda arabcha quyidagi so'zlar mavjud: kasb, qassob, san'at, asbob, bino imorat, ovqat, g'alla, fil, parranda, hashorat, inson, odam, ayol, oila, amma, xola, dimog', idora.

Rus tilidan o'zlashgan so'zlar.

O'zbek tiliga rus tilidan so'zlarning o'tib o'zlashish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan.

O'zbek tiliga rus tilidan yoki rus tili orqali Evropa xalqlari (frantsuz, ital'yan, nemiya, ingliz, va boshqalar) tillaridan so'z kirishi ikki tarixiy davrni o'z ichiga oladi:

1. XIX asrning ikkinchi yarmidan revolyutsiyagacha bo'lgan davr.
2. Sovet davlati barpo bo'lgandan keyingi davr.

Revolutsiyagacha bo'lgan davrda o'zbek tiliga rus tilidan so'zlar asosan ikki yo'l bilan kirdi:

1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarlari, chinovniklar orasida mahalliy aholining kundalik ishlab chiqarish bilan, savdo — sotiq bilan, pochta va bank bilan bog'liq holda ishlatiladigan so'zlar va iboralar o'zbek tiliga og'zaki nutq orqali ko'plab kirib keldi. Masalan: chilon (chlen), adbakat (advokat), apisar (ofitser), iskalat (sklad), axran (oxrana), choynay (chaynik).

2. Matbuot orqali ham juda ko'p rus so'zlari o'zbek tiliga kirgan edi. Mahalliy gazetalarda rus madaniyatiga, hayotiga oid tushunchalar ko'pincha rus so'zlari bilan ifodalana

borar edi. Misollar ayrapilop (aeroplan), pabrik (fabrika), po'shta (pochta), zovut (zavod) uez (uezd), kridit (kredit), banka (bank), veksil (veksil').

Ruscha so'zlar yoki rus tiliga boshqa tillardan kirgan so'zlarning matbuot kitob orqali o'zbek tiliga kirishi revolyutsiyadan so'ng kuchaydi.

O'zbek tilidagi so'zlar bazasida yaratilgan so'zlarning ko'pgina qismi ruschadan tarjima qilish, nusxa olish (kal'ka) yo'li bilan yasalgandir. Masalan: kasalxona (bol'nitsa), bolalar bog'chasi (detsad), yoqilg'i (toplivo), yonilg'i (gorxoches), muzyorar (ledoxol), qo'l yozma (rukopis') va boshqalar.

Rus tili orqali kirgan so'zlarning ba'zilari dunyodagi ko'pchilik xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli o'zgartirilmay ishlatiladigan xalqaro terminlardir. Ularni, odatda, internatsionalizmlar deb ataladi. Masalan: evolyutsiya, kapitalizm, feodalizm, demokratiya, respublika, teatr, kontsert, aktyor, chek, professor, filosofiya, fiziologiya, filologiya, pchixologiya, filarmoniya, fel'eton, poema, ferma va boshqalar.

Hozirgi o'zbek tilidagi ruscha va internatsional so'zlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansubdir:

1. Rus tiliga: sud'ya, otpuska, samolyot, stol, stul, tok, pero, ruchka, vilka va boshqalar.
2. Hozirgi o'zbek tiliga lotincha so'zlar rus tili orqali kirgan. Masalan: reviziya, nota, metall, refleks, rezina, general, kapital, kanal, plan, direktor, radio va boshqalar.
3. Grek tiliga grammatika, pedagog, talant, tezis, tema, kafedra, poema, poeziya, metr, neft, taktika, parallel va boshqalar.
4. Nemis tiliga: raketa, kran, shaxta, rolik, galstuk, politsiya va boshqalar.
5. Ingliz tiliga: chempion, futbol, pijama, dollar va boshqalar.
6. Frantsuz tiliga: roman, pal'to, serjant, ministr, bank va boshqalar.

Tekshirish savollari:

1. Tilning lug'at tarkibi nima?
2. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibidagi asosiy qatlamlarni sanang.
3. O'zbek tili tarixiy jihatdan qanday so'zlarni o'z ichiga oladi?
4. Umumxalq leksikasi nima?
5. O'zbek tili leksikasida qanday umumturkiy so'zlar mavjud?
6. Fors – tojik tilidan o'zlashgan so'zlar haqida ma'lumot bering.
7. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarni bilasizmi? Ayting.
8. rus tilidan o'zbek tiliga so'zlarni kirib kelishi sabablarini tushuntiring.

Tayanch tushunchalar.

1. Lug'at – tildagi so'zlarning yig'indisi.
2. Til lug'ati boyiydi.

Ma'ruza mavzusi: *Hozirgi o'zbek tili leksikasining ijtimoiy – dialektal sostavi.*

Dars rejasi:

1. Hozirgi o'zbek tili leksikasining ijtimoiy – dialektal sostavi haqida ma'lumot.
2. Umumxalq leksikasi va dialektal leksika.
3. Kasb – hunar leksikasi; terminologik leksika.
4. Jargon va argonlar.

Adabiyotlar: 1(46 – 50), 2(128 – 133)

1. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibida o'zbek tilida so'zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy, tushunarli bo'lgan umummillat xarakteridagi so'zlardan tashqari, millatning ijtimoiy guruhlanishi bilan bog'langan ayrim so'zlar yig'indisi bor.

Hozirgi o'zbek tilining leksik sistemasining o'rganish umumxalq leksikasigina emas, shu bilan birga unga qo'shimcha sifatida ijtimoiy guruxlar leksikasini ham o'rganish nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, dialektlarga, kasb – hunarga, fan – texnikaga oid, shuningdek, ayrim jargonlarga xos bo'lgan so'zlarni ham o'rganish, ulardan adabiy tilda foydalanish, imkoniyatini belgilab olish alohida ahamiyatga ega.

2. Umumxalq leksikasi va dialektal leksika.

Ma'lumki, milliy til umumillatga xizmat qiladi. Milliy til unga millat a'zolarining barchasi uchun tushunarlidir. Bunga o'zining adabiy til formasiga ega bo'lishi orqali erishadi. Umumxalq tili, adabiy tildan tashqari, o'z ichiga bir qancha shevalar, dialektlarni ham oladi. YAqona milliy tilda ishlatilmaydigan, ayrim mahalliy dialektlargagina xos so'zlar dialektizm deyiladi. Dialektlarning yig'indisiga xos bo'lgan so'z dialektal leksika deyiladi.

Dialektizmlar hozirgi o'zbek adabiy tiliga aytarli ta'sir ko'rsatmaydi. Badiiy asarlarda voqea va asar qahramonining, personajning belgi, xususiyatiga ishora qilish uchun voqelik yuz bergan joy dialekti elementlarini qo'llash mumkin. Masalan: jilla, jichcha, chilpichoq, nechuk, bolish, acha, hamsoya, hordiq.

3. Kasb – hunar leksikasi va terminologik leksika.

Kasb – hunarga doir bo'lgan so'zlar prof – zm, prof – zmlar yig'indisi prof.l leksika deyiladi. Hozirgi o'zbek tili o'zbek xalqi hayotida qadimdan mavjud bo'lgan dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, temirchilik, etikdo'zlik, misgarlik, duradgorlik, suvoqchilik, ipakchilik va boshqa hunarlarga doir bo'lgan maxsus so'zlarga juda boy. Masalan: kulolchilik kasbida dog'chil (xum.yas.ish.asbob.), aspak yoki ot yog'och, bandax, bog'ich (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kiygiz parchasi) kabi so'zlar, suvoqchilik sohasida bozi (tokcha yoni), andava (asbob), loykash (kishi) mola gazcho'p (asbob) kabi maxsus so'zlar bor. Tor doirada qo'llanadi, shu soha kishilari uchun tushunarlidir.

Termin – fan, texnika, san'at sohasidagi aniq bir tushunchani ifodalaydigan bir ma'noli so'z yoki iboralardir. Masalan: morfologik, leksika, affiks, sonor kabilar tilshunoslikka oid termenlar bo'lsa, kvadrat, ildiz, teorema kabilar matematikaga oiddir.

Biror fan yoki ishlab – chiqarish sohasidagi qo'llanadigan terminlarning jami terminologiya deyiladi.

3. Jargon va argolar.

O'tmishda xalqni ekskursiya qiluvchi sinf vakillari, saroy doirasiga mansub bo'lgan yuqori mansabdorlar, savdogarlar, din ahllari, qalandarlar, maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o'g'rilar va boshqa firibgarlar o'z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o'zlarigagina tushunarli so'z va iboralardan foydalanganlar.

Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so'z va iboralar jargonlar deyiladi. Masalan: oftobi olam (pojshoh) husni mutlaq (xudo) bazmi jamshid, nishoni oliy (xat) kabilar saroy ahllariga xos bo'lsa, inxay (choy), tish (guruch), qaychi (revizor) kabilar savdogarlarga xosdir.

O'g'ri, qimorbozlar orasida loy, yakan (pul), bedana (to'pponcha), xitola (o'g'irla) so'zlar ishlatilib, argo deyiladi.

Tekshirish savollari:

1. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibi qanday?
2. Umumxalq leksikasi va dialektal leksika nima?
3. Kasb – hunar leksikasini izohlang.
4. Terminologik leksika qanday tushunasiz?
5. Jargon so'zlar nima?
6. Argo – chi?

Tayanch so'zlar:

1. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganish tilni yaxshi bilishdir.
2. Hozirgi o'zbek tili leksikasining ijtimoiy – dialektal tarkibini bilish – adabiy tildan foydalanish imkoniyatini belgilab beradi.

Ma'ruza mavzusi: O'zbek tilining (nofaol) leksikasi

Dars rejasi:

1. O'zbek tilining faol (aktiv) va nafaol (passiv) leksikasi haqida maqlumot.
2. Nafaol (passiv) so'zlar, ularning turlari:
 - 1) arxaik va tarixiy so'zlar
 - 2) neologizmlar

Adabiyotlar: 1(46–82), 2(124–127)

1. Lug'at sostavining tez–tez ishlatilib turadigan aktiv qismi va siyrak ishlatiladigan passiv qismi bo'ladi.

Aktiv so'zlar kundalik turmushda qo'llanishi odat bo'lib qolgan, yangilik, eskilik xususiyati bo'lmagan so'zlar kiradi.

So'zlar aktivligi umummilliy til doirasida ham, kasb sohasida ham bo'ladi. Masalan, umummilliy til doirasida ish, er, uy, bor, kel, ol, bor, chiq, kir, men, u, nima va so'zlari; kolxozchilar nutqida shudgor, zveno, brigada, paxta, traktor, mashina;

Lug'at sostavidagi ba'zi so'zlar passivlashadi. Buning sabablari bor. Bunday so'zlar kishilar nutqida ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Yangi o'zlashgan so'zlar ham o'zlashib ketguncha kam qo'llanadi. Ba'zi so'zlar umuman passivlashadi. Passiv so'zlar hayotdagi yangiliklarni yoki eskirib qolgan tushunchalarni ifodalanadi.

Kundalik alohida zarur bo'lmagan, kam ishlatiladigan so'zlar passiv so'zlar deyiladi.

Passiv so'zlar uch gruppaga bo'linadi: a) eskirib qolgan so'zlar; b) yangi so'zlar; v) aslida passiv so'zlar.

2. Eskirib qolgan so'zlar.

So'z ifodalanadigan predmet yoki tushuncha hayotda yo'qolishi, yoki ularni ifodalaydigan boshqa so'zlar paydo bo'lishi munosabati bilan ayrim so'zlar asta–sekin unutila boshlaydi. Ularning kishilarga tushunarli bo'lishi har xil bo'ladi. ba'zilari tushunarli bo'lsa ham, nutqda kam qo'llanadi.

Ba'zilari katta yoshdagi kishilarga tushunarli bo'ladi, yoshlarga tushunarli bo'lmaydi. Bunday so'zlarga badiiy va ilmiy asarlarda izoh beriladi. Eskirgan so'zlar 2 gruppaga ajratiladi:

- a) tarixiy so'zlar (ist.zlar)
- b) arxaizmlar (qadimgi so'zlar)

O'tmishda narsa–tushunchalarning nomi bo'lgan, ammo hozir eskirib qolgan so'zlar tarixiy so'zlar deyiladi. Bunday so'zlardan yo'q bo'lib ketgan narsalar, tushunchalar haqida gap borganda foydalaniladi. Tilda ularning sinonimlari yo'q. Masalan, yorg'uchoq (un, yorma tort, qo'l tegirmoni) foytun, yasovul, taxt, kanizak, dinor (tilla pul), chaqirim (1 km) tosh (8 chaqir) gaz (71 sm), botmon (176 kg, 128 kg), misqol (4,25 g) tanga (20) miri (5 tiy).

Aktiv so'zlar qatoriga sinonimi mavjud bo'lgan eskirib qolgan so'zlar arx–zmlar deyiladi. Bunda bir narsaning nomi 2 so'z bilan ifoda ifodalanadi. Biri aktiv qo'llanadi, ikkinchisi eskirib qolgan so'z hisoblanadi. Masalan: dudoq (lab), o'miz (ko'krak), mil (stvol) bitik (kitob) muhr (pechat'), kotib (sekretar').

So'z butun holda arxiklashishi singari, ba'zan ma'no tomondan arxiklashishi mumkin. SHunga ko'ra a) leksik araxaizmlar; gulgun, siymo (obraz); b) semantir arxaizmlar, davlat, bag'ir (gosud. quchoq), davlat (boylik), bag'ir (jigar).

3. Neologizmlar (yangi so'zlar)

Kundalik turmushdagi yangicha munosabatlarni, yangi narsa va ularning belgilarini, yangi hodisalar va tushunchalarni ifoda qilish uchun vujudga kelgan so'zlar yoki yangi ma'noda qo'llangan eski so'zlar neologizmlar deyiladi.

M: komp'yuter texnikasi, magistratura, bakalavr, magistr, fermer, supermarket, market, bankrot.

Neologizmlar oddiy so'zlar qatoriga kirgach yangiligini yo'qotadi.

Neologizmlar:

- a) leksik neologizmlar
- b) semantik neologizmlar.

Leksik neologizmlar tamomila yangi hali o'zlashib ketmagan so'zlardir. Bunday so'zlar:

a) o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan so'z va morfemalar bilan yasalgan yangi so'zlar; etti yillik.

b) boshqa tildan kirgan, ammo hali umumxalq tiliga singib, o'zlashib, aktiv so'zga aylangan yangi so'zlar: magistr, bankrot, menedjer, marketing, disket, komp'yuter va boshqalar kiradi.

Semantik neologizmlar tildagi so'zlarning yangi ma'noda qo'llanishidir. Masalan: yo'ldosh (er yo'ldoshi) payvandchi (metalni ulovchi).

Tekshirish savollari:

1. Qanday so'zlarni faol so'zlar deymiz?
2. Nofaol (passiv) so'zlar nima?
3. Nofaol so'zlarning turlarini ayting.
4. Arxaik va tarixiy so'zlarning farqini ayting.
5. Neologizmlar nima?
6. Ular qachon yangiligini yo'qotadi?
7. Leksik neologizmlar haqida so'zlang.
8. Semantik neologizmlar to'g'risida nima deya olasiz?

Tayanch so'zlar:

1. Faol (aktiv) va nofaol (passiv) so'zlar – lug'at boyligi.
2. Ulardan o'rni bilan foydalanish mumkin.

Ma'ruza mavzusi: *O'zbek tilining ekspressiv – stilistik leksikasi.*

Dars rejasi:

1. O'zbek tilining ekspressiv – stilistik leksikasi.
2. Og'zaki va yozma nutqqa xos bo'lgan umumiste'moldagi so'zlar.
3. Stilistik chegaralangan leksika.

Adabiyotlar: 2 (42 – 44b),

1. O'zbek tilining ekspressiv – stilistik leksikasi.

Lug'at sostavidagi ba'zi so'zlar ma'lum bir tushunchani ifodalashdan tashqari, qo'shimcha emotsional – ekspressiv rangga ham ega ekanligi haqida ilgari ham fikr yuritilgan edi.

Masalan: tabassum – kulgi, bo'sh – lapashang, latta. Emotsionallikka bosh – tabassum, lapashang.

Tushuncha ifodalashdan tashqari, ta'sirchanlikka erishish va nutqning ma'lum stilini yaratish maqsadida qo'llanadigan so'zlar ekspressiv – stilistik leksika deyiladi.

Ekspressivqstilistik jihatdan hozirgi o'zbek tili lug'at sostavi 2 ta katta gruppaga bo'linadi:

- a) og'zaki nutqqa va yozma nutqqa xos bo'lgan umumiste'moldagi so'zlar;
- b) stilistik jihatdan chegaralangan leksika.

2. Og'zaki va yozma nutqqa xos bo'lgan umumiste'moldagi so'zlar.

Kishilar uchun hayotiy zarur narsalarni anglatadigan stilistik rangi bo'lmagan so'zlar umumiste'moldagi so'zlar deyiladi.

Ular stilistik jihatdan chegaralanmagani uchun ularni stilistik neytral bo'lgan leksika deb ham ataladi.

Masalan: non, uy, suv, odam, yuz, ko'z, osh, choy, tuz, oq, qora, yurmoq, bormoq, men, sen, u, bu, shu, ikki, olti...

Stilistik neytral leksika har qanday janrda ham ishlatilaveradi.

Uslubiy chegaralangan leksika.

Nutqning ayrim – ayrim turlari uchungina xizmat qiladigan so'zlar uslubiy chegaralangan leksika deyiladi. Bunday maxsus so'zlar dastavval og'zaki nutqqa yoki yozma nutqda qo'llanishlariga ko'ra ikkiga ajraladi.

Masalan: hazar qilmoq, birlashmoq, hunar, o'rin, arzimagan so'zlari ko'proq og'zaki nutqda qo'llanilsa, jirkanmoq, jiplashmoq, kasb, makon, ju'ziy so'zlari yozma nutqda qo'llanadi.

3. Og'zaki nutqning uslubiy chegaralangan leksikasi.

Og'zaki nutq uchun xarakterli bo'lgan oddiy muomaladagi so'zlar o'zlarining soddaligi, hammaga tushunarli bo'lishi bilan yozma nutqdagi so'zlardan ajralib turadi.

Og'zaki nutqda stilistik rangli so'zlar ko'p ishlatiladigan ularda soddalik, ta'sirchanlik, ba'zan erkinlik sezilib turadi.

Og'zaki nutqqa oid so'zlar badiiy asarlarda personajlar nutqida beriladi.

Masalan: Nima qilib bu ezmachuriqni sudrab yuribsizlar, beti qursin.

Og'zaki nutqqa xos so'zlarga dialektal so'zlar, oddiy muomaladagi so'zlar, erkalovchi so'zlar, dag'al (vul'gar) so'zlar, haqorat so'zlar kiradi.

Maslan: Qizaloqlarim, qo'llaring nuqul baraka ekan.

Boy, qiztaloq, toza ham davlat yiqqan ekan.

Og'zaki nutqqa ega leksikada kuchlim emotsionallik va obrazlilik boy bo'lgan maxsus emotsional obrazli so'zlar ham bor. Bu turdagi so'zlarga emotsiya, hayajon, ruhiy keyinmalarni, turli tovush va harakatlarni, yorug'lik ko'rinishlarini ifodalaydigan obrazli taqlidiy so'zlar kiradi. Bunday so'zlar kishida turli psixologik holatlarni qo'zg'atadi, voqeaga, hodisaga nisbatan bo'lgan salbiy yoki ijobiy munosabatni ifodalaydi. Bunday xususiyat:

a) undovlarga va shulardan yasalgan so'zlarga xos: (oh, eh, ey, ie, if, be, obbo, dod, dodlamoq, uxlamoq);

b) taqlidiy so'zlarga xos va shulardan yasalgan so'zlarga xos: (bilch – bilch, g'arch – g'urch, vang, tors – turs, qars, lip, g'irillamoq).

4. YOzma nutqning uslubiy chegaralangan leksikasi.

Kitob, jurnal, gazeta va shunga o'xshash (matbuot nashr)larda qo'llanadigan, umuman, yozma asarlar uchun xarakterli bo'lgan so'zlarning nisbatan, turg'un, barqaror ekspressiv – stilistik ottenkasi bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. CHunonchi, rasmiy ishga oid, tantanaga, notiqlikka oid so'zlarning poetik leksika, xalq dostonlariga oid so'zlarning, publitsistikaga oid so'zlarning biror darajadagi qo'shimcha rangi bo'ladi. SHu bilan og'zaki nutqqa xos so'zlardan ajralib turadi.

Masalan: saylamoq, majburiyat, modda, farmon, jarima, izoh, isbot, mazkur, shaxsan, cheksiz, buyuk, dargoh;

ijozat, burch, bevosita, tabrik, boshchilik, erishmoq;

zangori, ajoyib, sokin, mayin, chehra, jamol, ishq;

dilovar, osha, ajdar, dev, zo'ravon;

ekspluatator, ilg'or, qoloq, musobaqa, novator, qardoshlik, do'stlik, tinchlik va boshqalar.

Ammo ilmiy – texnik terminlar, tarixiy so'zlar, professional so'zlar va shu kabilar asosan, emotsional ottenkasiz bo'ladi. Hatto avval emotsional ottenkasi bor bo'lgan so'z ham termin tusiga kirgach emotsionalligini yo'qotadi. Buning o'rniga "kitobiylik" ottenkasi paydo bo'ladi. Masalan, kichik tilcha, qorincha (anatomiya sohasida), mushtcha, yubka (avtomashina detallari), batrak (tojikcha – forscha badrag – "qaysar", "tuban arq", keyinchalik ma'lum ijtimoiy qatlam") kabi.

Tekshirish savollari:

1. Emotsional – ekspressiv leksika nima?
2. Emotsional – ekspressiv bo'yoqsiz so'zlarni qanday tushunasiz?
3. Emotsional – ekspressiv bo'yoqdor so'zlarni – chi?
4. Stilistik neytral leksika haqida ma'lumot bering.
5. Uslubiy chegaralangan leksikani tushuntiring.
6. Og'zaki nutqning uslubiy chegaralangan leksikasi haqida so'zlang.
7. YOzma nutqning uslubiy chegaralangan leksikasi haqida tushuntiring.

Tayanch so'zlar:

1. O'zbek tilidagi ba'zi so'zlar salbiy va ijobiy munosabat ifodalaydi.
2. Stilistik neytral so'zlardan har qanday janrda ishlatiladi.

Ma'ruza mavzusi: Frazzeologiya.

Dars rejasi.

1. Frazzeologiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Frazzeologik iboralarning struktura va ma'no xususiyatiga ko'ra turlari.

Adabiyotlar: 1 (72 – 74b)

1. Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot.

Tilning lug'at tarkibida xuddi so'z singari maqsadga muvofiq tanlab ishlatish mumkin bo'lgan, shu tilda so'zlashuvchi har bir kishining xotirasida bir butun holda saqlanadigan til biriktirmoq, dili siyoh bo'lmoq, obro'si ko'tarilmoq, nog'orasiga o'ynamoq, ko'ngli xira bo'ldi, ko'z qirini tashladi, tomdan tarasha tushganday, yostiqdan bosh ko'tarmoq kabi iboralar ham mavjud.

Bu tipdagi iboralar frazeologizmlar deb, ularni o'rganadigan soha fraziologiya deb ataladi.

Frazeologik iboralar (frazeologizmlar) birinchidan, tilda ko'p vaqt bir qolipda ishlatilaverib, bo'linmaydigan (bir butun) holga kelib qolgan bo'ladi. Ikkinchidan, ibora tarkibida eng kamida ikkita so'z qatnashadi. Uchinchidan, ibora yoki uning bir qismi ko'pincha ko'chma ma'noda bo'lgani uchun obrazlilikka boy bo'ladi.

Tilning lug'at sostavidagi so'zlar ham, frazeologik iboralar ham til birliklari sanaladi. SHu jihatdan ular quyidagi umumiy xususiyatlarga ega;

1. Ibora bir butun holda bir umumiy tushunchani bildiradi, shuning uchunxam u ma'no jihatdan ko'pincha bitta so'zga teng keladi. Masalan; ko'ngli ko'tarildi – xursand, kapalagi uchib ketdi – qo'rqdi, lom – mim demadi – indamadi.
2. Ibora ma'no va grammatik jihatdan ma'lum bir so'z turkumiga mos keladi, shuning uchun ham u bir butun holda ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi va gapda ma'lum bir gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan, Hamma ishlaridan ko'ngli to'q bo'lganidan (to'ldiruvchi) ikki kun ko'z ochib yuguncha (hol0 o'tib ketdi. (O'.U).

Gap qaytarishga (to'ldiruvchi) o'zingiz majbur qildingiz. (S.Z). Nega Nuri erkaklar ishiga burnini tiqadi (kesim). (P.T).

3. Ibora o'z strukturasi va tarkibidagi so'zlarning joylashish o'rni (tartibi)ga barqaror bo'ladi. Masalan, xamir uchidan patir, chuchvarani xom sanamoq.

SHu sababli xam ibora tarkibidagi so'zlarning o'rnini almashtirib bo'lmaydi. (Masalan, xom chuchvarani sanamoq, patir uchidan xamir kabi).

Ammo fraziologizmlar tarkibidagi ayrim so'zlar turli grammatik shakllarda qo'llanishi (ko'ngli ko'tarildi – ko'nglini ko'tardi, nog'orasiga o'ynadi – nog'orasiga o'ynatdi kabi), ba'zan so'zlar boshqa so'z bilan almashtirilishi (masalan, istarasi issiq – yulduzi issiq, ichi achidi – yuragi achidi kabi). So'zlar orasiga boshqa so'z kiritilish (masalan, ko'ngli ko'tarildi – ko'ngli tog'da ko'tarildi, to'nini teskari kiydi – to'nini juda teskari kiydi) mumkin.

2. Frazeologik iboralarning struktura va ma'no xususiyatiga ko'ra turlari.

Frazeologik iboralar tuzilishi va ma'no xususiyatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

Frazeologik qo'shimchalar. Frazeologik qo'shimchalarning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolaridan kelib chiqadi. Masalan, gap tashlamoq, gap otmoq (gap – o'z ma'nosida, tashlamoq, otmoq – ko'chma ma'noda), mehri tushdi (mehr – o'z ma'nosida, tushdi – ko'chma ma'noda), oyog'i tortmadi (oyoq o'z ma'nosida, tortmadi – ko'chma ma'noda).

Frazeologik qo'shilma tarkibidagi so'zlar grammatik birikish usuli jihatidan odatdagi so'z birikmalaridan farq qilmaydi. SHuning uchun xam kuli ko'kka sovrildi iborasi tarkibidagi gap bo'laklarini (egaQo'rin holiQkesim) ajratish mumkindek ko'rinsa – da, ammo ibora tarkibidagi so'zlar orasidagi sintaktik aloqa doimiy (o'zgarmas)dir, shu sababli u «butunlay emirildi», «yo'q qilindi» ma'nosini ifodalaydi.

Frazeologik qo'shimchalarda voqelik bevosita aks ettiriladi, shuning uchun uning tarkibidagi ayrim ko'zlar ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'lsa xa, ibora butun holda ko'chma ma'noda bo'lmaydi.

Masalan, Tojiboy gapirsa, katta – kichik ixlos bilan uning og'ziga qaraydi. (P.T)

3. Frazeologik birlashmalar.

Frazeologizmlarnining bu turida ibora butun xolda ko'chma ma'noda qo'llaniladi, ammo iboraning umumiy ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nolari bilan ma'lum darajada bog'langan bo'ladi. Masalan, oralaridan qil o'tmaydi, tepa sochi tikka bo'ldi, og'zi qulog'iga etdi, pashshadan fil yasamoq va b.

Bunday iboralarda mubolag'a, o'xshatish kabi tasviriy vositalarning qo'llanishi uning obrazlilikini, ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, xamma ish xamirdan qil sug'urgandan imim – jimida hal bo'ldi. (SH.R)

Bu turdagi iboralarda so'zlar orasidagi grammatik aloqa sezilib tursa – da, ular gap bo'laklariga ajralmaydi, balki butun xolda bitta sintaktik vazifa bajaradi. Masalan. Yulduzni benarvon uradigan yigitlar – o'shalar (O.) gapidagi yulduzni benarvon uradigan iborasi to'ldiruvchi, hol va kesimga ajralmaydi, balki butun holda bitta birikmali aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Frazeologik birlashmalar tarkibidagi so'zlar orasiga, ba'zan so'z kiritish, tarkibidagi so'zlar o'rnini o'zgartirish, so'zlardan birini boshqa ma'nodagi so'z bilan almashtirish mumkin. Masalan, YUragida kiri yo'q q ko'nglida kiri yo'q, qildan qiyiq axtarmoq – qildan qiyiq qidirmoq.

4. Frazeologik chatishmalar.

Frazeologizmlarning bu turida ham ibora butun xolda ko'chma ma'noda qo'llaniladi, ammo uning ma'no tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan o'zaro bog'lanmaydi. Masalan, o'takasi yorildi iborasi butun holda ko'chma ma'noni – qattiq qo'rqdi ma'nosini ifodalaydi, ammo bu ma'no ibora tarkibidagi o'taka(si), yorildi so'zlarning na real, na ko'chma ma'nolari bilan bog'liq emas. Xuddi shu singari, yuzi shuvut bo'ldi iborasi butun holda «uyaldi» ma'nosini ifodalaydi, ammo bu ma'no ham iboralar tarkibidagi yuzi shuvut so'zlarining ma'nolari bilan xech qanday umumiylikka ega emas.

Frazeologik chatishma tarkibidagi ba'zi so'zlarning ma'nosi eskirgan (yoki unutilgan) bo'lishi mumkin. Masalan, Gulnor doqiyunusdan qolgan kavushini kiyib, chirik paranjiga o'ralib, Yo'lchi bilan jo'nadi. (O.). ushbu misolda qo'llangan frazeologik ibora tarkibidagi doqiyunus so'zining ma'nosi eskirgan bo'lib, u qanday ma'noda ishlatilishi iboraning umumiy ma'nosidan anglashiladi.

Adi – badi aytishdi, obro'sini bir pul qildi, bo'ynidan soqit qildi, dong qotmoq so'zlari ham shunday so'zlardandir.

Tekshirish savollari.

1. Frazeologiya nimani o'rgatadi?
2. Frazeologik ibora yoki frazeologizmlar deganda nimani tushunasiz?
3. Frazeologizmlar so'zlardan qanday farq qiladi? Qaysi xususiyatlari bilan so'zga o'xshaydi?
4. Frazeologizmlarning odatdagi so'z birikmalaridan farqi nimada?
5. Frazeologizmlarning qanday turlari bor?
6. Frazeologik qo'shilma haqida tushuncha bering.
7. Frazeologik birlashmalar haqida ma'lumot bering. Misol keltiring.
8. Frazeologik chatishma nima? Misol ayting.

Tayanch tushunchalar.

1. Frazeologizmlar – tilda bir butun holda qo'llaniladigan til til birliklari.
2. Frazeologizmlar – bir qolipda qo'llanadigan so'zlar qo'shilmasi.
3. Ibora – ko'chma ma'noga ega bo'lgan, obrazlilikka boy til birliklari.
4. Frazeologizmlar ma'lum bir so'z turkumiga mos keladigan so'zlar qo'shilmasi.

***Ma'ruza mavzusi:* Leksikografiya.**

Dars rejasi.

1. Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Lug'atlar va ularning tiplari.

Adabiyotlar: 1 (74 – 77b).

1. Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot.

2. Lug'atlarning qanday tiplari mavjud?
3. Entsiklopedik lug'atlar haqida ma'lumot bering.
4. Lingvistik lug'atlar entsiklopedik lug'atlardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
5. Lingvistik lug'atlarining bir va ikki tilli bo'lishini izohlang.
6. Bir va ikki tilli lug'atlarga misollar keltiring.
7. Lug'atlarning qanday ahamiyati bor?

Tayanch tushunchalar.

1. Leksikografiya grekcha – lug'at va «yozaman» elementlaridan tuzilgan.
2. Leksikografiya – leksikologiyaning bir bo'limi.
3. Leksikografiya – lug'at tuzish ishi bilan shug'ullanuvchi tilning bir sohasi.
4. Lug'atlar entsiklopedik va lingvistik turlarga bo'linadi.

F O N E T I K A

1-§. Fonetika va fonologiya haqida umumiy ma'lumot

Fikr gap orqali ifoda qilinadi. Gap, odatda so'zlardan tashkil topadi. Gap tarkibida so'zlar va shu so'zlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi grammatik vositalar (qo'shimchalar, yordamchi so'zlar) ma'lum nutq tovushlari orqali shakllanadi. Masalan: *Biz ulug'ayyomni mana shu cho'lda kutib olyapmiz (Y. Shamsharov)*. Bu gapni tuzishda *biz, ulug', ayyom, mana, shu, cho'l, kutib, olmoq* so'zlari, ularning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi *-ni* (tushim kelishigi qo'shimchasi), *-yap* (zamon ma'nosini ifodalovchi qo'shimcha), *-miz* (shaxs-son qo'shimchasi) qo'shimchalari qatnashgan; har bir so'z va qo'shimcha esa nutq tovushlari vositasida (masalan, *biz* - *b, i, z; ulug'* - *u, l, u, g'*; *-ni* - *n, i; -da* - *d, a* kabi) shakllandi.

Ko'rinadiki, nutq tovushlari so'z va gaplarni tuzishda moddiy baza hisoblanadi, chunki inson tili tovush tilidir.

Fonetika tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, unda nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, turlari, o'zgarishi, urg'u, bo'g'in, ohang kabilar o'rganiladi. **Fonetika** grekcha *phone* so'zidan olingan bo'lib lug'aviy ma'nosi *tovush* demakdir.

Fonologiya so'zi tarjima qilinganda "tovush haqidagi ta'limot" degan ma'noni bildiradi (*phone* – tovush, *logos* - ta'limot). Bu bo'limda tovushlarning so'z va morfemalar ma'nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar fonetika bo'limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta'bir joiz bo'lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o'rganiladi.

2-§. Tovush va fonema

Tovush bilan fonemani o'zaro farqlash zarur. **Tovush** nutqning fonetik jihatdan bo'linmaydigan eng kichik birligidir, u ma'no ifodalamaydi, lekin har qanday so'z tovushlar vositasida shakllanadi. Masalan, *a, d, m, o* tovushlarini ma'lum bir tartibda talaffuz qilish orqali *odam, omad, moda* singari boshqa-boshqa ma'nodagi so'zlar hosil qilinadi. So'zlar tovush tarkibiga ko'ra turlicha bo'ladi.

1. Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlar: *ot – ol, ol – oq, oq - osh, osh – ov, ov – oz, oz – on, on – or, or – os, os – och, och – og', og' - ox; oz – iz, iz – uz, uz – ez, davlat – savlat, ko'za – g'o'za* kabi.

2. Tovushlarning joylashish tartibiga ko'ra farq qiladigan so'zlar. Masalan: *qo'y – yo'q* (birinchi so'z tarkibidagi birinchi tovush ikkinchi so'zning oxirida qo'llanadi.)

3. Biror tovushning ortiqligi bilan farq qiladigan so'zlar: *o'lka – yo'lka, et-bet, sava – savat, tana – tashna, taxt – taxa, o'roq - so'roq* kabi.

Demak, so'zlar tovushlardan tuziladi, ular bir, ikki, uch, to'rt va hokazo miqdordagi tovushlarning tartiblashishidan hosil bo'ladi.

Fonema so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush turidir. Masalan: *bal - bel -bil -bol - bo'l* so'zlari tarkibidagi *a, e, i, o, o'* tovushlari so'z ma'nolarini belgilash (ajratish)ga xizmat qiluvchi fonemalardir: *bor, dor, zor, kor, nor, tor, xor, chor, qor* so'zlari tarkibidagi birinchi tovushlar (*b, d, z, k, n, t, x, ch, q*) ham shunday vazifa bajargan.

Fonemalarning uch belgisi bor: 1. Akustikasi (eshitilishi). 2. Artikulyatsiyasi (aytilishi yoki talaffuzi). 3. Ma'no farqlashi (ba'zi darsliklarda "lingvistik tomoni" deyiladi)¹.

Bular ichida fonemaning ma'no ajratish belgisi muhim hisoblanadi. Aks holda tovush fonema sanalmaydi.

3-§. Fonetik akustika

Fonetik akustika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo oqimining tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari esa o'pkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil bo'ladigan ovoz va nutq organlarida hosil bo'ladigan shovqinning quloqqa eshitilishidir. Nutq tovushlari akustikasida ko'yidagilar farqlanadi:

1. Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi ma'lum vaqt ichida un paychalarining tebranish miqdoriga ko'ra har xil chiqishidir: un paychalari ko'p tebransa, tovush baland bo'ladi, aksincha, un paychalari kam tebransa, tovush past chiqadi.

2. Nutq tovushlarining kuchi ma'lum kenglikdagi maydondan ma'lum vaqtda o'tadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H.Jamolxonov shunday yozadi: "Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm^2 maydondan 1 sekundda o'tadigan energiya miqdoridir"² Demak, nutq tovushlarining kuchi un paychalari tebranishi kengligiga bog'liq: tebranish kengligi katta bo'lsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik bo'lsa, tovush ham kuchsiz chiqadi.

3. Nutq tovushlarining tembri (sifati) – asosiy ton bilan hosil bo'ladi. Tovushlarning tembri og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'ining hajmi, shakliga, tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo'lishiga bog'liq.

4. Tovushning cho'ziqlik darajasi un paychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan o'lchanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush cho'ziq; tebranish qisqa davom etsa tovush qisqa bo'ladi.

4-§. Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan organlar **nutq a'zolari** deb yuritiladi. **Artikulyatsiya** deganda esa nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi faoliyati anglashiladi.

Nutq a'zolariga quyidagilar kiradi:

1. Nafas apparati: o'pka, bronxlar (bir juft), nafas yo'li (traxeya).

2. Bo'g'iz bo'shlig'ida xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar hamda un paychalari joylashgan.

3. Og'iz bo'shlig'ida til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan .

4. Burun bo'shlig'i.

5. Markaziy nerv sistemasi.

Nutq a'zolarining jami **nutq apparati** deyiladi. Endi har bir nutq a'zosining vazifasi xususida to'xtalib o'tamiz.

O'pka inson organizmini kislorod bilan ta'minlovchi a'zo ekanligi hammaga ma'lum. Nutq a'zosi sifatida esa o'pka nutq tovushlarining hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan havo oqimini yetkazib beradi, ya'ni inson nafas olganida o'pka va undagi bronxlar havoga to'ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi. Havo oqimi **nafas yo'li** orqali **bo'g'izga** tomon harakatlanadi. Bo'g'izdagi **cho'michsimon, uzuksimon, shoxsimon, xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar** un paychalarini ushlab turuvchi a'zolardir. **Un paychalari** esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o'xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog' ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko'z oldingizga keltiring). **Og'iz bo'shlig'i** tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a'zodir. **Til** juda ko'p tovushlarni hosil qilishda

¹ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 1992, 15-bet.

² Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 25-bet.

ishtirok etadigan a'zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo'ladi. **Kichik til** ham ayrim tovushlarning (*q, g', x*) hosil bo'lishida qatnashadi. **Lablarning** keng ochilishi, cho'chchayishi, jipslashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo'ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining **tishlar** orasidan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. *M, n, ng* tovushlari hosil bo'lishida havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali o'tib, tashqariga chiqadi. **Markaziy nerv sistemasi** nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a'zosining tovushlarni hosil qilishda o'z vazifasi bor.

So'z ma'nolarini ajratish, chegaralash uchun xizmat qiladigan vositalar **fonetik vositalar** sanaladi. Bunday vositalar qatoriga **nutq tovushlari, urg'u, ohang (ohang)** kiradi. So'z ma'nolarini farqlashga xizmat qiladigan fonemalar xususida yuqorida fikr yuritildi. Lug'at tarkibidagi barcha so'zlar, grammatik shakllar ana shu fonemalarining ma'lum tartibda ketma-ket joylashishi orqali shakllanadi. Ayrim hollarda o'xshash bo'lgan (omonim) so'zlarning ma'no va grammatik shakllarini farqlashda **urg'u** (leksik urg'u) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: *olma* (predmet, mevaning bir turi), *olma* (harakat, *olmoq* fe'lining bo'lishsiz shakli, *-ma* qo'shimchasini ajratish mumkin); *akademik* (predmet, ot), *akademik* (belgi, sifat); *gullar* (ot, "ko'p gul" ma'nosida), *gullar* (fe'l, "gullamoq").

Gapning maqsadga ko'ra turini ajratishda esa **ohang** (ohang) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: *Dars boshlandi. (darak gap) Dars boshlandi? (so'roq gap).*

Takrorlash uchun savollar:

1. Fonetika nimani o'rganadi?
2. Tovush va fonemaning farqini ayting.
3. Fonologiya haqida nimalarni bilasiz?
4. Fonema qanday belgilarga ega?
5. Fonetik akustika haqida qanday ma'lumotga egasiz?
6. Nutq tovushlari artikulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Nutq a'zolarining vazifalari nimalardan iborat?
8. O'zbek tilining fonetik vositalariga nimalar kiradi?

"Fonetika" bo'limi yuzasidan test savollari:

1. Fonetika o'rganadigan masalalar noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) nutq tovushlarining hosil bo'lishi B) urg'u, bo'g'in, ohang C) nutq tovushlarining turlari, o'zgarishi D) nutq tovushlarining so'z ma'nolarini ajratishdagi roli.

2. Fonetika bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) lingvistik xususiyatlari B) ijtimoiy mohiyati C) fizik-akustik xususiyatlari D) ma'no farqlash xususiyatlari

3. Fonologiya bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) qay tarzda hosil bo'lishi B) sifat tomonlari C) kuchi va cho'ziqligi D) ma'no farqlash xususiyatlari.

4. Tovushning xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) so'z va qo'shimchalar bir-birlaridan tovushlari bilan farq qiladi B) har qanday so'z tovushlardan tashkil topadi C) nutqning eng kichik bo'linmas ma'noli qismi D) birchasi to'g'ri.

5. Bir xil tovushlarning turlicha joylashuvidan hosil bo'lgan so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) kitob, maktub, maktab B) suvrat, tasvir, tasavvur, musavvir C) uchqur, chuqur, urchuq D) ahhob, habib, muhib.

6. Bir tovushi bilan farq qiladigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) kalom, qalam, malak B) borlik, borliq, torlik C) jodu, jodi, juda D) sohib, hisob, solib

7. Tovushlarning ortiqligi bilan farqlanadigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) adab, abad, odob B) alam, qalam, a'lam C) stol, ustol, ustul D) mulk, molik, komil.

8. Fonemaning belgilari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) eshitilishi B) aytilishi C) ma'no farqlashi D) tuzilishi.

9. Fonemaning eng muhim belgisi ko'rsatilgan javobni toping.

A) ma'no ajratishi B) akustikasi C) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshitilishi.

10. Nutq tovushlarining balandligi nima bilan ta'minlanadi?

A) un paychalarining ko'p tebranishi bilan B) un paychalarining kuchli tebranishi bilan C) un paychalarining past tebranishi bilan D) un paychalarining kam tebranishi bilan

11. Nutq tovushlarining kuchi nimaga bog'liq?

A) un paychalarining tebranish vaqtiga B) un paychalarining tebranish o'rniga C) un paychalarining tebranish amplitudasiga D) un paychalarining tebranish joyiga

12. Nutq a'zolaridan qaysi birining hajmi va shakli nutq tovushlarining tembriga ta'sir qilmaydi?

A) og'iz bo'shlig'ining shakli B) burun bo'shlig'ining hajmi C) bo'g'iz bo'shlig'ining shakli D) tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo'lishi.

13. Nutq tovushlarining un paychalari tebranadigan vaqt bilan o'lchanadigan xususiyati qaysi javobda berilgan?

A) tembri B) cho'ziqligi C) kuchi D) balandligi

14. Qaysi javobda nutq a'zosi nomi noto'g'ri berilgan?

A) o'pka, bronxlar, nafas yo'li B) xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon va nayzasimon tog'aylar, un paychalari C) burun bo'shlig'i, markaziy nerv sistemasi. D) til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar

15. Qaysi nutq a'zosi tovushni kuchaytirib berishga yordam beradi?

A) til B) un paychalari C) og'iz bo'shlig'i D) bo'g'iz bo'shlig'i

3. Qaysi nutq a'zosi ovoz manbasi hisoblanadi?

A) til B) un paychalari C) og'iz bo'shlig'i D) bo'g'iz bo'shlig'i

16. Qaysi javobda markaziy nerv sistemasining vazifasi to'g'ri ko'rsatilgan?

A) nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi B) nutq a'zolarining harakatini boshqarib turadi C) markaziy nerv sistemasi nutq a'zolari sirasiga kirmaydi D) A,B

17. Qaysi tovushlar talaffuzida havo oqimining yo'nalishi o'zgaradi

A) y, z, s B) m, n, ng C) v, f, r D) sh, j, g'

18. Fonetik vositalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) urg'u, bo'g'in, tovush B) nutq tovushlari vergul, nuqta C) ohang, nutq a'zolari, pauza D) fonemalar, urg'u, ohang

19. Urg'uning vazifasi noto'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) hozir (ravish) - hozir (sifat) V) qo'llar (a'zo) - qy'llar (fe'l) C) nufyz (obro') - nyfus (aholi) D) ko'zlar(a'zo) - ky'zlar(fe'l)

20. So'z ma'nosini farqlashda urg'uning qaysi turi ishtirok etadi?

A) logik urg'u B) leksik urg'u C) gap urg'usi D) ma'no urg'usi

6-§. Nutq tovushlarining tasnifi

Nutq tovushlari ikki xil: **unli tovushlar, undosh tovushlar**. Bular quyidagicha farqlanadi: 1) unli tovushlar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi, undosh tovushlarni hosil qilishda esa o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil bo'ladi; 2) unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish mumkin, undoshlarni esa cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi; 3) unli tovushlar talaffuzida tovush paychalari albatta titraydi, undoshlar talaffuzida esa tovush paychalari titrashi ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin.

7-§. Unli tovushlar va ularning tasnifi

Har bir til o'zining unli tovushlar tizimiga ega. Bu tizim **vokalizm** deb ataladi. O'zbek tilidagi unli tovushlar (**a, i, o, u, o', e**) uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra.

Og'iz bo'shlig'ida eng faol organ tildir. U unli tovushlarni talaffuz qilishda oldinga (tish yoki milkka tomon) va orqaga qarab harakat qiladi. Tilning bu harakati **gorizontal** harakat hisoblanadi. Shuning uchun unlilar tilning gorizontal harakatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) old qator unlilar: **a, e, i;**

2) orqa qator unlilar: **o, o', u.**

2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra.

Unli tovushlar talaffuzida tilning tanglayga tomon ko'tarilishi va tushishi **vertikal** harakatdir. Bu harakat tufayli og'izning ochilish darajasi har xil bo'ladi. Chunonchi, **i, u** unli tovushlarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi, shuning uchun ham og'izning ochilish darajasi

tor bo'ladi; aksincha, **a, o** tovushlarini hosil qilishda til tanglaydan ancha uzoqlashadi (quyida turadi), shuning uchun til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq keng bo'ladi; **e, o'** tovushlarini hosil qilishda esa til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq o'rtacha (tor ham emas, keng ham emas) bo'ladi. Ko'rinadiki, tilning vertikal harakati og'izning ochilish darajasini (tor, keng, o'rta keng) belgilaydi. SHuning uchun unlilar tilning vertikal harakati (yoki og'izning ochilish darajasi)ga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- 1) yuqori tor unlilar: **i, u;**
- 2) o'rta keng unlilar: **e, o'.**
- 3) quyi keng unlilar: **a, o.**

3. Lablarning ishtirokiga ko'ra.

Unlilar talaffuzida lablarning roli ham kattadir. Ayrim unlilar talaffuzida lablar albatta qimirlaydi, ya'ni ular doira shaklini oladi, ayrimlarida esa nisbatan kam qimirlaydi. Shunga ko'ra unlilar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) lablangan unlilar: **u, o', o;**
- 2) lablanmagan unlilar: **i, e, a.**

Unli tovushlar tasnifini quyidagi jaldvalda aks ettirish mumkin:

Lablarning ishtirokiga ko'ra	Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Tilning vertikal harakatiga ko'ra
	Old qator	Orqa qator	
Lablanmagan	i		Yuqori tor unlilar
Lablangan		u	
Lablanmagan	e		O'rta (keng) unlilar
Lablangan		o'	
Lablanmagan	a		Quyi (keng) unlilar
Lablangan		o	

8-§. Ayrim unli tovushlar tavsifi

I unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ipak*), so'z o'rtasida (*tilak*) va so'z oxirida (*tulki*) keladi.
- 2) so'z ichida ikki jarangsiz undosh orasida nihoyatda qisqa aytiladi: *bilan, sira*.
- 3) **k, g, x** undoshlaridan keyin kelganda orqa qator unli kabi aytiladi: *qir, G'iro, oxir*.
- 4) cho'ziq varianti bor: *muhim, musiqa*.
- 5) **e** tovushiga moyil varianti bor: *mix-mex*.

U unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*urmoq*), so'z o'rtasida (*tugun*) va so'z oxirida (*urg'u*) keladi.
- 2) til oldi varianti ham uchraydi: *kuch, gul*;
- 3) *qulf, g'ulg'ula, tuxum* so'zlarida esa til orqa varianti qo'llangan.
- 4) **i** tovushi kabi kuchsizlanishi, ya'ni qisqarishi ham mumkin: *tuxum, bulbul, tutun* kabi.

E unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida, so'zning birinchi bo'g'inida keladi: *eshik, elak, e'tibor, kel, bet* kabi.
- 2) jonli nutqda sheva ta'sirida **i** tovushiga moyillashadi: *deydi – diydi*.
- 3) o'g'uz shevalarida **a** tovushiga o'tish holati ham mavjud: *eshik – ashik, deb – dab, kel – gal* kabi. Lekin adabiy tilda **e** tarzida talaffuz etiladi.

A unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ari*), o'rtasida (*daftar*) va so'z oxirida (*qora*) keladi.
- 2) **q, x, g'** tovushlaridan keyin kelganda til orqaroq - orqa qator unlisi kabi talaffuz qilinadi: *g'azab, xabar*.
- 3) ba'zi so'zlarda sheva ta'sirida **o** tovush kabi aytiladi: *baho – boho, shavla – shovla*. Adabiy tilda **a** tarzida talaffuz etiladi.

O unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*olim*), o'rtasida (*toza*) va so'z oxirida (*bobo*) keladi.

O' unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) sodda soʻzlarning asosan birinchi boʻgʻinida uchraydi: *oʻgʻil, boʻri, toʻgʻri, oʻrin, boʻyin*.
- 2) oʻzlashma soʻzlarning oxirgi boʻgʻinida ham keladi: *roʻbaroʻ, xushroʻy, gulroʻ, kubok, (kuboʻk)*.
- 3) til oldi varianti ham bor: *oʻrik, koʻl, choʻl*.

9-§. Undosh tovushlar va ularning tasnifi

Undosh tovushlar tizimi tilda **konsonantizm** deb yuritiladi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush mavjud: *b, v, g, d, j* (jurnal soʻzidagi birinchi tovush), *j* (*joy, jiyda* kabi soʻzlardagi birinchi tovush), *z, y, k, l, m, n, ng* (*tong* soʻzidagi oxirgi tovush), *p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, gʻ, h*. Sirgʻaluvchi *j, f* tojik va boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarda keladi: *foyda, oʻftob, fabrika, tafakkur, jurnal, ajdar*. Undoshlar ham uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Hosil boʻlish oʻrniga koʻra undosh tovushlar uch asosiy guruhga boʻlinadi:

1) lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida hosil boʻluvchi tovushlar boʻlib, ularga *b, p, m, v, f* undoshlari kiradi.

Lab undoshlarining baʼzilari ikki lab orasida paydo boʻladi: baʼzilari esa (masalan, *avtobus, avtor, vagon, virus, passiv* kabi soʻzlardagi *v*; *telefon, kefir, fabrika, fakt, fazo, farmon, fason* kabi soʻzlardagi *f*) pastki lab bilan ustki tishlar orasida hosil boʻladi. Shunga koʻra lab undoshlarini ikki turga boʻlish mumkin:

a) lab-lab undoshlari: *b, m, p*;

b) lab-tish undoshi: *v, f*.

2) til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil qilinuvchi tovushlar boʻlib, ularga quyidagi undoshlar kiradi: *g, d, j* (*gijda* soʻzidagi kabi), *j* (*jiyda* soʻzidagi kabi), *z, y, k, l, n, ng* (*ong*), *r, s, t, x, ch, sh, q, gʻ* (jami 18 ta).

Undoshlar tilning qaysi qismida hosil boʻlishiga koʻra ham bir-biridan farq qiladi: *t, d, n* kabi tovushlar tilning old qismi bilan tish va milk orasida; *k, g* kabi undoshlar tilning orqa qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; *y* undoshi tilning oʻrta qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; *q, gʻ* tovushlari esa til ildizi bilan yumshoq tanglayning orqa qismi orasida (boʻgʻizga yaqin joydi) hosil boʻladi. Shunga koʻra, til undoshlari oʻz navbatida 4 guruhga boʻlinadi.

a) til oldi undoshlari: *d, j* (*jurnal*), *j* (*jahon*), *z, l, n, r, s, t, ch, sh* (jami 11 ta);

b) til oʻrta undoshi: *y*;

d) til orqa undoshlari: *k, g, ng* (*jang*);

e) chuqur til orqa undoshlari: *q, gʻ, x*.

3) boʻgʻiz undoshi. Boʻgʻiz undoshi faqat bitta *h* tovushidan iborat boʻlib, u boʻgʻiz boʻshligʻida un paychalari orasidagi tor oraliqda hosil boʻladi (jadvalga qarang).

E s l a t m a : Shuni aytish kerakki, *v* tovushining lab-lab varianti ham mavjud: *ov, qovun, bevosita, birov*. Shuningdek *f* tovushining ham lab-lab varianti bor: *vafu, puf, tufurmoq, juft*. Tilshunos H.A.Jamolxonov “lab-tish *v* ni lab-lab *v* ning fakultativ varianti deb qarash toʻgʻriroq boʻladi” degan fikrni bildirgan.³

2. Hosil boʻlish usuliga koʻra undosh tovushlar uch turga boʻlinadi:

1) portlovchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq aʼzosining oʻzaro jipslashuvi va oʻpkadan chiqayotgan havo oqimining ana shu nutq aʼzolariga maʼlum zarb bilan urilib, portlab oʻtishidan hosil boʻladigan tovushlar boʻlib, ularga: *b, g, d, j* (*joʻja* soʻzidagi), *k, p, t, ch, q* undoshlari kiradi. Portlovchi tovushlardan *b, p* undoshlarini hosil qilishda havo oqimi ikki lab orasidagi toʻsiqdan, *d, j* (*jajji* soʻzidagi), *t, ch* undoshlarini hosil qilishda tilning old qismi bilan tishlar va milk orasidagi toʻsiqdan, *k, g* undoshlarini hosil qilishda esa tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi orasidagi toʻsiqdan portlab oʻtadi. Bu undoshlardan *ch, j* (*jadval* soʻzidagi) oʻziga xos murakkab artikulyatsiyasi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masalan, *ch* undoshining hosil boʻlishida tilning old qismi milkka taqaladi, lekin odatdagi portlash yuz bermay, ogʻiz boʻshligʻiga kelgan havo, asosan,

³ 1. Jamolxonov H.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. - T.: “Talqin” nashriyoti. 2005, 59-bet.

sirg'alib chiqadi. Natijada, to'la bo'lmagan portlash ($t + sh = ch$ kabi) qorishiq (**affrikativ portlovchi** ham deyiladi) portlovchini vujudga keltiradi. Qorishiq **j** tovushi esa portlovchi **d** va sirg'aluvchi **j** tovushlari oralig'idagi tovushdir, shuning uchun *Juma*, *Jahongir* so'zlari rus tilida *Djuma*, *Djaxongir* shaklida yoziladi va shunday talaffuz qilinadi. Shu jihatdan portlovchilar ikki turga ajratiladi.

a) sof portlovchilar: **b, g, d, k, p, t, q;**

b) qorishiq portlovchilar: **ch, j** (*jahon*)

2) sirg'aluvchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq a'zosining o'zaro yaqinlashishi va havo oqimining ana shu nutq a'zolari orasidan sirg'alib chiqishi bilan hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga **v, j** (*jurnal, vijdon*), **z, y, s, f, x, sh, g', h** undoshlari kiradi.

Havo oqimining ikki lab o'rtasidagi yoki pastki lab bilan yuqori tishlar orasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi **j** (*jirafa*), **z, s, sh** undoshlarini; til o'rta qismi bilan qattiq tanglayning o'rta qismi orasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi **y** undoshini; tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi o'rtasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi **g', x** undoshlarini; bo'g'izdagi un paychalari orasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi esa **h** undoshini vujudga keltiradi.

3) portlovchi-sirg'aluvchi undoshlar (jami 5 ta) bir vaqtning o'zida ham portlash, ham sirg'alish jarayonlarining ro'y berishi natijasida hosil bo'ladi. Ularga **m, n, ng, l, r** undoshlari kiradi. Bunday undoshlar hosil bo'lish usuliga ko'ra boshqa undoshlar (portlovchilar, sirg'aluvchilar)dangina emas, o'zaro ham farq qiladi va uch guruhga bo'linadi:

a) burun tovushlari: m, n, ng. Bulardan **m** undoshining hosil bo'lishida o'pkadan kelayotgan havo oqimining bir qismi og'iz bo'shlig'idan lablarning to'sqinligiga uchrab, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'idan sirg'alib chiqadi, **n** undoshining hosil bo'lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib, yarim portlash ro'y beradi, burun yo'li ochiq bo'lgani uchun, havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'i orqali sirg'alib chiqadi. Tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, havo oqimining qisman portlashi va havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali sirg'alib chiqishi **ng** tovushini vujudga keltiradi.

b) yon tovush l undoshini hosil qilishda til uchi yuqoriga tomon bukilib, milkka tegadi, ammo havo oqimining tilning ikki yonidan sirg'alib o'tishi uning og'iz bo'shlig'idan qisman portlab, qisman sirg'alib chiqishiga sabab bo'ladi.

d) titroq tovush r undoshini hosil qilishda o'pkadan chiqayotgan havo to'liqini tilning uchiga zarb bilan kuchli uriladi va uni titratadi, tilning titrab turishi esa havo oqimining og'iz bo'shlig'idan portlab-sirg'alib chiqishiga olib keladi.

Demak, portlovchi-sirg'aluvchi undoshlarning hosil bo'lishida ham portlovchilarga xos bo'lgan ikki a'zoning jipslashuvi, ham sirg'aluvchilarga xos bo'lgan ikki nutq a'zosi orasidagi tor oraliqdan (yoki burun bo'shlig'idan) sirg'alib o'tishi sodir bo'ladi.

3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undosh tovushlar dastlab ikki turga bo'linadi:

1) shovqinli undoshlar (jami 19 ta) tarkibida shovqinning miqdori ovozga nisbatan ko'p yoki ovoz mutlaqo qatnashmagan tovushlar bo'lib, bu guruhga **b, v, g, d, j** (*ajdar*), **j** (*jiyan*), **z, y, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h** undoshlari kiradi. Shuning uchun ham shovqinli undoshlar un paychalarining ishtirokiga, tarkibida ovoznining ishtirok etish-etmasligiga ko'ra, ikkiga bo'linadi:

a) jarangli undoshlarni (jami 9 ta) talaffuz qilish paytida un paychalari titraydi, shuning uchun uning tarkibida ovoz qatnashadi, lekin ovoz miqdori shovqinga nisbatan ozroqdir. Jaranglilar shu bilan sonorlardan farq qiladi: **v, b, g, d, j** (*garaj*), **j** (*jo'xori*), **z, y, g'.**

b) jarangsiz undoshlar (jami 10 ta) talaffuzida un paychalari qatnashmaydi, bu undoshlar faqat shovqinning o'zidan iborat bo'lgan, tarkibida ovoz mutlaqo ishtirok etmaydigan tovushlardir: **k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h.** Ba'zi jarangli va jarangsiz undosh tovushlar hosil bo'lish o'rni jihatdan juftlik (8 ta) hosil qiladi: **b - p, v - f, g - k, d - t, j(qorishiq) - ch, j(sirg'aluvchi) - sh, z - s, g' - x.**

2) sonor (yoki shovqin ishtirok etgan ovozdor) undoshlar (jami 5 ta) tarkibida ovoznining miqdori shovqinga nisbatan ortiq bo'lib, ularga **m, n, ng, l, r** undoshlari kiradi. Bunday ovozdor undoshlarning hosil bo'lishida un (ovoz) paychalari faol ishtirok etadi - bu tovushlar un paychalarining titrashidan hosil bo'ladi, shuning uchun ham ular unli tovushlarga birmuncha yaqin

turadi. Ammo bu undoshlar o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrab, qisman shovqin hosil qilishi natijasida hosil bo'ladi.

Undosh tovushlarning tasnifini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra		Hosil bo'lish usuliga ko'ra		Hosil bo'lish o'rniga ko'ra							
				Lab undoshlari		Til undoshlari				Bo'g'iz undoshi	
				lab-lab	lab-tish	til oldi	til o'rta	til orqa	chuqur til orqa		
Shovqinlilar	Jarangli	Portlovchilar	Sof portlovchilar	b		d		g			
	jarangsiz			p		t		k	q		
	Jarangli		Qorishiq portlovchilar			j					
	jarangsiz					ch					
	Jarangli		Sirg'aluvchilar		v	v ¹	j ¹ , z	y		g'	
	jarangsiz				f	f ¹	s, sh			x	h
Ovozdor (sonor)lar	jarangli	Portlovchi-Sirg'aluvchi-lar	Burun tovushlari	m		n		ng			
			Yon tovush			l					
			Titroq tovush			r					

10-§. Undosh tovushlar tavsifi

B tovushi - lab-lab, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*bahor*), o'rtasida (*abadiy*) va oxirida (*kitob*) uchraydi. Bu tovush so'z oxirida kelganda jarangsizlashadi va **p** tovushi bilan almashadi: *maktab – maktap, odob- odop*. Bu tovush ko'pincha ikki unli orasida kelganda yoki ikki fe'l birikib talaffuz qilinganda, **v** tovushi kabi aytiladi va ba'zan shunday yoziladi: *kabob – kavob, qobirg'a - qovurg'a, sabil – savil, qurbaqa – qurvaqa, ko'ra ber – ko'raver* kabi.

So'z boshida kelgan **b** tovushi ayrim shevalarda talaffuz paytida **m** tovushiga o'tadi: *murch > burch* (garmdori – Xorazm shevasida). Tarixan **b** va **m** tovushlarining almashinuvi turkiy tillarda kuzatiladi: *ben – men, bunga – munga* va h.

V tovushi – lab-lab va lab-tish, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshida (*vazifa, vafo*), o'rtasida (*sovun, lavlagi, taqvim*) va oxirida (*o'tov, birov*) kela oladi. Sof o'zbekcha so'zlarda bu tovush so'z boshida deyarli qo'llanmaydi.

M tovushi - lab-lab, portlovchi-sirg'aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*mehr, mo'ylov, mulk*), o'rtasida (*omon, umr*) va oxirida (*tom, bodom, qadam*) kela oladi.

P tovushi – lab-lab, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*pilla, po'choq, parda*), o'rtasida (*opa, qipiq, to'piq*) va oxirida (*cho'p, top, sop*) kela oladi. Ko'p bo'g'inli so'zlarning oxirida bu tovush deyarli uchramaydi.

F tovushi - lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, faqat o'zbek tiliga arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlarning boshida (*faqir, oftob, fabrika*), o'rtasida (*qofiya, iffat, kofe*) va oxirida (*sarf, urf*) kela oladi. Ba'zi so'zlarda talaffuzda **p** tovushi bilan almashadi: *foyda > poyda, Farida > Parida*. Bunday o'zgarishlar hozirgi orfografiyada aks ettirilmaydi.

11-§. Til undoshlari

T tovushi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*to'ti, tuxum*), o'rtasi (*katta, vatan*) va oxirida (*savat, qavat, harakat*) kela oladi. O'zbek milliy tilining

o'g'uz lahjasiga mansub shevalarda *t* ba'zan *d* ga o'tadi: *tuz* > *duz*, *o't* > *o'd* kabi. Bu o'tishlar adabiy orfografiyada ifodalanmaydi.

Arab, rus yoki fors-tojik tillaridan o'zlashtirigan so'zlardagi qo'sh undoshlar tarkibidagi *t* tovushi talaffuzda ko'pincha tushib qoladi: *g'isht* > *g'ish*, *pastqam* > *pasqam*, *taksist* > *taksis* kabi. Bu o'zgarish yozma nutqda aks etmaydi.

D tovushi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (devor, do'kon, dala), o'rtasida (shabada, sodda, to'da) va oxirida (qasd, hudud, gard) kela oladi. So'z oxirida kelgan *d* tovushi talaffuzda hamma vaqt jarangsizlashadi va *t* tovushiga o'tadi: *Asad*>*Asat*, *Samarqand*>*Samarqant*, *Xo'jand*>*Xo'jant* kabi. Bu tovush ham o'zlashma so'zlar tarkibidagi qo'sh undoshlar ichida kelganda tushib qolishi mumkin: *farzand*>*farzan*, *baland*>*balan*.

N tovushi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (nom, nima, nusxa), o'rtasida (aniq, tiniq) va oxirida (un, to'n, son) kela oladi. Bu tovush ayrim so'zlar tarkibida *b* yoki *m* tovushlaridan oldin kelganda, shu tovushlar ta'sirida talaffuzda (yozuvda aslicha yoziladi) *m* tovushiga o'tadi: *manba*>*mamba*, *tanbal*>*tambal*, *ko'nmadi* >*ko'mmadi* kabi.

S tovushi til oldi, sirg'aluvchi, shoqinli, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*soat*, *semiz*, *sabr*), o'rtasida (*asar*, *mustaqil*, *osma*) va oxirida (*tus*, *mos*, *tovus*) kela oladi. Bu tovush o'zbek tilidagi eng faol qo'llanadigan tovushlardan biridir.

Z tovushi til oldi, sirg'aluvchi, shovqinli, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*zahar*, *zahn*, *zina*), o'rtasida (*Aziza*, *andoza*, *qiziq*) va so'z oxirida (*tig'iz*, *qarz*, *yulduz*) kela oladi; bu tovush sof o'zbekcha so'zlarda so'z boshida deyarli qo'llanmaydi. Ayrim so'zlar tarkibida yonidagi jarangsiz tovushlar ta'sirida ko'pincha *s* tovushiga o'tadi: *rizq* > *risq*, *tuzsiz*>*tussis*. Bu tovush ba'zi so'zlarda *y* tovushiga mos kelishi mumkin: *sizlamoq*>*siylamoq*, *so'zlamoq* > *so'ylamoq*, *yozmog* > *yoymog*, kabi.

Sh tovushi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*shar*, *shahar*, *sholi*), o'rtasida (*hashar*, *o'sha*) va oxirida (*qish*, *yosh*, *tashvish*) keladi. Bu tovush so'zlarning turli o'rinlarida ko'p qo'llanadi.

J (dj) til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushi arab, fors-tojik va rus tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarning boshida (*janr*), o'rtasida (*vijdon*, *sajda*, *furajka*) oxirida (*garaj*) uchraydi.

J til oldi, qorishiq portlovchi, jarangli undosh tovushi so'zning boshida (*jamalak*, *jabr*, *jilov*), o'rtasida (*kajava*, *ojiz*, *o'jar*) va oxirida (*xorij*, *xiroj*, *saj*) keladi. Bu tovush o'zbekcha so'zlar oxirida deyarli qo'llanmaydi. O'zlashma so'zlar oxirida qo'sh undoshlar tarkibida kelgan **ꞥ** tovushi **ch** tovushiga o'xshab talaffuz qilinadi: *mavj*>*mavch*, *avj*>*avch*.

Ch tovushi til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*chaqa*, *chigit*, *chuqur*), o'rtasida (*achchiq*, *ochiq*, *ko'cha*) va oxirida (*och*, *uch*, *kech*) keladi. Ayrim so'zlarda o'zidan keyingi jarangsiz undoshlar ta'sirida talaffuzda **sh** tovushiga o'tadi: *kechdi*>*keshti*, *qochdi*>*qoshti*, *sochdi*>*soshti*.

L tovushi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, jarangli (sonor) undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*lagan*, *latifa*, *lof*), o'rtasida (*olis*, *uloq*, *belgi*) va oxirida (*kasal*, *kel*, *yo'l*) keladi. Bu tovush so'z o'rtasida kelganda so'zlashuv nutqida ko'pincha tushib qoladi: *olsa*>*osa*, *kelsa*>*kesa*, *bo'lsa*>*bo'sa*, *kelgan*>*kegan*.

R tovushi til oldi, portlovchi-sirg'aluvchi, titroq, sonor, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*randa*, *rang*, *ruh*), o'rtasida (*arra*, *mo'ri*, *baraka*) va oxirida (*bozor*, *hozir*, *huzur*) keladi. Bu tovush sof o'zbekcha (turkiycha) so'zlar boshida qo'llanmaydi.

Y tovushi til o'rta, sirg'aluvchi va jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*yigit*, *yo'l*, *yil*), o'rtasida (*sayr*, *qayir*) va oxirida (*to'y*, *uy*, *oy*) keladi.

K tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*katta*, *kim*, *ko'p*), o'rtasida (*ikki*, *aka*, *uka*) va oxirida (*tilak*, *yuk*, *to'k*) keladi. Bu tovush bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda, **k** tovushi **g** tovushiga o'tadi va bu holat yozuvda ham aks etadi: *malak*>*malagi*, *ko'ylak*>*ko'ylagim*.

G tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*gulxan, gilam, go‘zal*), o‘rtasida (*tugun, agar, egri*) va oxirida (*barg, biolog, pedagog*) keladi. Bu tovush sof o‘zbekcha so‘zlar oxirida deyarli qo‘llanmaydi. **G** tovushi bilan boshlanadigan qo‘shimchalar **k** tovushi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda **k** tovushiga aylanadi: *ko‘k+ga > ko‘kka, boq+gan > boqqan*. O‘zlashma so‘zlarda bunday o‘zgarish bo‘lmaydi: *geologga, biologga*.

Ng tovushi til orqa, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, jarangli, sonor undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida mutlaqo uchramaydi. So‘z o‘rtasida (*yangi, bangi*) va oxirida (*bodring, ong*) keladi.

Q tovushi chuqur til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*qadr, qovoq, qo‘l*), o‘rtasida (*oqil, baqir, chuqur*) va oxirida (*o‘roq, yo‘q*) keladi. Bu tovush ayrim ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar oxirida kelganida unli bilan boshlangan qo‘shimchalar qo‘shilsa, **g‘** tovushiga almashadi: *quloq+im>qulog‘im, to‘yoq+i >tuyog‘i*. *To‘qson, maqtov, maqsad* kabi so‘zlarda esa **x** tovushiga o‘xshab talaffuz qilinadi.

G‘ tovushi chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*g‘azab, g‘ildirak, g‘o‘za*), o‘rtasida (*dag‘al, og‘ir, o‘g‘ri*) va oxirida (*tog‘, bug‘, tig‘*) keladi.

X tovushi chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*xabar, xurjun, xol*), o‘rtasida (*paxta, axir*) va oxirida (*six, mix*) qo‘llanadi.

H tovushi bo‘g‘izda hosil qilinadigan, sirg‘aluvchi, jarangsiz tovush bo‘lib, so‘z boshida (*halol, hikoya, hukumat*), o‘rtasida (*sayohat, ohu*) va oxirida (*sayyoh, eh*) qo‘llanadi. Bu tovush asosan arab, fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi.

12-§. Qo‘sh tovushlar va ularning qo‘llanilishi

Ma‘lumki, unli tovushlar so‘zlarni shakllantirishda yakka holda, qo‘sh holatda va ketma-ket holda qo‘llanadi. Unlilarning yakka holatda kelishi o‘zbek tili tabiatiga xos bo‘lib, turli tipdagi ikki unli ketma-ket bir o‘rinda kelishi yoki bir xil unlining bir o‘rinda qo‘sh holda qo‘llanishi (*poema, doim, sanoat, taajjub, matbaa*) turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida boshqa tillarning ta‘siri, xalqlarning o‘zaro aloqasi tufayli paydo bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *ao, oa, oi, ia, io* kabi turli unlilarning ketma-ket bir o‘rinda kelish hollari mavjud: *jamoat, faol, doira, ...*

Bir xil unlilarning *aa, uu, ii, oo* kabi qo‘sh kelish hollari uchraydi: *taalluqli, shuur, badiiy, inshoot*. Deyarli barcha undoshlar qo‘sh holatda (*g, x, h, g‘* undoshlari bundan mustasno) qo‘llanadi: *qubba, avval, sodda, mijja, lazzat, tayyor, ikki, alla, omma, anneksiya, oppoq, burro, issiq, o‘ttiz, iffat, achchiq, ishshaymoq, to‘qqiz*. Bu undoshlar talaffuzda ham qo‘sh tarzda aytiladi. Bu hodisa aloqalarning kengayishi tufayli yangi so‘zlar hisobiga boyimoqda: *musson, Anna, Emma, milliard, affiks*. Qo‘sh unlilar so‘zning o‘rtasida (*manfaat*), so‘z oxirida (*mutolaa*), qo‘sh undoshlar esa so‘z boshida (*ssenariy*), o‘rtasida (*qattiq*) va oxirida (*kongress*) qo‘llanadi.

Turkiy tilga turli tipdagi undoshlarning so‘z oxirida ketma-ket (qator) kelishi qo‘sh undoshlarga nisbatan ancha ilgari o‘zlashdi: *daraxt, g‘isht, payvand, Samarqand, baxt, xursand* kabi.

O‘zbek tilida oldin so‘z boshida undoshlarning ketma-ket kelish hollari yo‘q edi, rus tili va boshqa tillarning ta‘sirida adabiy tilimizda bu holat ham paydo bo‘ldi: *brom, drezina, ftor, grek, krem, stol, traktor, xrom, shkaf* kabi.

13-§. Nutqning asosiy fonetik birliklari

Inson nutqi uzluksiz va to‘xtovsiz davom etadigan tovushlar oqimidan iborat emas. U turlicha hajmdagi intonatsion birliklarni o‘z ichiga oladi. Frazalar, takt, fonetik so‘z, bo‘g‘in, tovush ana shunday fonetik birliklardir.

1. Frazalar nutq oqimida kattaroq pauza bilan ajratib aytiladigan nutq birligidir. U ohang va fikriy tugallikka ega bo‘lganligi uchun ko‘pincha gapga teng keladi. Masalan: *Dunyoda boladan aziz narsa yo‘q // Bo‘lmaydi // Bolalar – kelajagimiz // (O‘. Hakimali)*. Bu nutqiy parchada uchta fraza bor. Frazalar hajm jihatidan har xil bo‘lib, ular bir, ikki, uch va undan ortiq so‘zdan tashkil topishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi birinchi fraza beshta, ikkinchisi bitta, uchinchisi ikkita so‘zdan tashkil topgan. Yana qiyoslang: *Ularning uyi qishloqning eng chekkasida,*

hovlilari baland tog'ning shundoqqina etagida. // Bahavo. // Bog'larining ortidan shovullab soy o'tadi. (To'lqin).

2. Takt frazaning bir qismi bo'lib, qisqa pauza bilan ajratib aytiladi. Buning tarkibidagi so'z yoki so'zlar bir bosh urg'u (bir havo oqimi) bilan talaffuz qilinadi. Masalan: *Dunyoda / xushfe'l, / olijanob, / hamisha ezgu niyat bilan ish qiladigan odamlar / juda ko'p* (O.Husanov). Bu fraza tarkibida 6 ta takt bo'lib, birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi taktlar bir so'zdan, to'rtinchi takt olti, oltinchi takt esa ikki so'zdan tashkil topgan.

Fraza ba'zan bir taktga teng bo'ladi. Masalan, *Kech kuz edi. // Qo'qqisdan qorasovuq boshlanib, / cho'ponlarni tashvishga solib qo'ydi* (M.Qoriyev). Bunda birinchi fraza – *Kech kuz edi* bir taktga tengdir.

3. Fonetik so'z o'z urg'usiga ega bo'lgan so'z yoki bir urg'uga birlashadigan (bir urg'u bilan talaffuz etiladigan), ikki va undan ortiq so'zshaklidir. Takt tarkibidagi fonetik so'zlar soni undagi so'zlarning umumiy miqdori bilan emas, urg'uli so'zlar miqdori bilan belgilanadi, ya'ni takt ichida urg'uli so'z qancha bo'lsa, fonetik so'z ham shuncha bo'ladi: *Dashtda / odam aqli shoshadigan / buyuk ishlar / qilinadi* // (Y.Shamsharov). Bu fraza tarkibida to'rtta takt bo'lib, birinchi taktda bitta, ikkinchi taktda uchta, uchinchi taktda ikkita, to'rtinchi taktda esa bitta fonetik so'z qatnashgan. Bu frazadagi so'zlarning umumiy soni fonetik so'zlarning umumiy soniga teng.

Mustaqil urg'uga ega bo'lmagan yordamchi so'zlar o'zlari tobe bo'lgan mustaqil so'z bilan birga bir urg'uga ega bo'ladi va bir fonetik so'zni tashkil etadi: *Dilda saqlangan adovat temir zangiga o'xshaydi, zang temirni yegani kabi, adovat qalbni azob va iztirob bilan yemiradi* (Oz-oz o'rganib dono bo'lur). Bunda 14 ta fonetik so'z bo'lib, bularning ikkitasi (*yegani kabi, iztirob bilan*) ning tarkibida ko'makchi so'zlar qatnashgan.

Bir tushunchani ifodalaydigan qo'shma so'zlar ham, tarkibidagi so'zlarning umumiy miqdoridan qat'i nazar, bir fonetik so'z sanaladi: *Qo'pol va dag'al barmoqlar torlarni shunday chertar ediki, oddiygina qildan taralayotgan bu ohang dillarni rom qilib olgandi*. (To'lqin) Fraza tarkibidagi *rom qilib olgandi* bo'lagi bitta fonetik so'z deb qaraladi.

4. Bo'g'in o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytiladigan tovushlar yoki ayrim bir tovushdir. Unli tovush bo'g'in hosil qiluvchi tovushdir. Shuning uchun so'zda nechta unli tovush bo'lsa, bo'g'inlar soni ham shuncha bo'ladi. Masalan, *adolat* so'zida uch bo'g'in bor: *a-do-lat*. Birinchi bo'g'in bir tovushdan, ikkinchi bo'g'in ikki tovushdan, uchinchi bo'g'in uch tovushdan iborat. Demak, bo'g'inlar bir tovushli, ikki tovushli va ko'p tovushli bo'lishi mumkin. Chunonchi: *o-ta, o-na, a-ka* so'zlarining birinchi bo'g'ini bir tovushdan, ikkinchi bo'g'ini ikki tovushdan, *a-dir, o-qil, e-shit, i-dish* so'zlarining ikkinchi bo'g'ini uch tovushdan, *a-van-gard, ak-sent, e-le-ment, an-ti-fa-shist, ar-tist, ge-o-graf* so'zlarining oxirgi bo'g'ini to'rt tovushdan, *a-le-bastr, a-git-punkt* so'zlarining oxirgi bo'g'ini besh tovushdan iborat. Bo'g'inning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi: *ona: V – C*. Bunda *V* belgisi lotincha *vokalis* so'zidan olingan bo'lib, aslida **unli** (ovoz) degan ma'noni bildiradi. *C* belgisi esa inglizcha **constant** so'zidan olingan bo'lib, **undosh** degan ma'noni bildiradi. Bir tovushli bo'g'inlar unli tovushdangina iborat bo'lsa, ikki tovushli va ko'p tovushli bo'g'inlar unli va undosh tovushlardan tuziladi. Bo'g'inlar qanday tovushlar bilan boshlanishi va qanday tovushlar bilan tugashiga qarab turlarga ajratiladi. Qanday tovush bilan tugashiga ko'ra ikki xil: **1) ochiq bo'g'in** – bir tovushli yoki oxiri unli tovush bilan tugagan bo'g'in: *o-vo-za, o-i-la, ba-ho, bi-no, de-le-ga-tsi-ya, ja-zi-ra-ma, Ra-hi-ma*; **2) yopiq bo'g'in** undosh tovush bilan tugagan bo'g'in: *zarb-dor, zum-rad, id-rok*. Bo'g'inlari qanday tovush bilan boshlanishiga ko'ra ham ikki xil bo'ladi: **1) berkitilgan bo'g'in** undosh bilan boshlanadi: *ta-lab, tinch-lik*. **2) berkitilmagan bo'g'in** unli bilan boshlanadi: *o'-qish, a'-lo*.

Tarkibidagi bo'g'inlar soniga ko'ra so'zlar bir bo'g'inli (*ish, ko'k, kam, oz, besh, yuz, sen, pisht, ol, yoz*); ikki bo'g'inli (*da-la, qush-cha, yax-shi, shar-bat, qi-zil, ik-ki, ol-ti, o't-tiz, ni-ma, ham-ma, o'-qi, ish-la, bor-di, bu-gun, se-kin, bi-lan, xud-di, ...*); ko'p bo'g'inli (*qo'-g'ir-choq, a-ra-va-cha, pla-ne-ta-riy, ...*) bo'ladi.

So'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata bilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi: 1) yozuvda so'zning bir qatorga sig'may qolgan qismi ikkinchi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi; 2) barmoq vaznida yoziladigan she'r misralari bo'g'in sonining teng bo'lishiga asoslanadi; 3) birinchi

sinf o'quvchilarini savodga o'rgatish davrida ham asosiy diqqat so'zlarni bo'g'inlab o'qish va yozishga qaratiladi.

5. Tovush nutqning bo'g'in (yoki so'z) tarkibidagi eng kichik, fonetik jihatdan bo'linmaydigan birligidir: **bola** so'zi 4 ta tovushdan (*b,o,l,a*) iborat.

14-§. Urg'u

So'z bo'g'inlaridan birining yoki gap tarkibidagi so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq yoki cho'ziqroq talaffuz qilinishi **urg'u** deb ataladi.

Urg'u, odatda, bo'g'indagi unli tovushga tushadi. So'z nechta bo'g'indan tuzilganligidan qat'i nazar, unda bitta urg'u bo'ladi (gap bo'laklaridan birini ajratib ko'rsatish ham xuddi shunday xususiyatga ega). So'z tarkibidagi urg'u olgan bo'g'in **urg'uli bo'g'in**, urg'u olmagan bo'g'inlar esa **urg'usiz bo'g'in** deyiladi. Masalan: *Sizlarning matonatli mehnatlaringiz Ulug' Vatan urushi yillaridagi muqaddas g'alabamizni yaqinlashtirdi.* (*S. Karomatov*) Bu gapdagi har bir so'z o'z urg'usiga ega (chunonchi, «*sizlarning*» so'zida uchta bo'g'in bo'lib, oxirgi bo'g'in (*-ning*) urg'u olgan; «*matonatli*» so'zida to'rtta bo'g'in bo'lib, oxirgi bo'g'in (*-li*) urg'u olgan va hokazo). Bundan tashqari, shu gap tarkibidagi *sizlarning* so'zi boshqa so'zlarga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi. Demak, har xil obyektga – so'z tarkibidagi biror bo'g'inga ham, gap tarkibidagi ayrim so'zga ham urg'u tushishi mumkin. Shunga ko'ra, urg'u ikki turga ajratiladi:

1) so'z urg'usi (yoki leksik urg'u) so'z bo'g'inlaridan biriga tushadigan urg'udir. Yozuvda urg'u bo'g'indagi unli ustiga qo'yiladigan maxsus belgi (´) orqali ko'rsatiladi. Masalan: *Aslida insón tabiatning olindán hám bebahó mo'jizasi -ku! Dunyodá insondán azíz, insondán qimmatlí narsá bórmí o'zi?* (*O.Husanov*). Leksik urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: **a) bog'liq urg'u;** **b) erkin urg'u.**

O'zbek tilida so'z urg'usi asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga (masalan, *daftár, ovóz, sariq, burín* kabi) tushadi. Shuning uchun so'zlarga qo'shimchalar qo'shila borishi bilan urg'u ham so'z oxiridagi bo'g'inga ko'cha boradi. Masalan: *imzó-imzolá- imzolamóq, paxtá -paxtakór-paxtakorlár.* So'zning biror bo'g'ini (masalan, oxirgi) bilan bog'liq bo'lgan urg'u **bog'liq urg'u** deyiladi.

O'zbek tilining so'z urg'usi, asosan, bog'liq urg'u hisoblanadi. So'zning turli bo'g'inlariga tushishi mumkin bo'lgan urg'u esa **erkin urg'u** deyiladi. Bu asosan ruscha-internatsional so'zlarga xos. Masalan, *vitamín, abzás, avangárd, batón, operatív, bufét, gigánt* (oxirgi bo'g'inida), *avantyúra, aviátsiya, proféssor, akrobátika, geólog* (o'rtadagi bo'g'inida), *áriya, vánna, nóta, máksimum, váxta, sintaksis, áksiya* (birinchi bo'g'inida).

Bundan tashqari, o'zbek tilida urg'usi birinchi bo'g'inga (*bárcha, hámma, dóim, áslo, lékin* kabi, o'rtadagi bo'g'inga (*hamísha, afsúski, albátta*) tushadigan so'zlar ham bor. Demak, o'zbek tilida bog'liq urg'u bilan bir qatorda, qisman erkin urg'u ham mavjud.

Shuni ham aytish kerakki, o'zbek tilida urg'u olmaydigan elementlar ham bor. Masalan: *-ku, -u, -yu, -da, -mi, -chi, -dir, gina, -oq(-yoq)* yuklamalari; o'xshatish ma'nosini ifodalaydigan *-day (-dek); -cha* shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar; *-dir, -man, -san, -miz, -siz* kabi kesimlik qo'shimchalari; bo'lishsizlik ma'nosini ifodalovchi *-ma* qo'shimchasi shular jumlasiga kiradi. Leksik urg'u muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki u, birinchidan, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish normalarini belgilaydi; ikkinchidan, so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi: *órgan* - organizmning bir qismi, *orgán* – cholg'u asbobi; uchinchidan, so'z shakllarini ajratishga yordam beradi: *qushchá* – kichraytish oti, *qúshcha* – “qushdek” ma'nosini ifodalovchi ravish; *tarbiyachimíz* (bizning tarbiyachi) – *tarbiyachímiz* (biz – tarbiyachi).

Demak, leksik urg'u adabiy talaffuz (orfoepiya) bilan bog'liq. Chunki so'zning urg'uli bo'g'ini buzilsa, so'zni tushunish qiyinlashadi.

2) gap urg'usi (yoki mantiqiy urg'u, ma'no urg'usi) gap bo'laklaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishidir. Bu urg'u, odatda, individual xarakterga ega bo'lib, so'zlovchi o'zicha muhim sanagan so'zni mantiqiy urg'u bilan talaffuz qiladi va bu bilan tinglovchining e'tiborini shu bo'lak bilan ifodalangan ma'noga tortadi, yoki o'sha bo'lakning ma'nosini bo'rttirib, kuchaytirib ko'rsatadi. Masalan: *Ilmda ko'p narsani bilish – olimlik fazilati.*

(S.Karomatov) gapida mantiqiy urg‘u quyidagicha tus olishi mumkin: 1) *Ilmda* (boshqa narsada emas) *ko‘p narsani bilish – olimlik fazilati*. 2) *Ilmda ko‘p narsani* (oz narsani emas) *bilish – olimlik fazilati*. 3) *Ilmda ko‘p narsani bilish* (bilmaslik emas) – *olimlik fazilati*. 4) *Ilmda ko‘p narsani bilish – olimlik fazilati* (boshqalarning fazilati emas). Yozuvda mantiqiy urg‘u olgan bo‘lak kesim oldida keladi.

Urg‘u sifatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) **dinamik urg‘u** so‘z bo‘g‘inlaridan birining kuchli aytilishi: o‘zbek va rus tili urg‘usi kiradi; 2) **musiqail urg‘u** so‘z bo‘g‘inlaridan birining balandroq aytilishidir. yapon, xitoy tillari urg‘usi shunday xususiyatga ega.

Takrorlash uchun savollar:

1. Urg‘u nima? Uning qanday turlari bor?
2. Leksik urg‘u nima? Uning qanday turlari bor? Ular o‘zaro qanday farq qiladi?
3. Leksik urg‘uning qanday amaliy ahamiyati bor?
4. Mantiqiy urg‘u nima? U leksik urg‘udan qanday farq qiladi?

NUTQ TOVUSHLARINING O‘ZGARISHI

Har qanday tilda ham tovushlar yozuvda yozilganidek talaffuz qilinavermaydi. Tovushlar kompleksini (tizimini) birga talaffuz qilish natijasida ayrim tovushlar o‘zaro bir-biriga ta’sir qiladi va bu ta’sir tovush o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, *yurt* so‘ziga o‘rin-payt kelishigi affiksi *-da*, chiqish kelishigi affiksi *-dan* qo‘shilganda, so‘z oxiridagi *t* tovushi affiksdagi *d* undoshiga ta’sir qilib, uni *t* tovushiga aylantiradi: *yurt+da=yurtta*, *yurt+dan=yurttan kabi* (yozilishi: *yurtda*, *yurtdan*). *Bir* sanoq soniga dona son affiksi *-ta* qo‘shilganda, affiksdagi *t* undoshning ta’siri bilan so‘zning oxiridagi *r* tovushi *t* ga o‘tadi: *bir+ta=bitta* kabi.

So‘z tarkibidagi tovushlar nutq jarayonida bir-biriga ta’sir qilmagan holda ham o‘zgarishga uchrashi mumkin. Bunda tovushning so‘z tarkibidagi o‘rni (qanday tartibda joylashganligi); so‘zning boshida yoki oxirida, urg‘uli yo urg‘usiz bo‘g‘inda kelishi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *odob*, *javob*, *niqob*, *maktab* so‘zlari oxirida kelgan *b* jarangli undosh talaffuzda jarangsiz *p* tarzida talaffuz qilinadi; *negativ*, *normativ pozitiv*, *operativ* kabi ruscha-internatsional so‘zlarning oxirida kelgan *v* jarangli undosh jarangsiz *f* tarzida; *voleybol*, *olimpiada* kabi ruscha-internatsional so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inida kelgan *o* unlisi esa *a* tarzida talaffuz qilinadi: *valeybol*, *alimpiada*. Bunday hodisalarning sodir bo‘lishiga nutqda ixchamlikka intilish, bo‘g‘inda urg‘uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar sabab bo‘lishi mumkin.

Demak, nutq tovushlarining o‘zgarishi ikki turga bo‘linadi.

1-§. Kombinator o‘zgarishlar

So‘z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o‘zaro ta’siri natijasida ro‘y beradigan tovush o‘zgarishi (fonetik o‘zgarish) **kombinator o‘zgarish** deyiladi. Bunga **assimilyatsiya**, **dissimilyatsiya**, **metateza** kabi hodisalar kiradi.

1. **Assimilyatsiyada** tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o‘ziga aynan yoki qisman o‘xshatib oladi. Masalan, *xat-ni* – *xatti* (o‘zakdagi *t* tovushi affiks tarkibidagi *n* ni aynan o‘ziga o‘xshash tovush – *t* ga aylantiradi (yozilishi: *xatni*); *ish+ga* – *ishka* (bunda o‘zakdagi jarangsiz undosh *sh* affiks tarkibidagi jarangli undosh *g* ni o‘ziga qisman o‘xshatadi, ya’ni jarangsiz *k* ga aylantiradi (yozilishi *ishga*). Shunga ko‘ra assimilyatsiya ikki xil bo‘ladi: **a) to‘liq assimilyatsiya** so‘z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni aynan o‘zi kabi tovushga aylantirishidir: *to‘k+gan = to‘kkan*, *yet+di=yetti*, *chiq+gan = chiqqan*, *tuz+siz=tussiz*, *o‘ris+cha=o‘richcha* (yozilishi: *yetdi*, *sizni*, *chiqqan*, *tuzsiz o‘rischa*). Bunda tovushlar o‘zaro moslashadi; **2) to‘liqsiz assimilyatsiya** so‘z tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni o‘ziga qisman o‘xshatib olishidir: *o‘ch+gan=o‘chkan*, *shosh+di=shoshti*, *tush+ga=tushka* ... (bularda jarangsiz *ch*, *sh* undoshlari affiks tarkibidagi jarangli *g* ni jarangsiz *k* ga, *d* ni esa *t* ga aylantirgan; yozilishi: *o‘chgan*, *shoshdi*, *tushga*). To‘liqsiz assimilyatsiyada ba‘zan tovushlar o‘r>niga ko‘ra ham moslashadi: *shanba* > *shamba*. Bunda *b* lab tovushining ta’sirida *n* til tovushi lab-lab *m* tovushiga

aylanadi. Demak, to'liqsiz assimilyatsiyada tovushlar hosil bo'lish usuliga ko'ra qisman moslashish holatiga o'tmaydi. Bunda yonma-yon kelayotgan tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra va hosil bo'lish o'rniga ko'ra moslashadi. Oldin kelgan tovush o'zidan keyin kelgan tovushni (masalan, *o't+di=o'tti*), shuningdek, keyin kelgan tovush o'zidan oldin kelgan tovushni (*o'n bir - o'mbir*) o'ziga o'xshatishi mumkin. Shunga ko'ra assimilyatsiya yana ikki turga bo'linadi: **1) progressiv assimilyatsiyada** oldingi tovush o'zidan keyingi tovushni o'ziga o'xshatadi: *ot+da = otta* (yozilishi *otda*), *bilak+ga – bilakka* (yozilishi: *bilakka*). **2) regressiv assimilyatsiyada** keyingi tovush o'zidan oldingi tovushni o'ziga o'xshatadi: *tanbur – tambur*, *yigit+cha = yigichcha*, *non+voy = novvoy*, (yozilishi: *tanbur, yigitcha, novvoy*).

2. Dissimilyatsiyada ikkita aynan yoki qisman o'xshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda o'zgarib, noo'xshash tovushga aylanib qoladi. Masalan, *zarur – zaril* (*zarar* so'zi tarkibidagi ikkita bir xil *r* undoshining biri talaffuzda *l* ga aylangan). Yana qiyoslang: *koridor>kalidor, devor>devol, nodon>lodon, biror>biron* (yozilishi: *zarur, koridor, devor, biror* yoki *biror, nodon*).

3. Metateza so'z tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda o'rin almashuvidir. Masalan: *daryo – dayro* (bunda *r* va *y* undoshlarining o'zaro o'rin almashuvi yuz bergan); *ahvol – avhol* (hv-vh), *aylanay – aynalay* (ln-nl), *tuproq-turpoq* (pr-rp); *yog'mir-yomg'ir* (g'm- mg'); yozilishi: *daryo, ahvol, aylanay, tuproq, yomg'ir*.

2-§. Pozitsion o'zgarishlar

Tovushning so'z tarkibidagi o'rni (joylashish tarkibi) uning **pozitsiyasini** tashkil qiladi. Tovush so'zning turli o'rinlarida kela oladi. Masalan, *d* undoshi *dono, dehqon, doston* so'zlarining boshida; *abadiy, aerodrom, badiiy, bayroqdor* so'zlarining o'rtasida; *taqlid, obod* so'zlarining esa oxirida kelgan. Shu so'zlarni talaffuz qilganimizda, ularning ayrimlari (masalan, *dono, dehqon, doston, abadiy, aerodrom, badiiy, bayroqdor...*) tarkibidagi *d* undoshi hech qanday o'zgarishga uchramaydi, ammo *taqlid, obod* so'zlari tarkibidagi bu undosh jarangsiz *t* tarzida (*taqlit, obot*) aytiladi. Demak, mazkur undoshning talaffuzda o'zgarishi – jarangli tovushning jarangsizlanishi uning ma'lum bir pozitsiyada – so'z oxirida kelishi bilan bog'liq. *Kosmonavt, kosmodrom, limonad, mikrofon, orkestr* so'zlarining urg'usiz bo'g'inida kelgan *o* unlisi *a* tarzida (*kasmanavt, kasmadrom, limanad, arkestr, mikrafon* kabi) talaffuz qilinsa, *kartoshka, direktor, lektor, diktir, agressor* so'zlarining urg'usiz bo'g'inida kelgan *o* unlisi qisqa *i* tarzida (*kartishka, direktir, lektir, diktir, agressir* kabi) talaffuz qilinadi. Bu tipdagi ruscha-internatsional so'zlar tarkibidagi *o* tovushining goh *a*, goh *i* kabi aytilishi ularning urg'usiz bo'g'inda kelishi bilan bog'liqdir.

Tovushning so'zdagi o'rni, urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi bilan bog'liq holda yuz beradigan o'zgarishlar **pozitsion o'zgarishlar** deyiladi. Pozitsion o'zgarishlarning quyidagi turlari bor:

1) proteza so'z boshida bitta unlining orttirilishidir. Odatda, aksariyat sonor *r* tovushidan oldin *o*' unlisi orttiriladi: *ro'mol - o'ramol, ro'za - o'raza*. Ayrim holatda so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda *i* yoki *u* unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf, stol-ustol, stul-ustul*.

2) epenteza so'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttirilishidir: *fikr - fikir, hukm - hukum, uzr - uzur*.

3) epiteza so'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'ng *a* tovushining qo'shilish hodisasidir: *disk - diska, bank - banka, tank - tanka, kiosk - kioska* kabi.

4) prokopa so'z boshida unli yoki undosh tovushning tushib qolish hodisasidir: *yigna - igna, yog'och - og'och, yirik - iri*.

5) sinkopa hodisasiga binoan so'z o'rtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *traktor - traktir, direktor - direktir, generator - generatir* kabi.

6) apakopa so'z o'zigidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *do'st - do's, xursand - xursan* va hokazo.

7) **sinerezis** hodisasiga ko‘ra so‘z o‘rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi, ikkinchi unli fonema esa cho‘ziq talaffuz qilinadi: *maorif - mo:rif, saodat - so:dat, qiroat - qiro:t, jamoat - jamo:t*.

8) **reduksiya** so‘zning birinchi bo‘g‘inida biror unlining (odatda tor unlining) kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir, bil, til* so‘zlari bir bo‘g‘inli bo‘lganligi va urg‘u shu so‘zdagi *i* unlisiga tushganligi tufayli bu so‘zlardagi *i* unlisi normal holda talaffuz qilinadi va normal holda eshitiladi. Lekin shu so‘zlarning oxiriga ikkinchi bir bo‘g‘in qo‘shilishi bilan, urg‘u ham ikkinchi bo‘g‘inga ko‘chadi. Natijada birinchi bo‘g‘indagi *i* unlisi kuchsizlanadi va eshitar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak, tilak, biroq*. Reduksiyaning ikkinchi bo‘g‘inda kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa so‘zga uchinchi bo‘g‘in qo‘shilganda sodir bo‘ladi – ikkinchi bo‘g‘indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun - burni, bo‘yin - bo‘yni, egin - egni* singari.

9) **eliziya** unli bilan tugaydigan va unli bilan boshlanadigan ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi so‘z oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so‘zning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan* kabi; d) *Abdusalom* so‘zining *Absalom*, *Abdujabbor* so‘zining *Abjabbor*, *olib kel* so‘zining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi hodisasi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida so‘zlarning qisqargan shakllari hosil bo‘ladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqdagi tovush o‘zgarishlari nima? Nima uchun nutqda tovush o‘zgarishi ro‘y beradi?
2. Tovush o‘zgarishlarining qanday turlarini bilasiz?
3. Kombinator o‘zgarish nima? Uning qanday turlari bor?
4. Assimilyatsiya nima va uning qanday ko‘rinishlarini bilasiz?
5. Dissimilyatsiya nima?
6. Metateza haqida nimalarni bilasiz?
7. Pozitsion o‘zgarishlar deganda nimani tushunasiz?

GRAFIKA VA IMLO

2-§. Grafika haqida umumiy ma’lumot

Tilshunoslik lug‘atlarida grafika tushunchasiga ikki xil ta’rif berishadi:

“1. Grafika (*yun.* graphike - yozma). 1. Nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tizimi. 2. Tilshunoslikning alifbodagi harflar tarkibini, shaklini, harf va nutq tovushlari orasidagi munosabatni belgilash bilan shug‘ullanuvchi amaliy sohasi”⁴.

Grafika grekcha grafikos so‘zidan olingan bo‘lib, yozuv degan ma’noni bildiradi.

Grafika og‘zaki nutqni turli shakllar, belgilar, raqamlar va chiziqlar yordamida aks ettiruvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Grafik vositalarga harflar, belgilar va tinish belgilari kiradi. Harf – tovush ifoda etuvchi shakl.

15-§. Til va yozuv

Til va yozuv o‘zaro uzviy bog‘liq va aloqador hodisadir. Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning bo‘lishida muhim omillardan biridir. Tilsiz jamiyat bo‘lmaydi.

Yozuv – jamiyatning madaniy yutuqlaridan biri. U jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida hayotiy zarurat natijasi sifatida yuzaga keldi, yaratildi. Yozuv ham til kabi jamiyat a’zolarining aloqa-aralashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ko‘p hollarda yozuv tilning o‘rnini bosadi. Lekin til va yozuvning o‘ziga xos ahamiyatli tomonlari bor. Yozuv fikrni yetkazishda masofa jihatidan chegara bilmaydi. Til esa vaqt va makon jihatdan chegaralangan. U yaqin masofada turgan suhbatdoshiga eshitiladi.

⁴ A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 33-bet.

Yozuv madaniy, ma'rifiy va adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga meros sifatida qoldirish imkoniyatiga ega. Og'zaki nutq esa aytilayotgan paytdagina qabul qilinadi. Biroq yozuv maxsus yozuv qurollari, sharoit, vaqt va shartli belgi shakllarni talab etadi. U tilni barcha nozikliklari bilan aks ettira olmaydi. Shunga qaramay, jamiyatda yozuvning o'z o'rnini bor; yozuv masofa bilan ajralgan odamlar orasida aloqa munosabatini ta'minlashda, barcha uchun tushunarli bo'lgan adabiy tilning yuzaga kelishida, madaniy-adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega.

Tarixchilarning aniqlashicha, yozuv dastlab Messopotamiya degan joyda paydo bo'lgan va bu yozuv tarixga **mixxat** nomi bilan kirgan. Bu xat eramizdan oldingi V–IV asrlarda O'rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida ishlatilgan. Hozirgi eramizdan boshlab taxminan VI asrgacha **so'g'd** yozuvi ishlatilgan. V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar **runik** yozuvidan foydalanishgan. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari dastlab Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida va Mo'g'ulistonning O'rxun vodiysida topilgan. Shunga nisbatan qadimgi turkiy yozuv O'rxun-Enasoy obidalarining yozuvi deb ham yuritiladi. 1893-yili daniyalik olim N. Tomsen va rus olimi V. V. Radlov qadimgi turkiy yozuvni o'qishga muvaffaq bo'ldilar. O'rxun-enasoy yozuvlari Rim yozuvlariga o'xshab ketganligi uchun **run (runik)** yozuvlari yoki **dulbarchin** deb ham yuritiladi.

O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi mahalliy xalqi sak va massaget urug'lari bo'lib, ularning ham o'z yozuvlari mavjud edi. Ana shu yozuvdan qadimiy **xorazmiy** va **so'g'd** yozuvlari yaratilgan. **Xorazmiy** yozuvi ham o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan qo'llanilgan yozuv bo'lib, bu yozuv II asrning oxiri III asrning boshlarida xorazmshoh chiqargan pullarda uchraydi.

1970-yillargacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida shakllangan degan fikr yetakchi edi. Keyingi topilmalar turkiy yozuvning ildizlarini ikki yarim ming yillik o'tmishdan izlamoq kerak, degan xulosani chiqarishga asos bo'ldi. 1988-

yilda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo'mbitepa yodgorligidan ko'za topildi. Uning bandi sirtiga qadimiy turkiy bitik o'yib tushirilgan ekan. Bu bitik VII-VIII asrlarga oid turkiy obidalardan yosh jihatidan qariyb I-II asrcha qadimiyroqdir.

VI-VII asrlardan to XV asrlargacha turkiylar va mo'g'ullar uyg'ur yozuvidan foydalanishgan. Bu yozuvda bitilgan yodgorliklarning eng qadimgisi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Vena kutubxonasiidagi nusxasidir. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni"), Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Lutfiy va boshqa shoirlarning ayrim she'rlari **uyg'ur** yozuvida yozilgan. Uyg'ur yozuvi X-XV asrlarda mavjud bo'lib, arab yozuvi bilan ma'lum davrgacha baravar ishlatilgan.

720-yildan boshlab **arab** yozuvi tarqala boshlagan. Arab yozuvida bitilgan eng qadimgi turkiy yodgorliklar XI asrga taalluqlidir. Bular Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan va Qohira nusxalaridir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu-lug'otit-turk" nomli asari ham arab yozuvida yozilgan. Xalqlarimiz taxminan 1200 yildan ko'proq vaqt davomida arab alifbosidan foydalangan. 1929-yildan **lotin** alifbosi asosidagi yangi yozuvga o'tilgan edi. 1940-yildan boshlab esa **rus (kirill)** grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga o'tildi.

Bizning davrimizda jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan foydalanadilar. Shu yozuvlardan juda keng tarqalgani **lotin** yozuvi bo'lib, jahon xalqlarining 30 foizidan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar. 1993 yil 2-3 sentyabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengash yig'ilishida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydagi Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga ayrim o'zgarishlar kiritildi va bu yozuvga to'liq o'tish muddati 2005-yil sentabr oyi deb belgilandi. 2004-yilda chiqarilgan qonunga ko'ra esa lotin yozuviga to'liq o'tish muddati 2010-yil sentabriga qadar cho'zildi⁵. Isloh qilingan yangi o'zbek alifbosida 29 ta harf bor. Shulardan 3 tasi harfiy birikma: sh, ch, ng:

⁵ "Qalqon" jurnali, 2004-yil, 7-son.

Aa(1) Bb(2) Dd(3) Ee(4) Ff(5) Gg(6) Hh(7) Ii(8) Jj(9) Kk(10) Ll(11) Mm(12) Nn(13) Oo(14) Pp(15) Qq(16) Rr(17) Ss(18) Tt(19) Uu(20) Vv(21) Xx(22) Yy(23) Zz(24) O'o' (25) G'g' (26) Sh sh(27) Ch ch(28) Ng ng(29).

Muayyan tartibda joylashtirilgan shakllar yig'indisi **alfavit** deyiladi.

16-§. Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi

Kirill yozuviga asoslangan alfavitda 35 ta shakl bo'lib, bu shakllardan 33 tasi harf, 2 tasi belgidir. Har bir harfning bosh va kichik shakli (Aa), bosma va yozma shakllari bor. Har bir harf o'z nomiga ega. Harf nomini bilish va uni to'g'ri talaffuz qilish muhim amaliy orfoepik ahamiyat kasb etadi, chunki tildagi qisqartma so'zlarni to'g'ri o'qish uchun harf nomlarini bilish zarur. Masalan:

BMT – be – em – te.

Kirill grafikasi asosidagi alifbo quyidagicha tartiblashtirilgan:

Аа, Бб, Вв, Гг, Дд, Ее, Ёё, Жж, Зз, Ии, Йй, Кк, Лл, Мм, Нн, Оо, Пп, Рр, Сс, Тт, Уу, Фф, Хх, Цц, Чч, Шш, Ъъ, Ьь, Ээ, Юю, Яя, Ўў, Ққ, Ғғ, Ҳҳ.

Bu alifboda 10 ta unli harf (*a, o, u, y, ё, э, е, ё, ю, я*) bo'lib, ular 6 ta unli tovushni ifodalaydi. Bularidan to'rttasi (*e, ё, ю, я*) yolashgan (grafema) tovushlar bo'lib, ularning 2 holati farqlanadi:

1. Ba'zi so'zlarda undoshdan keyin kelib, u bilan birga bitta bo'g'inni hosil qiladigan va bir tovushni (*a, u, e, o*) ifoda etadigan holati: *ter-ter, syujet-sujet, sentyabr-sentabr, rejissyor-rejissor* kabi.

2. So'z boshida va bo'g'in boshida kelib, ikki tovushni (*yэ, yu, ya, yo*) ifoda etadigan holati: *yostiq - yostiқ, yurak - yurak, quyosh - quyosh, yanvar - yanvar* va hokazo.

Yuqoridagi alfavitga o'zbek tilining tovushlari tabiatidan kelib chiqib, 4 ta harf (*й, қ, з, ҳ*) qo'shilgan. Kirill yozuvida 2 ta belgi (*ь, ъ*) bo'lib, ular tovush bildirmaydi. Ayirish belgisi (*'*) unlidan keyin kelganda o'sha unlining cho'ziq aytilishi (*ma'no, e'lon* kabi), undoshdan keyin kelganda bo'g'inlarni ajratib aytilishini (*sur'at, jur'at* kabi); yumshatish (*ь*) belgisi esa ruscha-internatsional so'zlarda o'zidan oldingi undoshning yumshoq aytilishi uchun (*альбом, циркуль*) xizmat qiladi.

Alfavitdagi *j* harfi 2 tovushni, portlovchi *j* (*jayron*) va sirg'aluvchi *j* (*jurnal*) tovushini ifodalaydi. Alfavitdagi *n* va *g* harflari alohida *n* va *g* tovushlarini yozuvda ifodalash bilan birga, birikma shaklida sayoz til orqa burun tovushini (*ng*) ifodalash uchun ham xizmat qiladi (*tong, bodring* kabi).

16-§. Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar

1996-yildan boshlab lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi joriy etildi. Bu alifboda 29 ta shakl bo'lib, ular 30 ta tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek yozuvidagi undosh harflar bir tovushni ifoda etadi. (*Jj* harfi bundan mustasno). Ikkita tovushni ifodalash uchun *Jj* ishlatiladi: 1) qorishiq, portlovchi *j* (*d+j*) tovushini (*jo'ja, jayron, avj* kabi) va 2) sirg'aluvchi *j* tovushini (*jurnal, jirafa*) bildiradi.

Mazkur yozuvda uchta harf birikmasi mavjud: *ng, sh, ch*. Ular so'z tarkibida ajratilmaydi va bo'linmas bir tovushni ifoda etadi: *ng* sayoz til orqa, portlovchi-sirg'aluvchi, sonor undosh tovushini (*tong, ohang, chang. manglay*), *ch* til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovushni (*charos, tinch, sinch, choynak*), *sh* til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undoshni (*shabada, shar, shahar, toshqin, bosh*) ifodalaydi.

Tovushlar ikki turga bo'linadi: 1) unli tovushlar, 2) undosh tovushlar. Ular unli va undosh harflar bilan belgilanadi. Hozirgi o'zbek alifbosida 6 unli tovush va 6 ta unli harf bor (*a, o, u, i, o', e*). 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilab ko'rsatiladi (*b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, r, s, t, v, x, y, z, sh, ch, ng*). Har bir harfning bosh va kichik, bosma va yozma shakllari bor.

Harflarning alfavit tartibini bilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki turli lug'atlar, davlat idora organlarida, arxivlarda saqlanadigan hujjatlar, ro'yxatlar alfavit tartibida tuziladi.

Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilar: (.) (,) (?) (!) (:) (;) (...) («») (-) (') ham qo'llanadi. Urg'u (') belgisi so'z bo'g'inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilish uchun unli harf ustiga qo'yiladi. Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilarning ham roli katta. Tinish belgilari yordamida fikr yozuvda aniq, ravshan va tushunarli qilib beriladi. Og'zaki nutqning fikrini to'liq ifodalash uchun xizmat qiladigan ohang va pauzalari yozuvda tinish belgilari orqali ifoda etiladi.

Tutuq belgisi (') ham grafik vositalardan biri sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) so'zda unli tovushdan keyin kelib, uning cho'ziq aytilishini (*a'lo, e'tibor, iste'mol*); 2) so'zda undoshdan keyin kelib, oldingi bo'g'in bilan keyingi bo'g'inning ajratib aytilishini bildiradi; 3) so'z ma'nolarini farqlab beradi (*ta'na – malomat, tana – organism*); 4) s va h tovushlarini sh tovushidan farqlaydi: *Is'hoq*.

19-§. Orfografiya (imlo)

Orfografiya grekcha **orphos** (to'g'ri) va **grapho** (yozaman) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «to'g'ri yozaman» degan ma'noni bildiradi.

Jamiyatning har bir a'zosidan to'g'ri so'zlay olish va savodli yoza bilish talab etiladi. O'quv muassasalari oldida turgan asosiy vazifa ham shu talab asosida kelib chiqadi. Adabiy tilning ikki shakli bo'lib, ulardan biri yozma nutqdir. Bu nutq orfografiya qonun-qoidalariga asoslanadi. Demak, **orfografiya** adabiy tilning yozma shakliga xos bo'lib, u tildagi o'zak-negiz va qo'shimchalarni yagona tarzda to'g'ri yozish haqidagi qoidalar yig'indisidir. Kirill grafikasi asosidagi imlo qoidalari 1956-yilda tasdiqlangan. Bu imlo qoidalari quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olgan:

1. Ayrim harflar imlosi;
2. O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi;
3. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi;
4. Bo'g'in ko'chirilishi;
5. Bosh harflarning yozilishi.

1995-yil 24-avgustda lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining imlosiga doir qoidalari tasdiqlandi. Bu imlo qoidalari quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Ayrim harflar imlosi: unlilar imlosi, undoshlar imlosi.
2. Asos va qo'shimchalar imlosi.
3. Qo'shib yozish.
4. Ajratib yozish.
5. Chiziqcha bilan yozish.
6. Bosh harflar bilan yozish.
7. Ko'chirish qoidalari.

Oldingi imlo qoidalari bilan hozirgi imlo qoidalari o'rtasida quyidagi ayrim o'zgarishlar mavjud:

1) juft so'zlar orasida bog'lovchi bo'lib kelgan yuklamalar o'zi bog'langan so'zdan chiziqcha bilan ajratiladi: *dost-u dushman, kecha-yu kunduz*;

2) yil, oyni ko'rsatuvchi raqamlardan keyin ham chiziqcha qo'yiladi: *1995-yil 24-avgust, 1993-yil 2-sentabr*;

3) kirilchadagi **u** harfi so'z boshida va oxirida **s** harfi bilan beriladi: *уирк – sirk, абзац – abzas*. So'z o'rtasida unidan keyin **ts** harfiy birikmasi, undoshdan keyin esa **s** harfi bilan beriladi: *лицей – litsey, акция – aksiya*.

4) **-ga** qo'shimchasi **g'** tovushi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda morfologik yozuv bo'yicha asliga muvofiq yoziladi: *bog'+ga= bog'ga, tog'+ga= tog'ga*.

5) oldin shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yozib kelingan juda ko'p chet tili so'zlari endilikda fonetik yozuv bo'yicha yoziladigan bo'ldi (bu o'zgarish asosan tarkibida **ě, ю, я** harflari qatnashgan so'zlarga tegishlidir) : *sentabr (сентябрь), oktabr (октябрь), budjet (бюджет), rejissor(режиссёр), likor (ликёр)*.

6) ayrim so'zlar esa oldin fonetik yozuv bo'yicha yozilgan bo'lsa, yangi alifboda morfologik yozuvga ko'ra yoziladigan bo'ldi: *ertalabki* emas *ertalabgi*.

Imlo qoidalari orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy, an'anaviy va differentsiatsiya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Fonetik va morfologik tamoyillar o'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillaridir.

Fonetik tamoyil (fonetik usul). Bu tamoyil bo'yicha so'zlar, so'z tarkibidagi qo'shimchalar qanday talaffuz etilsa, xuddi o'shanday yoziladi. Bu tamoyil asosida ayrim harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosidagi ayrim qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, 1) *son* so'ziga fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi qo'shish bilan yasalgan so'z *sona* emas, *sana* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. *Yosh*, *ot* so'zlariga fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan *yosha*, *ota* so'zlari *yasha*, *ata* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. *Ong* so'ziga fe'l yasovchi **-la** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan so'z *ongla* emas, *angla* tarzida talaffuz qilinadi va yoziladi. 2) *o'yin* so'ziga **-a** fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan yasalgan so'z *o'yna* tarzida (*i* tovushi tushirilib) aytiladi va shunday yoziladi; 3) *sariq*, *ulg'* so'zlariga fe'l yasovchi **-ay** qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan so'z *sarg'ay*, *ulg'ay* tarzida aytiladi va shunday yoziladi; 4) *o'qi*, *tani*, *tashi* kabi fe'l formalariga **-v** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan so'z *tashuv*, *o'quv*, *tanuv* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 5) *tara*, *bo'ya* so'zlariga **ot** yasovchi **-q** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan so'z *taroq*, *bo'yoq* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 6) *q* va *k* tovushi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *q* tovushi *g'*, *k* tovushi *g* tovushiga almashadi va shunday yoziladi: *taroq+i=tarog'i*, *kurak+i=kuragi*, *istak+i=istagi*, *o'rtoq+i=o'rtog'i*.

I z o h: *q* va *k* undoshi bilan tugagan ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *q* va *k* tovushlari asliga muvofiq aytiladi va yoziladi: *ishtiroki*, *ishtiyogi*, *zavqi*, *shavqi*, *choki*, *cheki*.

7) *og'iz*, *qorin*, *o'rin*, *singil*, *ko'ngil*, *burun*, *shahar* kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi *i*, *u*, *a* unilari talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: *og'iz+im=og'zim*, *qorin+im=qornim*, *o'rin+im=o'rnim*, *singil+im=singlim*, *ko'ngil+im=ko'nglim*, *burun+im=burnim*, *shahar+im=shahrim* (bu so'z *shaharim* tarzida aytilishi va yozilishi ham mumkin. Bu ikki holat tilda parallel ishlatiladi.);

8) adabiy tilda jo'nalish kelishigining **-ga** qo'shimchasi shakli qabul qilingan. Ba'zan bu shakl **-ka**, **-qa** tarzida eshitiladi. Masalan: *bilakka*, *go'dakka*, *qishloqqa*, *toqqa* kabi. Ko'rinib turibdiki, so'z *q* yoki *k* undoshi bilan tugaganda jo'nalish kelishigi **-qa**, **-ka** shaklini olyapti. Og'zaki talaffuzda so'z qanday tovushlardan tashkil topgan bo'lsa, bu tovushlar yozuvda ham shu tovushlarga mos harflar bilan aks ettirilyapti.

9) *q* va *k* undoshi bilan tugagan fe'l shakllariga ravishdosh hosil qiluvchi **-gach** qo'shimchasining **-qach** va **-kach** variantlari qo'shilib, *chiqqach*, *ekkach* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

10) rus tilidan o'zlashgan *kiosk*, *disk* so'zlari o'zbek tilida *kioska*, *diska* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

11) o'zlashma *rama*, *para*, *minuta*, *sekunda*, *konfeta* kabi so'zlarning oxiridagi **a** unlisi o'zbek tili og'zaki nutqida talaffuz etilmaydi va yozuvda ham aks ettirilmaydi (*rom*, *par*, *sekund*, *minut*, *konfet* kabi).

12) o'zlashma *shyotka*, *podnos* so'zlari esa *cho'tka*, *patnis* tarzida aytiladi va yoziladi.

13) *u*, *bu*, *shu*, *o'sha* olmoshlariga **-da**, **-dan**, **-ga**, **-gacha**, **-cha** qo'shimchalari qo'shilganda *i* tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda*, *undan*, *ungacha* va hokazo.

14) *zachyot*, *syujet*, *sentyabr* so'zlari og'zaki nutqda *zachot*, *sujet*, *sentabr* tarzida talaffuz qilinadi va talaffuzga mos shaklda yoziladi.

Fonetik tamoyil yozuvni jonli talaffuzga yaqinlashtiradi, ular o'rtasida umumiylikni vujudga keltiradi.

Demak, fonetik tamoyilga ko'ra yozuvda talaffuzdagi tovushga muvofiq keladigan, aynan mos tushadigan harf qo'llanadi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra so'zlarning tarkibiy qismlari: o'zak-negiz va qo'shimchalari og'zaki nutqda qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar, ya'ni og'zaki talaffuz shakliga qarab emas, asliga muvofiq yoziladi. Bu tamoyil so'z o'zagini, unga qo'shiladigan qo'shimchalarni muayyan bir sistema asosida aks ettiradi, tildagi variantlilikka, har xillikka barham

beradi. Bu tamoyilga ko‘ra variantlardan biri tanlanib, yozuvda tanlangan variant asos qilib olinadi. O‘zbek orfografiyasining asosiy imlo qoidalari, ya‘ni ayrim unli harflar imlosi, ayrim undosh harflar imlosi hamda asos va qo‘shimchalar imlosi shu tamoyilga tayanadi. Masalan: 1) *uzum, uzuk, tugun, turmush* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida **u** kelsa, keyingi bo‘g‘inida **u** unlisi **i** tarzida aytilsa ham, **u** yoziladi. 2) jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar (*b, d, v, g, j(jim), j(juri), g’, z*) so‘z oxirida jarangsiz (*p, t, f, k, ch, sh, s*) tarzida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq yoziladi: *maktab, ozod*; 3) *shanba, sunbul, manba, vatanparvar* kabi so‘zlar o‘rtasida kelgan **n** undoshi o‘zidan keyin kelgan **b, n, m** undoshlari bilan yonma-yon kelganda, og‘zaki talaffuzda *shamba, sunbul, mamba* kabi **m** tarzida aytilsa ham, **n** shaklida yoziladi. 4) *do‘st, go‘sh, to‘rt, Toshkent* kabi so‘zlarda so‘z oxirida yonma-yon kelgan undoshlarning oxirgisi talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi; 5) *pastqam* so‘zi o‘rtasida ketma-ket kelgan ikki undoshning (*st*) keyingisi talaffuz qilinmaydi, lekin yozuvda saqlanadi; 6) *-lar* ko‘plik qo‘shimchasi so‘z oxirida kelganda, og‘zaki nutqda *-la* tarzida aytilsa ham, yozuvda *-lar* shaklida yoziladi. 7) *uch, to‘rt* sonlariga *-ta, -ala* qo‘shimchalari qo‘shilganda, *ushta, uchchala, to‘rttala* tarzida aytiladi, lekin yozuv uchun tanlangan varianti yoziladi: *uchta, uchala, to‘rtala* kabi.

Shuningdek, qo‘shimchalarning asosiy qismi morfologik tamoyil asosida yoziladi, ya‘ni kelishik qo‘shimchalari og‘zaki nutqda *maktabta, ishtan* tarzida aytilsa ham, *maktabda, ishdan*; fe‘llardagi *-di* shaxs-son hamda yaqin o‘tgan zamon qo‘shimchasi *-ti* tarzida (*aytipti, aytti*) aytilsa ham, *aytibdi, aytdi* kabi yoziladi.

Morfologik tamoyil o‘zbek orfografiyasining asosiy va yetakchi tamoyili sanaladi va yozuvda bir xillikni ta‘minlaydi.

Demak, morfologik tamoyilga ko‘ra so‘zning tovush tarkibi og‘zaki nutqda qanday aytilishidan qat‘i nazar o‘zining morfologik shaklini o‘zgartirmagan holda yoziladi.

Shakliy an’anaviy tamoyil (tarixiy-an’anaviy tamoyil deb ham yuritiladi). Bu tamoyilga ko‘ra boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar hozir ham o‘tmishdagi shakliga muvofiq yoki o‘zi mansub bo‘lgan tildagi shaklini o‘zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi. Bu tamoyil asosida quyidagi kabi imlo qoidalari ishlab chiqilgan:

1. *Manfaat, matbaa, mutolaa, taajjub, taassurot* kabi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda bitta cho‘ziq a talaffuz qilinsa ham, arab imlosini saqlagan holda yozuvda ikkita **a** yoziladi.
2. *Mubolag‘a, muzokara, munosabat, muhokama* kabi arabcha so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inida **a** og‘zaki nutqda qisqa **i** tarzida aytilsa ham, an’anaga ko‘ra **a** yoziladi.
3. *Tadbir, tatbiq* so‘zlarining birinchi bo‘g‘ini oxiridagi **d** va **t** undoshlari bir xil **t** tovushi tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda **d** va **t** undosh harflari saqlanadi.
4. *Dorboz, torozibon* kabi so‘zlardagi fors-tojik tilidan o‘zlashgan *-boz, -bon* qo‘shimchalari og‘zaki nutqda *-voz, -von* tarzida aytilsa ham, uning an’anaviy shakli yozuvda saqlanadi.
5. An’anaviy tamoyil *taqozo, hokazo* kabi so‘zlarning tovush tarkibiga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bu so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inidagi **o** va **a** unililari ba‘zan **a**, ba‘zan **o** unlisi kabi talaffuz qilinadi. Tarixan *o (taqozo), a (hokazo)* yozib kelingani uchun hozir ham yoziladi.
6. *Ocherk, tonna* kabi so‘zlarining urg‘uli bo‘g‘inida **o** unlisi o‘zbek tilidagi **o‘** unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi shakliga muvofiq yoziladi.
7. *Direktor, traktor, ekspeditor* kabi so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inidagi **o** unlisi og‘zaki nutqda qisqa **i** unlisi tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakli saqlanadi.
8. *Motor, otryad, limonad, konsert, konspekt* kabi so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inida kelgan **o** unlisi talaffuzda **a** unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi kabi **o** unlisi bilan yoziladi.
9. *Zachyot, syujet, rejissyor, sentyabr* so‘zlari og‘zaki nutqda *zachot, sujet, rejissor, sentabr* tarzida talaffuz qilinsa ham, kirill alifbosida rus tilidagi shakli saqlanadi.
10. *Rayon, mayor, Nyu-York* so‘zlaridagi *yo* harfiy birikmasi og‘zaki nutqda *yo‘* tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda o‘sha tildagi an’ana saqlanadi.

Bu tamoyil mumtoz adabiyot tiliga ham tatbiq etiladi. Qadimda hozirgi-kelasi zamon qo‘shimchasi *-r (-ar)* ning *-ur* shakli ishlatilgan. Bu shakl ba‘zan hozirgi she‘riyatda ham saqlanadi.

I. Ba'zan tirnoqlar bezagi uchun

Sahardan shomgacha qilursiz toqat,
Ammo eringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat. (A.Oripov)

Mazkur she'rda maqsad ma'nosini ifodalovchi –gani qo'shimchasi –gali tarzida qo'llangan.

Eski o'zbek tilida chiqish kelishigi –din ba'zan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi –dan o'rnida qo'llaniladi: *Sendin o'zgani desam...*

So'roq ma'nosini ifodalash uchun –mi yuklamasi ba'zan –mu tarzida, ya'ni qadimgi shaklda qo'llanadi. Masalan:

Demak, bu tamoyilga ko'ra so'zlar talaffuzidagi hozirgi holatiga qarab emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan shaklini saqlagan holda yoziladi.

Differensiatsiya tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki ba'zan ma'noga ko'ra) farqlanadi. Masalan:

1. Urg'u vositasida farqlash: *atlás* - mato, material. *Átlas* - geografik atlas, xarita. *Akadémik* - ot, *akademik* - sifat (masalan, *akademik litsey*).

2. Unlining cho'ziq-qisqaligi orqali farqlash (bunday so'zlarda unlining cho'ziqligini tutuq belgisi ta'minlaydi, demak bunday so'zlarning shakli va ma'nosi tutuq belgisiga ko'ra farqlanadi): *tana* – ta'na, *surat* – sur'at, *qala* – qal'a kabi.

3. Boshqa-boshqa tovush ifodalovchi harflar vositasida so'z ma'nosini farqlash: *xol* (yuzdagi xol) – *hol* (ahvol, holat).

Grafik tamoyil. Bu tamoyil asosidagi imlo qoidalari tovush bilan uning yozuvdagi shakli o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashga asoslanadi. Masalan, sirg'aluvchi *j* tovushi bilan qorishiq portlovchi *j* tovushlari yozuvda bitta shakl – harf bilan berilishi (*jo'ja-gijda* kabi), sayoz til orqa – *ng* tovushini ifodalovchi harflar birikmasi *ng* hamda *n* va *g* tovushlarini ifodalovchi *n* va *g* harflari yonma-yon kelganda ham *n* va *g* talaffuz etilishi grafik tamoyil asosida belgilangan: *ko'ngil* – bitta tovush, *senga* - ikkita tovush.

Fonetik tahlil namunasi:	
1. So'zda nechta tovush va nechta harf bor?	4. So'z bo'g'inlarga ajratilib, bo'g'in turlari aniqlanadi.
2. Unli va undosh tovushlar aniqlanib, ular tavsiflanadi.	5. So'zning urg'usi aniqlanadi.
3. Tovush o'zgarishlari aniqlanadi.	6. So'z qaysi yozuv qoidasi bo'yicha yozilgan?

Savol va topshiriqlar

1. Yozuv nima?
2. Kishilik tarixida qanday yozuvlar qo'llanilgan?
3. O'zbek xalqi ajdodlari qaysi yozuvlardan foydalangan?
4. Orfografiya nima? Orfografiyaning asosiy imlo qoidalarini ayting.
5. Imlo qoidalari qanday tamoyillar asosida ishlab chiqiladi?
6. Harf va belgining farqini ayting. O'zbek alifbosida nechta harf va nechta belgi bor?
7. Alfavit nima? Uning ahamiyatini ayting. O'zbek yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
8. Fonetik tamoyil asosida ishlab chiqilgan asosiy imlo qoidalarini va ularni imlo qoidalarining qaysi turiga kirishini ayting.
9. Morfologik tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
10. Shakliy an'anaviy (tarixiy an'anaviy) tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
11. Grafik tamoyil nimani belgilab beradi?
12. Bosh harflar qanday hollarda qo'llanadi?
13. Qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar imlosini tushuntiring.

Fonetika, grafika va orfografiya bo'limlari yuzasidan test savollari:

1. Fonetika o'rganadigan masalalar noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) nutq tovushlarining hosil bo'lishi B) urg'u, bo'g'in, ohang C) nutq tovushlarining turlari, o'zgarishi
D) nutq tovushlarining so'z ma'nolarini ajratishdagi roli.

2. Fonetika bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) lingvistik xususiyatlari B) ijtimoiy mohiyati C) fizik-akustik xususiyatlari D) ma'no farqlash xususiyatlari

3. Fonologiya bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) qay tarzda hosil bo'lishi B) sifat tomonlari C) kuchi va cho'ziqligi

D) ma'no farqlash xususiyatlari.

4. Tovushning xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) so'z va qo'shimchalar bir-birlaridan tovushlari bilan farq qiladi B) har qanday so'z tovushlardan tashkil topadi C) nutqning eng kichik bo'linmas ma'noli qismi D) birchasi to'g'ri.

5. Bir xil tovushlarning turlicha joylashuvidan hosil bo'lgan so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) kitob, maktub, maktab B) suvrat, tasvir, tasavvur, musavvir C) uchqur, chuqur, urchuq D) ahhob, habib, muhib.

6. Bir tovushi bilan farq qiladigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) kalom, qalam, malak V) borlik, borliq, torlik S) jodu, jodi, juda D) sohib, hisob, solib

7. Tovushlarning ortiqligi bilan farqlanadigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) adab, abad, odob V) alam, qalam, a'lam S) stol, ustol, ustul

D) mulk, molik, komil.

8. Fonemaning belgilari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) eshitilishi V) aytilishi S) ma'no farqlashi D) tuzilishi.

9. Fonemaning eng muhim belgisi ko'rsatilgan javobni toping.

A) ma'no ajratishi V) akustikasi S) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshitilishi.

10. Nutq tovushlarining balandligi nima bilan ta'minlanadi?

A) un paychalarining ko'p tebranishi bilan V) un paychalarining kuchli tebranishi bilan S) un

paychalarining past tebranishi bilan D) un paychalarining kam tebranishi bilan

11. Nutq tovushlarining kuchi nimaga bog'liq?

A) un paychalarining tebranish vaqtiga V) un paychalarining tebranish o'rniga S) un paychalarining

tebranish amplitudasiga D) un paychalarining tebranish joyiga

12. Nutq a'zolaridan qaysi birining hajmi va shakli nutq tovushlarining tembriga ta'sir qilmaydi?

A) og'iz bo'shlig'ining shakli V) burun bo'shlig'ining hajmi S) bo'g'iz bo'shlig'ining shakli D) tovush

paychalarida shovqinning qanday hosil bo'lishi.

13. Nutq tovushlarining un paychalari tebranadigan vaqt bilan o'lchanadigan xususiyati qaysi javobda berilgan?

A) tembri V) cho'ziqligi S) kuchi D) balandligi

14. Qaysi javobda nutq a'zosi nomi noto'g'ri berilgan?

A) o'pka, bronxlar, nafas yo'li V) xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon va nayzasimon tog'aylar, un paychalari S) burun bo'shlig'i, markaziy nerv sistemasi. D) til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar

15. Qaysi nutq a'zosi tovushni kuchaytirib berishga yordam beradi?

A) til V) un paychalari S) og'iz bo'shlig'i D) bo'g'iz bo'shlig'i

3. Qaysi nutq a'zosi ovoz manbasi hisoblanadi?

A) til V) un paychalari S) og'iz bo'shlig'i D) bo'g'iz bo'shlig'i

16. Qaysi javobda markaziy nerv sistemasining vazifasi to'g'ri ko'rsatilgan?

A) nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi V) nutq a'zolarining harakatini boshqarib turadi S) markaziy nerv sistemasi nutq a'zolari sirasiga kirmaydi D) A, V

17. Qaysi tovushlar talaffuzida havo oqimining yo'nalishi o'zgaradi

A) y, z, s V) m, n, ng S) v, f, r D) sh, j, g'

18. Fonetik vositalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) urg'u, bo'g'in, tovush V) nutq tovushlari vergul, nuqta S) ohang, nutq a'zolari, pauza D) fonemalar, urg'u, ohang

19. Urg'uning vazifasi noto'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) hozir (ravish) - hozir (sifat) V) qo'llar (a'zo) - qo'llar (fe'l) S) nufuz (obro') - nufus (aholi) D)

ko'zlár(a'zo)- k'zlar(fe'l)

20. So'z ma'nosini farqlashda urg'uning qaysi turi ishtirok etadi?

A) logik urg'u B) leksik urg'u S) gap urg'usi D) ma'no urg'usi

21. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra b hamda p undosh tovushlariga to'g'ri tavsif berilgan qatorni toping.

A) *b* – lab undoshi, lab-lab; *p* – lab undoshi, lab-lab B) *b* – jarangli undosh; *p* – jarangsiz undosh C) *b* jarangli undoshining jarangsiz jufti *p* undoshidir D) B va C javoblar

22. Hosil bo'lish usuliga ko'ra *q* hamda *g'* undosh tovushlariga to'g'ri tavsif berilgan qatorni toping.

A) *q* – til undoshi, chuqur til orqa; *g'* – til undoshi, chuqur til orqa B) *q* va *g'* – bo'g'iz undoshlari C) *g'* – jarangli undosh; *q* – jarangsiz undosh D) *q* portlovchi undosh; *g'* – sirg'aluvchi undosh.

23. Qorishiq undosh tovushlar berilgan qatorni toping.

A) *m, n, ng* B) *j, sh, f* C) *ch, j(dj)* D) *ng, r, l*

24. *X* undoshiga to'g'ri tavsif berilgan javobni toping.

A) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush

B) bo'g'iz, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush C) chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush D) chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush

25. Tovush paxchalarining ishtirokiga ko'ra *sh* hamda *j* undosh tovushlariga to'g'ri tavsif berilgan qatorni toping.

A) *sh* – til undoshi, til oldi; *j* – til undoshi, til oldi

B) *j* jarangli undoshning jarangsiz jufti *sh* undoshi C) A, B

D) *sh* – jarangsiz undosh; *j* – jarangli.

26. Javoblarning qaysi birida unli tovushlar ko'rsatilgan?

A) *b, f, k, p, t* B) *a, u, o', i, o, e*

C) *i, e, a, o, u, o', y* D) *m, n, ng, r, l*

27. Nutq tovushlarining yozuvda ifodalanish usullarini qaysi bo'lim o'rgatadi?

A) orfoepiya B) orfografiya C) grafika D) fonetika

28. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar nechanchi asrga taalluqli va ular qaysilar?

A) VII asrlarga, O'rxun–Enasoy yodgorliklari B) XXV asrlarga, A.Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari C) XI – XIII asrlarga, Sakkokiy va Atoiynning ba'zi she'rlari D) XI asrga, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarining Namangan va Kohira nusxalari, Maxmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari

29. Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, yurtimning so'zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.

A) 23,20,17,19,8,12,13,8,13. B) 23,20,17,19,8,12,13,8,29

C) 23,17,19,8,12,13,8,29 D) 22,19,17,18,8,12,13,8,29

30. Qaysi qatordagi so'zlarda «ng» harfi bir tovushni ifodalamoqda?

A) tanga, jang, menga B) zang, ko'ndalang, ingramoq

C) durang, onangiz, nonga D) kongress, menga, singil

31. Baland boloxonali uy. Ushbu birlikda qanday holatda uyning balandligi anglashiladi?

A) baland so'zidan so'ng pauza bo'lsa B) boloxonali so'zidan keyin pauza bo'lsa C) uchala so'z orasida pauza mavjud bo'lmasa D) har qanday holatda ham uyning balandligi anglashiladi

32. Qaysi qatordagi so'zlarning ikkinchisi noto'g'ri yozilgan?

A) ajdaho va ajdarho B) bekik va berkik C) bema'nilik va bema'nolik D) barcha javoblarda ikkinchi so'zlar to'g'ri yozilgan

33. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.

A) tasavuf, tasaruf, tasavur B) xohish, mavhum, aqalli C) avf, ayuhannos, mone' D) A, C.

34. Qaysi qatorda tutuq belgisining qo'llanish o'rniga ko'ra xatoga yo'l qo'yilgan?

A) ma'zur, ma'bud, ma'yus B) ma'shum, ma'suliyat, ma'sud

C) ma'mur, ma'sum, ma'shuq D) mal'un, minba'd

35. Fonetik prinsip(tamoyil) asosida yozilgan so'zlarni belgilang.

1) yasha; 2) yayra; 3) yashna; 4) o'yna; 5) ikkala; 6) uchala;

7) yamoq; 8) yong'oq; 9) yig'loq; 10) o'yinchoq.

A) 1,4,5,7,9 B) 1,2,3,5,6 C) 5,7,9 D) 1,5,7,9,10

36. O'zak va qo'shimchalarning yozilishida bir xillikni ta'minlaydigan prinsip (yozuv, tamoyil)ga...

A) morfologik prinsip deyiladi B) fonetik prinsip deyiladi

C) an'anaviy prinsip deyiladi D) shakliy prinsip deyiladi

